


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI
ANIQ-TABIIY FANLAR VA JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI
JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI KAFEDRASI**




Ro'yxatga olindi:

№ BM

2022-yil

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
prof. A.X. Begmatov
2022-yil



Bilim sohasi:
Ta'lim sohasi:
Ta'lim yo'nalishi:

100000 – Ta'lim

110000- Ta'lim

70112201-Jismoniy tarbiya va sport
mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
magistratura mutaxassisligi

**“Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik
texnologiyalar” fanidan
(II-kurs)**

**O' QUV-USLUBIY MAJMUA
(Moodle tizimi rejasi asosida)**

Tuzuvchi:

Aniq-tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti
“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”
kafedra PhD v v b dots. G.Xolboyeva

Kafedra mudiri:

prof. J.E. Eshnazarov

Mazkur majmua Aniq-tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat
fakulteti o'quv-uslubiy kengashining 2022 yil “ ”
-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va
tasdiqlangan.

Fakultet dekani:



prof. B.T. Haydarov

2022-yil

MUNDARIJA

1.KIRISH (FANNI MAZMUN MOHIYATI, MAQSADI, VAZIFASI, O'RGANISH OBEKTI).....	3
2. FANNI SILLABUSI	4
3. ASOSIY NAZARIY QISM	9
3.1. MA'RUZA MATNI (MUNDARIJASIDA SAHIFALAR ANIQ KO'RSATILSIN).....	11
3.2 AMALIY MASHG'ULOTLAR TOPSHIRIQLARI VA ISHLANMASI YOKI SEMINAR, LABORATORIYA TOPSHIRIQLARI (MUNDARIJASIDA SAHIFALAR ANIQ KO'RSATILSIN).....	118
3.3. MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI (TOPSHIRIQLAR HAR BIR MAVZU DOIRASIDA GURUHDAGI TALABALARNI TA'MINLASHGA QARATILGAN BO'LISHI LOZIM).....	182
4. FAN GLOSSARIYSI	183
5. FANNI O'ZLASHTIRISH KO'RSATKICHINI ANIQLASHGA QARATILGAN SAVOLLAR TO'PLAMI	187
IZOH: FAN DASTURI MAVZULARINI QAMRAB OLGAN HOLDA, NAZARIY TA'LIMGA OID SAVOLLAR, AMALIY, SEMINAR, LABORATORIYA MASHG'ULOTLARGA OID MISOL, MASALALAR	
6. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	189

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim oldidagi eng muhim masalalaridan biri jismoniy madaniyat va sport fanlari ham jahon andozalariga javob beradigan o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'qitishdir. Mazkur fan magistr yo'nalishi: 70112201 - Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi magistratura mutaxassisligi yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalarga adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va uni tashkil etish asoslari, kasbiy faoliyat to'g'risida yaxlit tushuncha, metodik yondashuvlar, ushbu turdagi ijtimoiy amaliyotning umumiy qonuniyatlarini o'zlashtirishini ta'minlash, foydalanish masalalarini o'z bilim doirasiga qamrab oladi.

O'quvchilarda o'quv jarayonida mustaqillik va ijodkorlik istagini shakllantirish, ularni ilmiy tadqiqotlar bilan tanishtirish, ijodiy faoliyatda o'z tajribalarini rivojlantirishni ta'minlash;

Talabalarga kelgusida kasbiy faoliyatga hissiy jihatdan qimmatli munosabatda bo'lish tajribasini o'rganish uchun sharoit yaratib berish, kelajakda ularga imkoniyati cheklanganlarni har tomonlama sog'lomlashtirish, ularning sog'lig'iga ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va hayot sifatini yaxshilash.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda jismoniy madaniyatni o'qitish jarayoni, treninglar, ochiq munozaralar, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoa ishlashni tashkil qilish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga ega qilish hamda talabalarning ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonga tayyorlashdan iborat bo'lib, jismoniy madaniyatni mazmuni, maqsadi shuningdek, talabalarning imkoniyati, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim berish jarayonini o'qitish jarayonida keltirilgan texnologiyalar asosida o'zining mualliflik texnologiyalari bilan o'zgartirish va rivojlantira olish bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish.

Fanning vazifasi - talabalarga o'quv jarayoni va o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovasion ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik innovasion texnologiyalarini joriy etish yo'llarini o'rgatishdan iborat, o'quv vazifalarni va slayd taqdimotlarni ishlab chiqarish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

O'rganish ob'ekti. Mazkur fan dasturi magistr yo'nalishi: 70112201 - Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi magistratura mutaxassisligi yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, ob'ekti talabalarga o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovasion ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik innovasion texnologiyalarini qo'llay olish yo'llarini o'rgatish, usullari va dars jarayoni hisoblanadi.

«Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar» fanining

ANNOTASIYASI

YuNESKO tomonidan tan olingan pedagogik texnologiya oqimi 30-yillarda AQShda paydo bo'ldi va 70-80 yillarda barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun mo'ljallangan majmualar texnik vositalarning yaratilishida namoyon qiladi.

Hozirgi vaqtda "pedagogik texnologiya ta'lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta'limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li orqali, yo'l va materiallarni tuzish hamda qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotdir" (Mejdunarodnyy yezegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya, 1978/79. London, Nyu-York, 1978).

Pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta'limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

➤ *tushunchaga oid qism* - texnologiyalashtirishning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidalarini o'rganishga yo'l;

➤ *ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi va harakatlanuvchi tuzilma* - ta'lim jarayonini bashoratlash va loyihalashtirish asosi to'g'risida tushuncha;

➤ *ta'limiy texnologiyalarning konseptual asoslari* - har qanday ta'lim texnologiyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug'ida ifodalangan pedagogik g'oya asos bo'ladi;

➤ *maqsadni belgilash* - pedagogik vazifalar aniqlangan bo'lsa va o'quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma'noda ifodalangan bo'lsa, boshlanish shartlari ma'lum bo'lsa, ta'lim jarayonini loyihlashtirish mumkin;

➤ *ta'lim berish modeli* – maqbul yo'l (usul va shakl)lar va vositalar yig'indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtda obyektning boshlang'ich holatini o'zgartirish bo'yicha ko'zlanayotgan natijalarga erishish kafolati;

➤ *boshqaruvning yo'l va vositalar yig'indisi* - bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o'zgartirish to'g'risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta'lim jarayonini uzluksiz va muntazam kuzatish - monitoring.

Har bir yo'l va vosita o'qituvchi-texnolog tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko'rinarli qo'shgan hissasi tomoni bilan baholanishi zarur. Qoidaning maqbulligini talqin qila turib, e'tiborni nafaqat unga, uni qo'llashni nazarda tutuvchi vaziyat yoki sharoitlarga qaratish zarur. Gap shundaki, qoidalar odatda formula emas, boshqaruv xususiyatga ega bo'ladi, madomiki ularni qo'llash mumkin bo'lgan, ta'lim jarayoni sharoitida ayrim noaniqliklar bor. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o'quv vaziyatida qo'llab, muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma'lum bo'lgan ta'lim berish texnologiyasining muallifida, shuni qoidasiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turli-tumanlikdan mavjud sharoitda va o'quv rejasida berilgan vaqtda ko'zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta'minlaydigan, so'ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta'lim berish texnologiyasining - yagona majmuini loyihalashtirish mumkin bo'ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yo'l va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim.

2. Mashhur marketolog Dj. O'Shonessining "...kitoblar hyech qachon tajriba o'rnini bosa olmaydi" degan fikriga qo'shilish mumkin. Mahoratli oshpaz oshpazlik to'g'risida kitob yozishi mumkin, uni tayyorlash yo'lga amal qilib, xuddi shunday chiqishini kutmaslik kerak,

chunki uning mahorati bilan taqqoslab bo'lmaydi - berilgan qoidani ishlatib muhim ko'nikma va malakalar ega bo'lish mumkin emas, ular faqat amaliyotda egallanadi va "qo'llaniladigan donishmandlik" deb ataluvchi amaliyotli donishmandlik bilan mustahkamlanadi, ya'ni vaziyat bilan muvofiqlikdagi donishmandlik" (Dj. O'Shonessi, 2000).

Ushbu qo'llanma bilan tanishganingizdan so'ng shu zahoti umidsizlikka tushmang, siz shu zahoti ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtira olmaysiz. Shuni esda saqlangki, qo'llaniladigan donishmandlik kitob bo'yicha formularni o'rganishda emas, balki haqiqiy ishni bajarganda hosil bo'ladi (Dj. O'Shonessi, 2000).

3. "Ta'lim jarayonini ixtiyoriy qurish va amalga oshirishdan, uning har bir qism va bosqichlarini izchil asoslangan, yakuniy natijani haqqoniy tashxislashga yo'naltirilgan" ga o'tish uchun asos zarur (V. Bepalko, 1989).

Agarda siz ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishga o'tish muhimligini anglamas ekansiz, unda "biz yangi texnologiyalarning yutug'larini bermaylik, paydo bo'lgan muntazamlik mexanizmini chiqarib tashlay olmaydi, yo bo'lmasa majbur qilingan texnologiyalar ziyonli natijalarni ko'paytirishi mumkin".

4. Nihoyat, shaxsiy ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtirish va mavjud ta'lim berish texnologiyasini qo'llash "o'qituvchi, vaziyat madaniyati, shuningdek shaxsiy yoki talabalarning shaxsiy xususiyatlari bilan yuzma-yuz kelish yo'nalishi bilan ish tutmog'i kerak" (Ye.S. Polat, 2000).

Ushbu O'UM jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishidagi bakalavr uchun mo'ljallangan.

**« Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion
pedagogik texnologiyalar »fanining
2017/2018o'quv yili uchun mo'ljallangan
SILLABUSI**

Fanning qisqacha tavsifi							
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Samarqand davlat universiteti			Universitet xiyoboni,15			
Kafedra:	Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi			“Jismoniy madaniyat” fakulteti tarkibida			
Bilim sohasi: Ta`lim sohasi: Ta`lim yo`nalishi:	100 000-Ta`lim 110 000-Pedagogika 5610500-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo`yicha)	110 000-Pedagogika	110 000-Pedagogika				
Fanni (kursni) olib boradigan o`qituvchilar to`g`risida ma`lumot:	o`qituvchilar: Yo.Q.Ismoilov,		e-mail:		8111.@umail.uz		
Dars vaqti va joyi:	Auditoriya	Kursning davomiyligi:		29.01.2018-20.06.2018			
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	dushanba, chorshanba va juma kunlari 15.00 dan 17.30 gacha						
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari					Mustaqil ta`lim:	45
	Ma`ruza:	34	Semenar	14	Amaliyot	16	
Fanning boshqa fanlar bilan bog`liqligi (prerekvizitlari):	Talabalar Jismoniy madaniyatni o`qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalari fani o`quv rejasining boshqa bloklarida belgilangan barcha fanlar bilan o`zaro uzviy bog`liq xolda olib boriladi. Fanni tashkil qilishga bunday yondashish nafaqat talabalarda sport-pedagogik mahoratni shakllantirishga asos bo`ladi, balki ularda ma`naviy-ahloqiy, intellectual va umumsoniy xislatlarni kamol tonishiga turtki beradi. Fanning mazkur o`quv dasturida k o`rsatilgan nazariy va amaliy materiallar hamda mavzular didaktik prinsiplarga asoslangan mantiqiy ketma-ketlikda o`zlashtiriladi.						
Fanning mazmuni							
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	Fanning o`qitishdan maqsadi – talabalarda jismoniy madaniyatni o`qitish jarayoni, treninglar, ochiq munozaralar, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoa ishlashni tashkil qilish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga ega qilish hamda talabalarining ta`lim muassasalaridagi pedagogik jarayonga tayyorlashdan iborat bo`lib, jismoniy madaniyatni mazmuni, maqsadi shuningdek, talabalarining imkoniyati, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta`lim berish jarayonini o`qitish jarayonida keltirilgan texnologiyalar asosida o`zining mualliflik texnologiyalari bilan o`zgartirish va rivojlantira olish bo`yicha bilim va ko`nikmalar bilan qurollantirish. Fanning vazifasi – talabalarga o`quv jarayoni va o`quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta`lim texnologiyalarini joriy etish asosida ta`lim jarayoniga ilg`or pedagogik innovatsion texnologiyalarini joriy etish yo`llarini o`rgatishdan iborat, o`quv vazifalarni va slayd taqdimotlarni ishlab chiqar olish yo`llarini o`rgatishdan iborat.						
Talabalar uchun talablar	- o`qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo`lish; - universitet ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; - uyali telefonni dars davomida o`chirish;</li><li>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o`z vaqtida va sifatli bajarish; - ko`chirmachilik (plagiat) qat`iyan man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o`zlashtirilishi shart; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;						

	- talaba o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi; - talaba reyting ballidan norozi bo'lsa, e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyasiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin.
Elektron pochta orqali munosabatlarning tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 16.00 dan 20.00 gacha

№	Mavzular nomi	Jami soat	Ma'ruza	Seminar masg'ulot	Amaliy masg'ulot	Mustaqil ta'lim
1	Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.	2	2	2		
2	Maqsadni belgilash. Uch darajali testlar asosida o'quv natijalariga erishish darajasini baholash	6	2	2		4
3	Ta'lim shakllari ta'lim texnologiyasi tarkibi	6	4	2		4
4	Ta'lim usullari ta'lim texnologiyasi tarkibi	6	4	2		4
5	Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	6	2	2		4
6	Loyihaviy ta'lim texnologiyasiga kirish	2	2	2		
7	Ta'limning keys texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari	6	2	2		4
8	Ma'ruzada ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	4	2		2	2
9	Seminarda ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	4	2		2	2
10	Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasi tarkibi	8	2		2	4
11	O'quv loyihasini guruhlarda bajarish	6	2		2	4
12	O'quv loyihasini guruhlarda bajarish. O'quv loyihasi bo'yicha faoliyatni baholash va taqdimot	6	2		2	4
13	Ta'limning keys-texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish	6	2		2	3
14	Guruhlarda keys yechimini topish	4	2		2	2
15	Guruhlarda keys yechimini topish. Natijalarni taqdim qilish va baholash	4	2		2	2
Jami		76	34	14	16	45

Kirish

«Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar» o'quv dasturi 5110500 – “Sport faoliyati” ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni ta'limni texnologiyalashtirish asoslari bo'yicha tasavvurlarini boyitish va innovatsion pedagogik ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy va amaliy bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning o'qitishdan maqsadi – talabalarda jismoniy madaniyatni o'qitish jarayoni, treninglar, ochiq munozaralar, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoa ishlashni tashkil qilish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga ega qilish hamda talabalarning ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonga tayyorlashdan iborat bo'lib, jismoniy madaniyatni mazmuni, maqsadi shuningdek, talabalarning imkoniyati, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim berish jarayonini o'qitish jarayonida keltirilgan texnologiyalar asosida o'zining mualliflik texnologiyalari bilan o'zgartirish va rivojlantira olish bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish.

Fanning vazifasi – talabalarga o'quv jarayoni va o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik innovatsion texnologiyalarini joriy etish yo'llarini o'rgatishdan iborat, o'quv vazifalarni va slayd taqdimotlarni ishlab chiqish olish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabarning malakasiga qo'yiladigan talablar

«Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: o'quv jarayoni va o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik innovatsion texnologiyalarini joriy etish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Ko'nikma – talabalar;

-o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish;

-o'quv fani bo'yicha talabning o'quv uslubiy majmuani ishlab chiqish;

-ma'ruzalarda interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llay olishga;

-seminar va amaliy mashg'ulotlarda interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish;

-ta'limning keys-texnologiyasini yaratish;

-loyihaviy ta'lim texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Malaka;

-maqsadni belgilashni va uch darajali testlarni ishlab chiqish;

-ta'limning optimal usul, shakl va vositalarini tanlash va ulardan ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida samarali foydalana olish;

-grafik organayzerlarni, o'quv vazifalarni va slayd taqdimotlarni ishlab chiqish olish malakalariga ega bo'lishi kerak.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi

«Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar» fani asosiy ixtisoslik fan hisoblanib v-semestrda o'qitiladi.

Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, sport tibbiyoti-DJM va JT gigiyenasi, jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi, gimnastika va uni o'qitish metodikasi, yengil atletika va uni o'qitish metodikasi, sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi, jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish, suzish va uni o'qitish metodikasi, sport psixologiyasi, turizm va uni o'qitish metodikasi kabi fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlikni talab etadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning «Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi innovatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. «Maqsadni belgilash». «Uch darajali testlarni ishlab chiqish asosida o'quv yutuqlarini baholash», «O'quv loyihasi» va «Keys-stadi» va «Chizma organayzerlar» kabi pedagogik innovatsion texnologiyalar fanni o'qitishda keng foydalaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni fa'ollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini fa'ollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. **Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Milliy kurash turlari, qo'l jangi va uni o'qitish metodikasini o'rgatish hamda o'zlashtirishda muammoli ta'lim, yangi pedagogik texnologiyasidan (klaster, gambur, yechim daraxti) ko'rgazmali qurollardan, zamonaviy texnika vositalaridan, video kasetalardan foydalanish va amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. **Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blis-so'rov, oraliq, joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi. **Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” fanidan mashg'ulotlarning soatlar bo'yicha taqsimlanishi:
Jismoniy madaniyat yo'nalishi.

№	Mavzular nomi	Jami soat	Ma'ruza	Semenar mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim
1	Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.	2	2	2		
2	Maqsadni belgilash. Uch darajali testlar asosida o'quv natijalariga erishish darajasini baholash	6	2	2		4
3	Ta'lim shakllari ta'lim texnologiyasi tarkibi	6	4	2		4
4	Ta'lim usullari ta'lim texnologiyasi tarkibi	6	4	2		4
5	Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	6	2	2		4
6	Loyihaviy ta'lim texnologiyasiga kirish	2	2	2		
7	Ta'limning keys texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari	6	2	2		4
8	Ma'ruzada ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	4	2		2	2
9	Seminarda ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	4	2		2	2
10	Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasi tarkibi	8	2		2	4
11	O'quv loyihasini guruhlarda bajarish	6	2		2	4
12	O'quv loyihasini guruhlarda bajarish. O'quv loyihasi bo'yicha faoliyatni baholash va taqdimot	6	2		2	4

13	Ta'limning keys-texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish	6	2		2	3
14	Guruhlarda keys yechimini topish	4	2		2	2
15	Guruhlarda keys yechimini topish. Natijalarni taqdim qilish va baholash	4	2		2	2
Jami		76	34	14	16	45

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda jismoniy madaniyat va sportda, hususan Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar fanining so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Maruza mashg'ulotlari

Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish. Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish. Ta'limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi va ahamiyati. Ta'lim texnologiyasining evolyusion taraqqiyoti. Ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari. Ishlab chiqarish texnologiyasining mazmuni va mohiyati. pedagogik texnologiyasining tuzilishi va mohiyati. Ishlab chiqarish texnologiyasi bilan pedagogik (ta'lim) texnologiyasini qiyosiy tahlili. Ta'lim texnologiyasi bilan o'qitish metodikasining qiyosiy tahlili. haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Maqsadni belgilash. Uch darajali testlar asosida o'quv natijalariga erishish darajasini baholash” Maqsadni belgilash. Maqsad, maqsadni belgilash, natija tushunchalariga ta'rif berish. O'zlashtirish darajasiga asoslanib maqsadni va natijalarni belgilash. Uch darajali test topshiriqlarini ishlab chiqish. Uch darajali testlar asosida o'quv natijasiga erishish darajasini baholash haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

“Ta'lim shakllari - ta'lim texnologiyasi tarkibi” Ta'lim shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibi. Shaki, ta'lim shakllari, ta'limni tashkil etish shakllari tushunchalari. Ta'limni tashkil etish shakllarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati. Ta'limni tashkil etish shakllarining tasniflanishi. Ta'limni tashkil etish shakllarini tanlash omillari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasi tarkibi” Ta'lim usullari – ta'lim texnologiyasining tarkibi. Usul, ta'lim usullari tushunchasi. Ta'lim usullarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati. Faol ta'lim usullari, interfaol usullar tushunchalari. Ta'lim usullarining tasnifi. Ta'lim usullarining mazmuni. Interfaol usullarning boshqa usullardan farqli tomonlari. Interfaol usullar mazmuni. Ta'lim usullarini tanlash omillari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” Pedagogik texnologiya tushunchasi. Ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari. Ta'lim modeli haqida tushuncha. Ta'lim modeliga kiruvchi komponentlar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati. Ta'lim

modelini ishlab chiqishda ta'limni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini tanlash omillari. O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi haqida tushuncha. Texnologik xaritaning rejadani farqli tomonlari. Ta'lim modeli va o'quv mashg'uloti texnologik xaritasini ishlab chiqish qoidalari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Loyihaviy ta'lim texnologiyasiga kirish” Loyihaviy o'qitish texnologiyasiga kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlari. “Layohatlik”, “Layohat”, “Kasbiy layohatlik”, “Tayanch layohatlar” tushunchalari. Loyihaviy layohatlik. Ta'lim tizimida loyihaviy o'qitishning dolzarbligi va o'ri. Loyihaviy o'qitishning asosiy tushunchalari: loyiha, loyihaviy faoliyat, loyihalashtirish, loyihalash usuli, o'quv loyihasi. Loyihaviy ta'limning mazmuni. O'quv loyihasi tushunchasi. O'quv loyihaviy faoliyat tuzilishi. O'quv loyihalarining turlari. O'quv loyihaning tipologiyasi. O'quv loyihalarining qiyosiy tavsifi. O'quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari. Loyihaviy ta'limning texnologiyasi. O'quv loyihaning pasportining tuzilishi. Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Ta'limning keys texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari” Ta'limning keys-texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari. Amaliy vaziyatlarni yechishning yo'l va vositalari: Keys – stadi: ta'limiy amaliy vaziyat: tushuncha va vazifaviy ahamiyati. “Keys”, “Keys-stadi” tushunchalari. Keysni ishlab chiqishning prosessual tizimi. Keyslar tipologiyasi. Keys matnining yozilishi. Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va yechish bo'yicha yo'riqnoma. Amaliy vaziyatni tahlil qilish qoidasi. Axborot yig'ish usullari va vositalari. Axborot manbalari. Keysda muammoni berish usullari. Keys tuzilmasi. Keysning pedagogik pasporti. Pedagogik annotatsiya. Talabaga uslubiy ko'rsatmalar. Keysning tekshirilishi va baholanishi. Keysning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi. Keysni rasmiylashtirish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Ma'ruzada ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” Ma'ruza tushunchasi. Ma'ruzaning o'ziga xos xususiyatlari. Ma'ruzaning ta'lim jarayonidagi o'ri va ahamiyati. Ma'ruza turlari. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari. Ta'lim texnologiyasi modeli. Ta'lim texnologiyasi modelini ishlab chiqishda ma'ruza turlarini to'g'ri tanlash. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda ta'lim shakllari, usullari va vositalaridan eng maqbulini tanlash. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda texnologik xaritaning ishlab chiqish qoidasi. Ma'ruzada ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda monitoring va baholash usullarini tanlash haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasi

№	Mavzular nomi	Soat
1	Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.	2
2	Maqsadni belgilash. Uch darajali testlar asosida o'quv natijalariga erishish darajasini baholash	2
3	Ta'lim shakllari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
4	Ta'lim shakllari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
5	Ta'lim usullari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
6	Ta'lim usullari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
7	Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	2
8	Loyihaviy ta'lim texnologiyasiga kirish	2

9	Ta'limning keys texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari	2
10	Ma'ruzada ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	2
11	Seminarda ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	2
12	Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
13	O'quv loyihasini guruhlarda bajarish	2
14	O'quv loyihasini guruhlarda bajarish. O'quv loyihasi bo'yicha faoliyatni baholash va taqdimot	2
15	Ta'limning keys-texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish	2
16	Guruhlarda keys yechimini topish	2
17	Guruhlarda keys yechimini topish. Natijalarni taqdim qilish va baholash	2
Jami		34

“Seminarda ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari” Seminar tushunchasi. Seminarlarning o'ziga xos xususiyati. Seminarlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati. Seminarlarning turlari. Seminarda ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari. Ta'lim texnologiyasi modeli. Ta'lim texnologiyasi modelini ishlab chiqishda seminar turlarini to'g'ri tanlash. Seminarda ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda ta'lim shakllari, usullari va vositalaridan eng maqbulini tanlash. Seminarda ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda texnologik xaritaning ishlab chiqish qoidasi. Seminarda ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda monitoring va baholash usullarini tanlash haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasini

№	Mavzular nomi	Soat
1	Ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.	2
2	Maqsadni belgilash. Uch darajali testlar asosida o'quv natijalariga erishish darajasini baholash	2
3	Ta'lim shakllari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
4	Ta'lim shakllari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
5	Ta'lim usullari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
6	Ta'lim usullari ta'lim texnologiyasi tarkibi	2
7	Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	2
Jami		14

Amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular

“Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasi tarkibi” Ta'lim vositasi - ta'lim texnologiyasining tarkibi. Ta'lim vositalari haqida tushuncha. Ta'lim vositalarining ta'lim texnologiyasidagi o'rni va ahamiyati. Ta'lim vositalarining tasnifi. Chizmalı organayzerlar haqida tushuncha. Chizmalı organayzerlarning tasnifi. Chizmalı organayzerlarning ahamiyati va ta'lim texnologiyasidagi o'rni. Ma'lumotlarni ko'rgazmalı taqdim etish usullari va vositalari. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va umumlashtirish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o'rtasida aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalari. Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari. Muammoni aniqlash, tahlil qilish va yechimini topishni rejalashtirish usul va vositalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Diologik yondoshuv, muammoli ta'lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“O’quv loyihasini guruhlarda bajarish” O’quv loyihasi bo’yicha guruhlarda ishlash. Guruhlarda ishlash qoidasi. Gurux ishtirokchilarini loyihaviy faoliyat bilan tanishtirish. Guruxlar tomonidan o’quv loyihasi mavzusini tanlash. Gurux ishtirokchilarini loyihaviy faoliyat bo’yicha vazifalarini taqsimlash. Loyihaviy faoliyat bosqichlari bilan tanishtirish. Loyihaviy faoliyat natijasi bo’yicha xisobot tayyorlash to’g’risida yo’riqnoma berish. Loyihaviy faoliyat maxsulini taqdimotini tayyorlash bo’yicha yo’riqnoma berish.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o’z-o’zini nazorat.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“O’quv loyihasini guruhlarda bajarish. O’quv loyihasi bo’yicha faoliyatni baholash va taqdimot” O’quv loyihasi bo’yicha guruhlarda ishlash. O’quv loyihasi bo’yicha faoliyat natijasini taqdimotga tayyorlash. Taqdimot tayyorlash qoidalari bilan tanishtirish. Taqdimotchilarni baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtirish. Taqdimot va uni o’tkazish shakllari. Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari. Taqdimot qoidasi. O’quv loyihasi bo’yicha xisobot tayyorlash. Loyihaviy faoliyat mahsuli taqdimotini tayyorlash. O’quv loyihasi mahsuli taqdimotini qilish va baholash.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o’z-o’zini nazorat.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Ta’limning keys-texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish” Keyslar tipologiyasi. Keyslarning manbalari. Keys ishlab chiqishning prosessual tizimi. Keysni ishlab chiqish modeli. Maqsadning qo’yilishi. Muammoning ifodalanishi. keys dasturiy kartasining ishlab chiqilishi. Institusional tizimning tanlanishi. Axborot yig’ish usullari va vositalarining tanlanishi. Vaziyat modelining ishlab chiqilishi. Keys matnining yozilishi. Keys tuzilmasi. Keysning pedagogik pasporti.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o’z-o’zini nazorat.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Guruhlarda keys yechimini topish” Guruhlarda keys yechimini topish. Guruhlarda keys yechimini topish yo’l-yo’rig’i va qoidalari bilan tanishtirish. Guruhlarda faoliyatni tashkil etish. Guruxlar faoliyatini yo’naltirib turish. Guruhlarda keys yechimini topish bosqichlari bilan tanishtirish. Vaziyatni tahlil qilish varag’ini to’ldirish. Vaziyatni yechish tartibini ishlab chiqish. Taqdimotga tayyorlanish.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o’z-o’zini nazorat.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Guruhlarda keys yechimini topish. Natijalarni taqdim qilish va baholash” Guruhlarda keys yechimini topish va taqdimotga tayyorlash. Taqdimotchilarni baholash ko’rsatkichlari va mezonlari. Taqdimot va uni o’tkazish shakllari. Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari. Taqdimot qoidasi. Keys yechimini taqdimot qilish va baholash.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: Dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, klaster, gambur, Senektik, yechim daraxti, munozara, o’z-o’zini nazorat.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q1; Q2; Q3; Q4; Q.

“Jismoniy madaniyatni o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” fani bo’yicha amaliy mashg’ulotining kalendar tematik rejasi

№	Amaliy mashg’ulotlar mavzulari (barcha)	soat
1	Ma’ruzada ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	2
2	Seminarda ta’lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	2
3	Ta’lim vositalari – ta’lim texnologiyasi tarkibi	2
4	O’quv loyihasini guruhlarda bajarish	2
5	O’quv loyihasini guruhlarda bajarish. O’quv loyihasi bo’yicha faoliyatni baholash va taqdimot	2
6	Ta’limning keys-texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish	2
7	Guruhlarda keys yechimini topish	2
8	Guruhlarda keys yechimini topish. Natijalarni taqdim qilish va baholash	2
	Jami	16

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- yiqilish va yiqitish usullari chizmasini chizish va mashq variantlarini ishlab chiqish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- mashq davomida ishlatiladigan sport anjomlarini o'rganish;
- talabning o'quv – ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi (soatda)
VI semestr				
1	Maqsadni belgilash. Uch darajali testlar asosida o'quv natijalariga erishish darajasini baholash	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	1,2-haftalar	4
2	Ta'lim shakllari ta'lim texnologiyasi tarkibi	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	3,4-haftalar	4
3	Ta'lim usullari ta'lim texnologiyasi tarkibi	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	5-hafta	4
4	Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	6,7-haftalar	4
5	Ta'limning keys texnologiyasiga kirish: keyslarni ishlab chiqish qoidalari	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	8-hafta	4
6	Ma'ruzada ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	9-hafta	2
7	Seminarda ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	10-hafta	2
8	Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasi tarkibi	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	11,12-haftalar	4
9	O'quv loyihasi guruhlarida bajarish	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	13-hafta	2
10	O'quv loyihasi guruhlarida bajarish. O'quv loyihasi bo'yicha faoliyatni baholash va taqdimot	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	14-hafta	4
11	Ta'limning keys-texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	15-hafta	4
12	Guruhlarida keys yechimini topish	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	16 -hafta	4
13	Guruhlarida keys yechimini topish. Natijalarni taqdim qilish va baholash	Adabiyotlardan konspekt qlish, Individual topshiriqlarni bajarish	17-hafta	3
Jami				45

Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti.

«Jismoniy madaniyatni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar» o'quv fani dasturi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil va o'qitishda xududlarda o'quv jarayoni va o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" bo'yicha ko'chma seminar-trening materiallaridan va boshqa axborot manbalardan foydalanilgan holda o'rganiladi.

“Jismoniy madaniyatni o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

“Jismoniy madaniyatni o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” fani bo’yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo’yicha birinchi mashg’ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo’yicha talabalar bilim saviyasi va o’zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o’tkaziladi:

. joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo’yicha bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg’ulotlarda og’zaki so’rov, test o’tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o’tkazilishi mumkin;

.oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o’quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o’z ichiga olgan) bo’limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ko’pi bilan ikki marta o’tkaziladi va shakli (yozma, og’zaki, amaliy, test va hokazo) o’quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

.yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo’yicha nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni talabalar tomonidan o’zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o’tkaziladi.

ON o’tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o’rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o’tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug’i bilan ichki nazorat va monitoring bo’limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o’tkazish jarayoni muntazam ravishda o’rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o’tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo’yicha o’zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Jismoniy madaniyatni o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar» fani bo’yicha talabalar bilim semestr davomidagi o’zlashtirish ko’rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo’yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Bal	Baho	Talabalar bilim darajasi
86-100	A’lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo’lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo’lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo’lish
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo’lmslik. Bilmaslik.

. Fan bo’yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo’lgan o’zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

. Talabalar bilim o’quv fani bo’yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

. Talabaning fan bo’yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

V . O’

$$R = \frac{V}{100},$$

bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o’quv yuklamasi (soatlarda); O’ -fan bo’yicha o’zlashtirish darajasi (ballarda).

. Fan bo’yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to’plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

. Joriy JN va oraliq ON turlari bo’yicha 55bal va undan yuqori balni to’plagan talaba fanni o’zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo’yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo’l qo’yiladi.

. Talabaning semestr davomida fan bo’yicha to’plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to’plagan ballari yig’indisiga teng.

. ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o’tkaziladi. YaN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o’tkaziladi.

. JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to’plagan va uzrli sabablarga ko’ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun,navbatdagi shu nazorat turigacha, so’nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo’lgan muddat beriladi.

. Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo’yicha to’plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo’lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo’yicha to’plagan

ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JNdan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-jn	2-jn
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	10	0-5	0-5
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-5	0-5
3	Amaliy mashlqlarni bajarish darajasi	15	0-7	0-8
Jami JN ballari		35	17	18

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari maks
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Maruza darslardagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi	10
2	Talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10
3	O'tilgan mavzularni amalda bajarib ko'rsatish	15
Jami ON ballari		35

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilanadi va yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

№	Ko'rsatkichlar	YaN ballari maks
1	Fah bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	30
Jami YaN ballari		30

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. har bir variant 4 ta nazariy va amaliy savollardan iborat. Savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

1 va 2 savollar 0-8 ball oralig'ida baholanadi. 3 va 4 savollar 0-7 ball oralig'ida baholanadi Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Loyihalash, boshqarilish, natijalarga kafolatli erishish, ta'lim konstruksiyasi (DTS), texnologik xarita

Loyihalash, boshqarilish, ta'lim konstruksiyasi (DTS), texnologik xarita, ta'lim sifatini baholash mezonlari

43. O'quv maqsadlari toifalari va ketma-ketlik darajalarini tasniflab beruvchi pedagogik «Taksonomiya» so'zining ma'nosi nima?

yunoncha "taxis" – tartib bilan joylashtirish, "nomos" – qonun

Lotincha – o'quv maqsadlarining asosiy toifalari

Inglizcha – o'quv maqsadlarining asosiy toifalari

Ruscha – o'quv maqsadlarining turlanishi

44. O'qitish texnologiyalarini loyihalashning asosiy bosqichlari sonini ifodalaydigan to'g'ri javobni toping.

5

7

3

2

45. Tushuntirish – ko'rgazmali (an'anaviy) o'qitish usulida o'quv maqsadlarini qo'yish (ifodalash) usullari qaysi javobda to'g'ri bayon etilgan?

O'rganiladigan mazmun orqali; pedagog faoliyati orqali; o'quvchi shaxsining ruhiy, aqliy, axloqiy, estetik rivoji orqali; o'quvchining o'quv-bilish faoliyati orqali

O'quvchining o'quv-bilish faoliyati orqali; o'quvchi shaxsining ruhiy, aqliy, axloqiy, estetik rivoji orqali; pedagog faoliyati orqali; o'quv maqsadlar tizimi orqali

O'quv maqsadlari tizimi orqali; o'qituvchi pedagog va o'quvchining maqsadlarini alohida-alohida ifoda qilinishi orqali

Oydinlashtirilgan o'quv maqsadlari orqali; o'quv maqsadlar tizimi orqali; pedagog faoliyati orqali; o'rganiladigan ta'lim mazmuni orqali

46. Milliy dasturning ikkinchi bosqichida pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga doir ko'rsatmasi qaysi javobda keltirilgan?

Yangi pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi

Yangi pedagogik texnologiyalar joriy etiladi

Yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi

Pedagogik texnologiyalarga o'tish

47. Pedagogik jarayon, ta'lim tizimi va texnologiyalarning sifatini aniqlovchi davlat tadbiri qanday nomlanadi?

Attestasiya

Dars mashg'ulotlari

Imtihon, sinov

Mahorat darajasi

48. Test topshiriqlarining eng yuqori darajasini ko'rsating.

Ijodiy

Bilib olish

Reproduktiv

Produktiv

49. Bilim sohasidagi o'quv maqsadlarining toifalari qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan?

Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baho qo'yish

Bilish, intuisiya, qo'llash, tahlil, sintez, baho qo'yish

Bilish, tushuntirish, iste'dod, tahlil, sintez, baho qo'yish

Bilish, tushuntirish, iste'dod, tahlil, sintez, baho qo'yish

50. Eng keng tarqalgan test topshiriqlarining turini ko'rsating.

Yopiq

Ochiq

Muvofiqli

Ketma-ketlik

Javoblarning barchasi to'g'ri

Jismoniy madaniyatni o'qitishda innavatsion pedagogik texnologiyalar fanidan oraliq va yakuniy nazorat savollari

1. Pedagogik texnologiyaga ishlab chiqarish texnologiyasiga qo'yiladigan talablar.
2. An'anaviy ta'lim usullarini yutuq va kamchiliklarini aytib bering.
3. Pedagogik texnologiya fanining metodologik asoslarini aytib bering.
4. Blum taksonomiyasi:
5. O'qitish texnologiyalarini loyihalashning asosiy bosqichlari.
6. O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimini loyihalash.
7. Modulli o'qitishning asosiy prinsip(qoida)lari:
8. Natijalarni baholash tizimini loyihalash:
9. O'quv jarayonining loyihalashni tushuntirib bering:
10. B.Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarga mos keluvchi fe'llarga misollar keltiring:
11. An'anaviy ta'lim tizimida o'quv maqsadlarni qo'yishning kamchiliklarini tushuntirib bering:
12. O'quv maqsadlarini test topshiriqlariga o'tkazilishi:
13. Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning asosiy sabablarini aytib bering:
14. Yangi pedagogik texnologiya fan sifatida qanday fanlar bilan aloqada bo'ladi:
15. O'qitishni modul texnologiyasi tushunchasi:
16. Pedagogik texnologiyaning belgilari:
17. Ta'limni standartlash "standart".
18. Pedagogik texnologiya konsepsiyasini rivojlanishi:
19. O'quv maqsadlari shajarasi:
20. B.Blum taksonomiyasiga umumiy xarakteristika bering:
21. Testlarni guruhlanishi:
22. Pedagogik texnologiya fanining metodologik asoslarini aytib bering:
23. Testlarni klassifikasiyalash:
24. Pedagogik texnologiya va o'qitish metodikasining o'zaro munosabati:
25. Pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsiplari
26. Muammoli ta'lim texnologiyasi
27. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari
28. Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalari
29. Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar
30. Ta'limga tizimli yondashuv
31. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi
32. O'quvchilarning o'quv bilish faoliyati
33. «Klaster» metodi
34. «Aqliy hujum» metodi
35. «Qarorlar shajarasi» metodi
36. Ta'lim maqsadlarini aniqlashning pedagogik texnologiya usuli
37. An'anaviy ta'lim prinsiplari
38. Ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llashning mohiyati va prinsiplari
39. Masofaviy ta'limning shakllari va turlari
40. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi
41. Texnologiya tushunchasi va uning kelib chiqish tarixi
42. Pedagogik texnika
43. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining prinsiplari
44. Ta'lim tarbiyaga yondashuvlar

45. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti
46. Pedagogik texnologiya strukturasi
47. Darsning texnologik xaritasi
48. Baholashning reyting tizimi
49. Testga qo'yiladigan talablar
50. Og'zaki nazoratning yutuq va kamchiliklari
51. Yozma nazoratning yutuq va kamchiliklari

**JISMONIY MADANIYATNI
O'QITISHDA INNOVATSION
PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR
FANIDAN**
(Ma'ruzalar matni)

S a m a r q a n d - 2 0 1 7

TA'LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISHGA KIRISH

I. Reja

1. Ta'limga texnologik yondashuvning mohiyati va uning uzluksiz rivojlanishi.
2. Ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar.
3. Ta'lim texnologiyasining mohiyatli belgi va xususiyatlari.
4. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari.
5. An'anaviy ta'limning zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limdan farqi.

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Texnologik yondashuv, ta'limni texnologiyalashtirish, texnologiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi (TT), o'qitish texnologiyasi (O'T), pedagogik texnologiya (PT), pedagogik tizim (PT), o'qitish metodikasi (O'M), fan metodikasi (FM), konsepsiya (g'oya), shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv, suhbatli yondashuv, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim.

III. Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azixzodjayeve N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
2. Avliyovqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-T., 2001.
3. Bershadskiy M.Ye. V kakix znacheniyax ispolzuyetsya ponyatiye "texnologiya" v pedagogicheskoy literature?//Shkolnyye texnologii.-2002.- №1.
4. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika, 1989.
5. Bogolyubov V.I. Evolyusiya pedagogicheskix texnologiy //Shkolnyye texnologii - 2004. - № 4.
6. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax: Uchebnoye posobiye //Pod obsh. red. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
7. Yepisheva O.B. Osnovnyye parametry texnologii obucheniya. //Shkolnyye texnologii -2004.- № 4.
8. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004.
9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. Analiz zarubejnogo opyta.- M.: Znaniye, 1989 / Novoye v jizni, nauke, tekhnike. Ser. "Pedagogika i psixologiya". № 6.
10. Kushnir A.M. Metodicheskiy plyuralizm. //Shkolnyye texnologii.- 2004. № 4.
11. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi, 2000.
12. Selevko G.K. Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii: Uchebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
13. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
14. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.

IV. O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Ta'limga texnologik yondashishning mohiyati nimada?
2. Mualliflik ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishda siz qanday konseptual holatlardan kelib chiqasiz? Nima uchun?
3. "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi "ishlab chiqarish texnologiyasi" tushunchasidan hosil bo'lgan deb ta'kidlanishiga o'z talqiningizni bering.
4. "Pedagogik tizim", "ta'lim texnologiyasi", "fan uslubiyoti" tushunchalari o'rtasidagi munosabatni tushuntiring.
5. Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim va an'anaviy ta'lim farqini tavsiflab bering.
6. Ta'lim texnologiyalarining mohiyatli belgilariga batafsil aniqlik bering.

1.TA'LIMGA TEXNOLOGIK YONDASHUVNING MOHIYATI VA UNING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI

1.1.Ta'limga texnologik yondashuvning mohiyati

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarini topish muhimligini yozgan.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun majmualari texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda "pedagogik texnologiya o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash yo'li orqali ta'lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir".

Barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'liga o'tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

➤ uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta'lim jarayonini tartiblashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni ma'lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini bo'lish orqali mumkin qadar rasmiyatchilik nuqtai nazaridan rasmiylashtirilgan);

➤ yakuniy natijani haqqoniy tashxis qila olishga yo'naltirilganligi;

➤ ta'lim jarayoniga mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo'yilgan ta'limiy maqsad hamda ijobiy natijaga erishishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish texnologik jarayonining mukammal, aniq yo'lga qo'yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

➤ uning samaradorligi va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt)ni maqbullashtirish maqsadi bilan butun ta'lim jarayonini boshqaruvchanligi.

1.2. Ta'limga texnologik yondashuv va "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi ma'nosining uzluksiz o'zgarishi

Davr	Texnologik yondashuvning namoyon bo'lishi	"TT" tushunchasi ma'nosi
XVII asr	XVII asrda Yan Amos Komenskiy, shunday ta'lim mexanizmi, ya'ni uni "didaktik mashina" deb nomlab, uning ustida izlanish olib borgan.	"Didaktik mashina"
30-yillar 50-yillar- ning o'rtasi	30-yilning o'rtasida AQShning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1946y. shu yerning o'zida eshitish va ko'rish ta'limi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko'rish vositalarni ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qo'llab o'quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi. 1954y. - professor B.F. Skinner tomonidan ishlar taqsimoti (mavzu-qadam-xodimlar) bo'yicha o'rgatishning muntazamli texnologiyasini o'zida namoyon etuvchi, dasturlashgan ta'lim modeli (DT) asoslandi. Qaytar aloqani nazarda tutuvchi: har bir bajarilgan ishning to'g'riligini tezkor baholash va agar keyingi qadamga xatolik bo'lsa qaytarish deb ta'kidlagan	"Ta'limda texnologiyalar" - "... ma'lumotga ega bo'lish sohasida zamonamizning bo'lagi bo'lgan kashfiyotlar, sanoat mahsulotlari va jarayonlarini qo'llash" (M. Klark). pedagogik maqsadlarda axborotni taqdim etishda eshitish va ko'rish (audiovizual) vositalarini qo'llash
50-60- yillar o'rtasi	1958y. – N.Krauder bir qator berilgan javoblarni to'g'riligiga bog'liq ravishda qaytar aloqaga muvofiq javoblarni ko'p tanlash DTning kengaytirilgan chizmasini taklif etdi.	"O'rgatuvchi texnologiya" (D.Finn,1959) – pedagogik maqsadda maxsus yaratilgan eshitish vositalaridan foydalanish va ulardan foydalanish uslubi

70-80-yillar	Ta'lim texnologiyasini ilmiy asosi axborot, telealoqa nazariyasi, pedagogik kvalimetriyasi, tizimli tahlil, bilish jarayonini boshqarish nazariyasi, ta'lim jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish va boshqalar. Eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproyektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshlandi. <i>Ta'lim texnologiyasi</i> muammolari bo'yicha Xalqaro anjumanlarda ta'lim texnologiyasiga umumiy mohiyat taklif etildi. TT qo'llanish sohasi - (1) o'qitishning texnik vositalari, (2) ma'lumot olish muammolariga tizimli yondashishi. "Birinchi soha o'qitish vositalarida texnika yutuqlarini amalga oshirish bilan, ikkinchi soha esa, pedagogik nazariyani rivojlanishi bilan, ularni tashkillashtirishning umumiy nazariyasi birlashtirilishi lozim bo'lgan ilovaga bog'liq, ya'ni ta'lim muammolariga tizimli yondashishdir". P.D. Mitchel (1970 y.) TT bo'yicha 102 manbalarni tahlil etishi natijasida TT ma'nosi va pedagog-texnologlar vazifasi asosini shakllantiradi: "Kutilayotgan pedagogik natijalarni olish uchun inson, moddiy va moliyaviy manbalarni maqbul taqsimlash". "TT muammolarining nazariy tadqiqotlarini ishlab chiquvchi oqim, mohir texnologlarning yangi avlodi paydo bo'ldi" (M. Eraut). "Faqat sodda odamlargina, texnologiyani - faqat moslamalar va o'quv materiallar majmui deb hisoblaydilar". Bu bundan ko'prog'ini angalatadi. Bu tashkillashtirish yo'li, bu materiallar, insonlar, tashkilot, modellar va tizim turidagi "inson-mashina" to'g'risidagi tasavvur. Bu muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san'at va inson qadri o'zaro harakatiga muhim aloqaga ega. "Ta'lim vositasining sinonimi hisoblanmasdan, u fanlararo xilma-xil tasodiflar yig'indisi, ta'limning barcha jihatlarini bilan bog'liq bo'lgan, qisqa ta'limiy lavhadan to uning barcha harakatlaridagi milliy tizimlari hisoblanadi" – D. Finn, London, 1978.	"Ta'limiy texnologiya" TT - "ta'lim texnik vositalari yoki kompyuter sohasidagi" izlanishlar emas; bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li bilan, tuzilmaga keltirish hamda yo'l va materiallarni qo'llash yo'li bilan, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayonini eng maqbullashtirish tamoyillarini aniqlash va yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi izlanishdir". (Международный съезд по педагогической технологии образования и обучения – Лондон – Нью -Йорк, 1978 г.) "TTning dastlabki mohiyati pedagogik maqsadlarda muloqot qilishning eshitish va ko'rish vositalari, ko'rsatuv, kompyuter va boshqa turdagi "yumshoq" va "qattiq" vositalardan foydalanishni anglatgan. Yangi va kengroq ma'noda esa, ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, butun ta'lim berish jarayonini hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir". (YuNESKO, 1986 y.)
---------------------	--	---

	80-yillarda TT to'g'risida Rossiya olimlarining birinchi nashrlari paydo bo'ldi: "... xorijiy tajribalar hozir bizda yaxshi ma'lum bo'lmay turibdi. Lekin TT eshigimizni taqillatayapti" (Klarin, 1989)	“Pedagogik texnologiya” – atamasi pedagogika fanida vujudga keldi
90-yillar	TT muammolarini: V.P.Bespalko, V.Guzeyev, V. Klarin, V Monaxov, G. Selevko, S. Saidaxmedov, J. Yo'ldoshev, S. Usmonov, M. Ochilov va boshqalar ishlab chiqdilar	
XXI asrning 1-o'n yillari	“Pedagogikaning predmeti inson tabiati (bog'liq bo'lgan) va o'quv-tarbiyaviy harakatlarining samarasi o'rtaqidagi qonuniyatli munosabatlar hisoblanadi”. Bir qancha uslubiyotlardan “tanlash huquqi” o'rniga, ilmiy, tabiatga oid pedagogika berilgan yoki inson to'g'risidagi aniq bilimlari asosida mavjud sharoitlar uchun harakatlanishning maqbul yo'llarini ongli loyihalashni taklif etadi. Ma'lumki, muammoning bunday berilishida pedagogika “tajribani umumlashtirish” va “omma ijodkorligi” botqog'idan ilmiy izlanish maydoniga va yuqori asosli psixologiya – pedagogika muhandisligiga o'zgaradi. Ushbu matn parchasida TT - berilgan sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llaridir. Berilgan sharoitda maqbullik – texnologiyani hammabop tizimli belgisi. “Pedagogika uchun texnologiya ma'nosiga alohida, hych nimaga o'xshamaydiganlar, shuningdek unga texnik takrorlanish ma'nosini o'ylab topishga hych qanday sabab yo'q. Mohiyati bo'yicha mavjudlik va ishlab chiqarishlik, ijtimoiylik, insonshunoslik va texnologiya vazifalarini berilishidek qabul qilish kerak” (A.M. Kushnir, 2004 y.).	

2. TA'LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISH SOHASIDAGI ASOSIY TOIFA VA TUSHUNCHALAR

2.1. "Ishlab chiqarish texnologiyasi", "ta'limni texnologiyalashtirish", "ta'limiy texnologiya", "ta'lim berish texnologiyasi", "pedagogik texnologiya" atamalari.

"Texnologiya" atamasi pedagogika fani tomonidan ishlab chiqarish sohasidan o'zlashtirilganki, bunda "yuqori asosli psixologiya – pedagogik muhandisligi maydoniga o'zgaradi" (A.M. Kushnir, 2004 y.).

Texnologiya mohiyati va vazifasi bo'yicha insonshunosiylik, ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy bor narsalarni mavjud bo'lishidek qabul qilish kerak" (A.M. Kushnir, 2004 y.).

Ishlab chiqarish texnologiyasi: • xomashyo, material, yarim tayyor mahsulotlarni olish, ularni qayta tayyorlash yoki ularga ishlov berish <i>yo'l va usullarining yig'indisi</i> (texnologiyani jarayonli-bayonli tomoni); • юкорида кўрсатилган йўл ва усулларни ишлаб чиқувчи ва такомиллаштирувчи
"Texnologiya" yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib <i>"techne"</i> - mahorat, san'at, malaka va <i>"logos"</i> - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.
va amaliyotda ulardan foydalanishni aniqlash maqsadidagi qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy tomoni); • <i>jarayonning o'zi</i> – topilmani qazib olish harakatlari, ishlov berish, qayta ishlash, transportda tashish, omborga joylash, saqlash, shuningdek ishlab chiqarishning texnik nazorati (jarayonli harakat tomoni)

Pedagogik ilm va amaliyotda “pedagogik texnologiya”, “ta’limiy texnologiya” va “ta’lim berish texnologiyasi” kabi atamalar keng qo’llanilishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga ularni tushunishda alohida bo’lgan o’qish turlari mavjud. Avvalambor, aniq ifodani berish, ularni nima birlashtirishi, ularni nima ajratib turishini tushunish uchun “texnologiya” va uning kelib chiquvchilari: “texnologik jarayon”, “texnologik harakat”, “texnologik xarita”, “texnologik tartib” tushunchalarini aniqlash lozim.

Ta’limni texnologiyalashtirish bu o’qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo’llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo’nalishdir.

Ta’lim texnologiyasi:

- bu mavjud sharoit va o’rnatilgan vaqtda belgilangan ta’limiy maqsad va ko’zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta’minlovchi, *muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo’l va o’qitish vositalarining tartibli yig’indisi* (ta’lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);
- bu mavjud yuzaga kelgan ta’limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy ijaravon (ta’lim berish texnologiyasining amaliy-ijaravon jihati) tartibi.

“Ta’limiy texnologiya” – “ta’lim olish shakllarini maqbullashtirishni o’z vazifalari deb qo’yuvchi, ya’ni butun ta’lim berish jarayonini hamda texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda bilimlarni o’zlashtirish va ularning o’zaro harakatini yaratish, qo’llash va aniqlashning tizimli usuli” (YuNESKO).

Ta’lim texnologiyasi va uning konseptual asosnomasini (TT ilmiy tomoni) o’z ichiga oladi.

“Pedagogika tizimi”, “ta’limiy texnologiya”, “ta’lim berish texnologiyasi”, “fan uslubiyoti”ning farqli xususiyatlari

Pedagogika tizimi – shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yۆnaltirilgan va pedagogik ta’sir kўrsatishni kўzlagan, yzaro bog’liq vosita, usul, jarayonlarning yig’indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir (V.P. Bepalko b‘yicha).

Fanni o’qitish uslubiyoti – ta’lim tizimida ushbu o’quv fanining ahamiyati va o’rnini belgilaydi, uning vazifalarini va o’qitish mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo’yicha qo’llanilayotgan usul, shakl va o’qitish vositalari bayonini o’z ichiga oladi.


Fanni o'qitish uslubiyotidan farqli texnologiya:

- “qanday o'qitish kerak?” degan savolga javob bermay, balki ahamiyatli qo'shimcha bo'lgan *“natijaviy qanday o'qitish va o'quv jarayonini qanday qilib eng maqbul tashkil etish kerak?”* degan savolga javob beradi;
- *aniq sharoitlardan kelib chiqqan va ma'lum natijaga yo'nalgan, aniq pedagogik g'oyaga* loyihalanadi;
- o'z natijalarini *qayta ishlab chiqarishi* bilan farqlanadi;
- ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchiga yo'naltirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o'laroq, ta'lim olishda ularning o'z faoliyatlari hisobiga yutuq ta'minlanishiga yo'naltiriladi.


Uslubiyotchidan farqli o'laroq pedagog-texnolog:

- *tajriba o'tkazmaydi*: u aniq belgilangan natija bilan ish olib boradi;
- ajratilgan vaqt va mavjud sharoitlarda belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda gumon hosil qilmaydigan *asoslangan o'qitish modeliga tayanadi*;
- u harakat qiladi, *ta'limiy maqsadlar qo'yilganda, aniq pedagogik vazifalar belgilanganda va ko'zlanayotgan natijalar shakllantirilganda, ta'lim berish jarayonining borish sharoitlari aniqlangandan so'ng harakat qilishni boshlaydi.*

2.3. “Pedagogika tizimi”, “ta’lim texnologiyasi”, “o’qitish texnologiyasi”, “fan uslubiyoti”ning tizimli tashkil etuvchilari va elementlari



3. TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MOHIYATLI BELGI VA XUSUSIYATLARI



4. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI


Konsepsiya – umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Ta'lim texnologiyasi aniq pedagogik g'oya asosida ishlab chiqilib, uning negizini quyidagilar tashkil etadi: (1) muallifning aniqlangan metodologik, falsafiy yo'nalishi; (2) pedagogik, psixologik va ijtimoiy fanlar hamda pedagogik amaliyot-konseptual asoslari.



Ta'lim tizimi boshqa barcha xorijiy mamlakatlar singari falsafa, psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar asosida tuziladi. Pedagogikada bu yo'nalishning asosiy farq qiladigan jihati shundaki, ta'lim oluvchining o'zligi, uning shaxsi, mustaqil tanqidiy fikrlashini ongli rivojlanishiga aniq yo'naltirilgan, ularning xususiyat va

“Педагогик технология” – педагогик ҳодиса ва таълимни технологиялаштириш соҳасидаги жараёнда қўлланиладиган тушунча.

4.1. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari



4.2. Psixologiya va pedagogikada insonparvarlik yo'nalishidagi tamoyillar



4.3. Shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish shartlari
Shaxsiy yondashuv quyidagilarni anglatadi: - ta'lim berish jarayonini tuzish va amalga oshirishda shaxsga maqsad, subyekt ustunligi, natija va uning samaradorligini asosiy mezondek yo'naltirish; - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to'laqonli rivojlanishi; - ta'lim berish jarayonini insonparvarlashtirish va tabaqalashtirish: kasbiy tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha Davlat Ta'lim standartlari talablariga rioya qilgan holda ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanish yo'liga yo'naltirish; - ta'lim oluvchilarni psixologik-kasbiy va shaxsiy xususiyatlari va qobiliyat-larini hisobga olish; - ta'lim jarayoni ishtirok-chilari faoliyatining shaxsiy qiziqishlarini ta'minlash	Ta'lim oluvchi shaxsni har tomonlama erkin va ijodiy rivojlanishi uchun qulaylik, ziddiyatsiz va xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirish. Ta'lim beruvchining ta'lim oluvchi shaxsini qabul qilish: uning maqsadlari, hayajonlari, qiziqishlari, qarashlari, munosabatlarini tushunish, ularni xuddi qimmatlidek tan olish, unga, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonish. Ta'lim berish texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ushbu bilim sohasida o'qimishlilik darajasi va shaxs madaniyatining umumiy rivojlanish darajasi; - ta'lim oluvchining psixologik-fiziologik xususiyati; - har bir ta'lim oluvchi uchun ta'lim o'quv dasturlariga nisbatan shaxsiy xususiyat va o'qitish ta'siri ostida uning rivojlanish o'zgaruvchanligi, uning imkoniyatlariga mos ravishda moslashadi; - unga o'zining bilimga, o'zini aniqlay olishi, o'zini rivojlanishi va o'zini amalga oshirishiga yordam ko'rsatish. Ta'lim oluvchining rivojlanish va so'nish istiqbollari aniqlash, undan so'ng esa to'g'rilash uchun, uning shaxsiy rivojlanishini obyektiv nazorat va tashhis qilish. Ta'lim oluvchini nafaqat kasbiy sifatda, balki shaxs sifatida rivojlanishining umumpedagogika malakalarini rivojlanishi texnologiyalari ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu maqsadga, o'qitish va shaxsiy rivojlanish ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi uchun hayotiy va kasbiy mohiyatga ega bo'lganda, ushbu faoliyatga mustahkam qiziqish uyg'onganda, o'qitish va rivojlanish shaxsining hayotiy ehtiyojiga aylangandagina erishilgan deb hisoblash mumkin.

4.4. Ta'limga faoliyatli yondashuv va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Faoliyat-shaxsning rivojlani-shida asos, vosita va hal qiluvchi shart. Bu ta'lim oluvchi shaxsining jarayonli sifatlarini shakllanti-rish, uning harakatlarini faol-lashtirish va jadallashtirishni, o'quv jarayonida uning barcha imkoniyati, tirishqoqligi va g'ayratini kengaytirishni yuzaga keltiradi Faoliyat – o'zlashtirish obyekti Ta'limga shaxsiy va rivojlantiruvchi yondashuv bilan o'zaro aloqada bo'lganda amalga oshadi	Ta'lim beruvchi vazifasining o'zgarishi: nafaqat bilim berish, balki ta'lim oluvchilarni ularni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash, o'zgartirishga, hayotiy muhim vazifalarini hal etishda qo'llash, barcha hayotiy yo'li davomida bilimlarini tezkor yangilash va to'ldirishni o'rgatish. Buning uchun o'qituvchi barcha to'g'ri yechimlarning birinchi toifadagi namoyishchisi bo'lmasdan, balki o'quv jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi va nazoratchisi bo'lishi kerak; bilimlarni yetkazishning kam samarali og'zaki yo'llarini kamaytirishga keltirish. Ta'limning juftlik va guruhli tashkil qilish shakllarini amalga oshirish orqali jarayonda dialog va polilogda o'zgaruvchan tomonlarda ta'lim oluvchining yuqori faolligini ta'minlash; bashoratlash, rejalashtirish va o'quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha ta'lim oluvchilar mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash

4.5. Ta'limga suhbatli yondashuv va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Ta'lim jarayonini ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi suhbatdek tuzishni ifodalaydi hamda dasturiy faoliyatni hamkorlikda tuzishga yo'naltirilgan. Shaxsiy va faoliyati bilan birgalikda insonparvar pedagogikaning metodologiyasi mohiyatini tashkil etadi. Ularni umumiylikda qo'llash quyidagilarni yaratadi: ▪ ta'lim jarayoni ishtirokchilari subyektlarini psixologik birligi va o'zaro harakati tufayli "obyektlilik" ta'sir etish ijodiy o'zaro rivojlanish va o'zi rivojlanish jarayoniga o'z o'rnini beradi; ▪ ta'lim jarayoni ishtirokchilari erkinligini oshirish; ▪ shaxsning o'zini - o'zi faollashtirishi va o'zini - o'zi amalga oshirishi	Ta'lim beruvchi vazifasi: - ta'lim oluvchilar bilan teng huquqli tomonni o'rnatishi; - shunchaki o'qitish emas, ta'lim oluvchilarni rivojlanishga, uning o'zi harakatlanishiga sharoit yaratishga rag'batlantirish; - ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni mustaqil rejalashtirish qobiliyatini va uni yechish yo'llarini taklif etish, olingan natijalarni baholash yoki tekshirishga olinishiga tayyorgarlikni shakllantirish. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur: vaziyatli loyihalash; fikr-izlanishli suhbat; hayotiy muammolar matniga o'quv topshiriqlarini kiritish; ta'lim oluvchilarda mustaqillik, mustaqil o'qish, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'zini-o'zi amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish

4.6. Muammoli ta'lim va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol o'zaro harakatini tashkillashtirish yo'li bo'lib, bunda taqdim etilgan muammoli ta'lim mazmunini yechishda ular munozara yuritadilar, fikr yuritishni o'rganadilar, bilimlarni ijodiy o'zlashtiradilar. Alohida fikrlashni, bilimlarni mustahkamlash va amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni ta'minlaydi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy intilishlari, bilish qiziqishlarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ta'lim oluvchilarning dialektik fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishiga yordam beradi	Ta'lim oluvchilar oldiga tartibli va maqsadga yo'naltirilgan muammolarni ilgari surish, ularni ta'lim beruvchi rahbarligi ostida hal etib, yangi bilimlarni faol o'zlashtiradilar. Yo'nalish bo'yicha mustaqil ijodiy bilish faoliyatini ta'minlash: muammoli vaziyat → muammoni shakllantirish → uni hal etish yo'li → muammoni yechish → yechimni tekshirish

4.7. Ta'limni tashkillashtirishga tizimli yondashuv va uni amalga oshirish sharti

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Ta'lim texnologiyasi to'g'risidagi tushuncha pedagogik tizimning aniq bo'lgan butun (tuzilmaviy va mazmunli) tarkibini bildiradi.	Ta'limiy texnologiyani oldindan maqsadini belgilash va faoliyat natijalarini shakllantirishdan to pedagogik va ta'lim olish jarayon yo'lining tashxis va nazorat tizimini tuzishgacha loyihalashtirish. Bu nafaqat qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini ta'minlaydi, balki ko'rsatilgan jarayonlarni qurish va amalga oshirishda ixtiyoriylikdan kelib chiqadigan oqibatlarining oldini oladi, o'quv-tarbiya faoliyati davomida to'g'rilash ehtimolini bartaraf etadi

4.8. Hamkorlikda ta'lim berish va uni amalga oshirish shartlari

Asosiy nazariy mazmuni	Amalga oshirish sharti
Shaxsga yo'naltirilgan g'oyalarni namoyon qiladi: (1) har bir ta'lim oluvchilar tomonidan BMK, ularning shaxsiy xususiyatlarining rivojlanish darajasiga muvofiq egallashi; (2) muloqot ko'nikmalarini shakllantirish: birga faoliyat olib borishni o'rgatish, ta'lim olish va yaratish, har doim bir-biriga yordamga kelishga tayyor bo'lish, omad qovonchi yoki muvaffaqiyatsizlik alamini bo'lish. Topshiriqni nafaqat birgalikda bajarish, balki birgalikda o'rganish; musobaqa emas, balki hamkorlikda. Hamkorlikda ta'lim olishni tashkillashtirishning asosiy tamoyillari: -bir topshiriq bir guruhga; -rag'batlantirish hamma uchun; -o'z omadi va boshqa guruh omadlari uchun har bir shaxsning mas'uliyati; -hamkorlik faoliyati; -muvaffaqiyatga erishishda teng ikoniyatlar	Maqsadni belgilash jarayonida amalga oshiriladi. Mustaqil individual ish→ guruhlarda hamkorlikdagi ish-hamkorlikda ta'lim berishda bilish jarayonining dialektik o'zaro bog'liqligi shundan iborat. Ta'lim beruvchi vazifasining o'zgarishi: ta'lim oluvchilar bilan (ommaviy emas!) yangi o'zaro harakatga tayyorgarligi va qodirligi. (1) shaxsiy tenglik va hurmat, to'laqonli muloqot va o'zaro tushunishga o'tish, (2) ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zaro harakatining yangi shakllari: ta'lim beruvchi→ guruh→ta'lim oluvchilar, ta'lim oluvchilar→ ta'lim oluvchilar. -topshiriqni bajarish uchun guruhga bir topshiriq beriladi; -guruh hamma uchun yagona, hamkorlikdagi ish baholari jamlanishi, (umumiy natijaga erishish uchun guruhdagi barcha ta'lim oluvchilar harakati baholanadi), shuningdek har bir ishtirokchining shaxsiy qo'shgan hissasidan kelib chiqadigan bahoni oladi; -o'zaro harakatni tezlashtirish yo'llari, ya'ni guruhli bahs, hamkorlik, o'zaro yordam, hamkoriyl faoliyat; -har bir ta'lim oluvchi shaxsiy muvaffaqiyatlarini takomillashtirishga, madomiki boshqalar bilan birga baho olsa, ta'lim olishda shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak

5. AN'ANAVIY TA'LIMNING ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN TA'LIMDAN FARQI

An'anaviy ta'lim berish	Texnologik yondashuvga asoslangan ta'lim berish
1. Konseptual asoslar	
Ta'lim oluvchiga yondashish bo'yicha nazoratli-nasihatgo'y, egallab bo'lin-gan usul bo'yicha qayta tiklashli, ta'lim oluvchilarning tashabbuskor-ligi va mustaqilligini bostiruvchi, qat'iy tashkil etilgan bo'ysinish asosidagi (avtoritar) ta'lim. O'rta ta'lim oluvchi imkoniyatlari, ularni o'zlashtirish va bilimlarni qayta tiklashlariga yo'naltirilgan ta'lim. O'rganish – eslab qolish vazifasi, dars berish esa – asosiy faoliyat. Ta'lim paradigmasi: ta'lim beruvchi – kitob – ta'lim oluvchi	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ta'limga tizimli – harakatli yondashishga asoslanadi. Ta'lim oluvchi shaxsi – ta'lim jarayonining markaziy egasi. Munosabatlarning inson-parvarligi va erkinligi, o'qishga majburlashdan voz kechish. Tabaqalashtirish va individuallashtirish; umumiy ta'lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va ushbu fanni ular tomonidan o'zlashtirilishini hisobga olish. O'rganish–aqliy rivojlanish, mustaqil egallash jarayoni va asosiysi ta'lim oluvchilarning egallagan bilimlarini qo'llay olishlari; xususiyati bo'yicha muammoli, izlanuvchan, ijodiy. Ta'limning yangi paradigmasi, ya'ni: ta'lim oluvchi – kitob – ta'lim beruvchi
2. Ta'lim oluvchining tutgan o'rni va vazifasi	
Ta'lim beruvchi ta'siridagi bo'ysunuvchi obyekt. Bilim –birdan-bir maqsad. Xato – jazolanadi.	Mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta'lim jarayonining teng huquqli subyekti. Bilim – shaxsiy muammolarni hal etish vositasi. Xato qilishga haqqi bor – xatolarda o'rganadi
3. Ta'lim beruvchining tutgan o'rni va vazifasi	
Kitob bilan birga, yagona tashabbuskor shaxs – bilish subyektini nazorat qiluvchi, asosiy bilim manbai: boshqaruv organlarining rahbarlik buyruqlarining bajaruvchisi	Ta'lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatlari tashkilotchisi, ularning mas'ul maslahatchisi va yordamchisi. Ta'lim oluvchilarning nafaqat BMK nazoratini, balki ehtimoliy chetga chiqish o'z vaqtida to'g'rilash maqsadida ularning ta'lim berganlik tashhisini ta'minlaydi
4. Ta'lim berish va o'rganish usullari	
Tayyor bilimlarni og'zaki bayon qilish orqali bildirish. Oddiydan umumiylikka induktiv mantiqqa, mexanik eslab qolishga, qayta tiklash (o'zgarishsiz qaytarish) bayoniga asoslangan, namuna bo'yicha ta'lim berish. Natijada ta'lim oluvchilarni sustkashlikka, nutq faoliyati bo'shashishigacha olib keladi	Muammolarni izlash, bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilishning ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan faol ta'lim berish usullari
5. Ta'lim berish vositalari	
Ta'lim beruvchi so'zlari, ko'rgazmali va texnik vositalar. Murakkab (texnik) tilda yozilgan o'quv adabiyotlar, shu bois qabul qilishga murakkab; asosan uy	An'anaviy vositalar bilan bir qatorda – axborotli texnologiyalar. O'quv materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash uchun ishlatiladi

vazifasi uchun qo'llaniladi.	
6. Ta'lim berishni tashkillashtirish shakllari	
Ommaviy ta'lim berish: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan ajralgan munosabatda; mustaqillikning yetish-asligi. Ta'lim beruvchi faqat pedagogik faoliyatni rejalashtiradi. O'zlashtirilgan BMK nazorati. Miqdoriy baho - baholash-majbu-riylik vositasi hisoblanadi, ta'lim beruvchining ta'lim oluvchi ustidan xukmronlik quroli bo'lib xizmat qiladi: ta'lim oluvchi faoliyatining yakuniy tahlili va baholanishi	Maqsadni belgilash: yakuniy o'quv natijalarining mezonli cheklanuvchidek, tashhisiy belgilangan maqsadlarni kafolatli erishishga yo'naltirish; olingan natijalar sifatini o'lchashning mezon va ko'rsatmalari mavjud. Nafaqat bashorat qiladi, balki pedagogik faoliyatni loyihalaydi va rejalashtiradi, shu bilan birga o'quv faoliyatining mazmuni va tuzilishini ishlab chiqadi, ta'lim oluv-chilarni mustaqil o'quv-bilish faoliyatlarini bashorat qilayotganlarida, rejalashtirayot-ganlarida va tashkillashtirayotganlarida ularning tashabbuslarini oshiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan ta'lim jarayonini o'quv dialogidek tuzadi; ularda mustaqillikka intilishni rivojlantirish uchun, o'zi mustaqil ta'lim olishga tayyorgarlik, o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini amalga oshirish va o'z-o'zini taqdim eta olish qobiliyatlari uchun sharoit yaratadi. Nafaqat BMK nazorati, balki ta'lim berilganlik, rivojlanish, tarbiyalangan-likning monitoringi. Ta'lim beruvchi umumiy natijani baholaydi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlikdagi mehnatlarini tahlil qiladi: ko'zlanayotgan natijalarga nima uchun erishilmadi yoki qisman erishildi

I. Reja

1. Ta'lim jarayonida boshqaruvning o'rni va mohiyati.
2. Maqsadni belgilash.
3. Pedagogik texnologiyani loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari.
4. Talabanning o'quv yutuqlari nazorati.

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Boshqaruv, maqsadni belgilash, tashxislash, bashoratlash, loyihalash, rejalashtirish, tashkillashtirish, axborotli ta'minot, nazorat, baholash va o'zgartirish, texnologiya xaritasi, pedagogik monitoring.

III. Mavzuni va alohida savollarni o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axunova G.N., Golish L.V. Vvedeniye v proyektirovaniye i planirovaniye pedagogicheskix texnologiy v ekonomicheskoy obrazovanii: Kratkiy konspekt leksiy. -T.: Iktisod-moliya, 2006
2. Podlasny I.P. Pedagogika. Novyy kurs. Uchebnik.- M.: VLADOS, 1999.
3. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari.-T.: RTM, 2000.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.-T.: Fan, 2005.
5. Farberman B.L. Peredovyye pedagogicheskiye texnologii. -T.: Fan, 2000.

IV. O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Boshqaruv jarayonining mohiyati nimadan iborat?
2. Boshqaruv jarayonining mohiyatini yoritib beruvchi tushunchalarni ayting va ularning mazmunini ochib bering.
3. "Maqsadni belgilash", "maqsad", "natija" toifalariga kengaytirilgan bayonni bering.
4. Bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini qanday birday qilish savoliga ochiq yoritib beruvchi, javobni bering.
5. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirish bo'yicha o'qituvchining harakat tartibini ayting.
6. Aytingchi, sizning fikringizcha, o'quv mashg'ulotida ta'limiy texnologiya tuzilmasi va ta'lim berish texnologiyasi tuzilmasining farqli tomonlari nimadan iborat? Javobingizni asoslab bering.
7. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modelining kengaytirilgan tasvirini bering.
8. Tuzilmaviy ko'rinishda o'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasini taqdim eting va uning mazmunli ko'rsatkichlarini yoritib bering.
9. "O'quv yutuqlar nazorati" tushunchasiga ifoda bering. Uning shakl, turi va usullarini ayting.
10. Mavzulardan biriga bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning 3-darajali testlarini ishlab chiqing.

1.TA'LIM JARAYONIDA BOSHQARUVNING O'RNI VA MOHIYATI

Boshqaruv - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning maxsus shakli.

Boshqaruv jarayonining mohiyati maqsad-natijani mos kelish yo'nalishi bo'yicha harakatni yo'lga solishdan iborat bo'ladi.

O'qitish rejasini tuzishning har bosqichida o'qituvchining boshqaruv harakatlarini ko'rib chiqamiz.

Maqsadni belgilash - didaktik vazifalarni aniqlash, o'quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo'naltiradi.

Tashxis - ta'lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy-texnik imkoniyatlarni o'rganish. Bu maqsadni to'g'rilash zarurligi va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Bashorat qilish - o'rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o'quv faoliyati natijalarini oldindan ko'rish.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

Tashxis, bashorat qilish va loyihalash rejani ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Rejalashtirish - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik xarita ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Tashkillashtirish - ta'lim beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish, belgilangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilish.

Axborotli ta'minlash - o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazib berishning yo'l va vositalarini amalga oshirish. Bunda yig'ilgan axborot jarayonining borishini tezkorlikda o'zgartirishni, ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni, samarali vositalarni kiritishga imkon beradi.

Nazorat, baholash va o'zgartirish kiritish - rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni yaratish, pedagogik ta'sir etish obyekti o'zgarishini muvofiqlash.

Tugallangan jarayon tahlili - samarasizlikni, ularning paydo bo'lish sababini aniqlash, kelgusi takror ishlab chiqiladigan davrda unga yo'l qo'ymaslik choralarini aniqlash.

2. MAQSADNI BELGILASH

2.1. «Maqsadni belgilash» tushunchasi

Maqsadni belgilash – texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o'quv jarayonini tuzish hamda tashkillashtirish shundan boshlanadi.

Maqsad - ko'zlanayotgan natija modeli ko'rinishidagi muhim yo'nalishning mahsuli.
Bu esa, ta'lim subyektlarining faoliyat yakunida egallashlari ko'zlanayotgan narsadir.

Natija - (1) o'quv faoliyatida olingan natija ta'lim oluvchining rivojlanishida oldinga siljish bo'lib, bu uning u yoki bu faoliyatida o'z aksini topadi; (2) ta'lim jarayonining samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishilganlik darajasini xususiyatlaydi: ta'lim berish va ta'lim olish jarayoni natija maqsadga mos kelgandagina tugaydi.

2.2. Bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini birday qilish

Ta'lim oluvchilar tomonidan BMK o'zlashtirish darajasi	Ularga erishishning maqsad va natijalari shakllantirilishi. O'quv faoliyatini baholash mezonlari	Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakatlarining tavsifi
I. O'quvchilikka oid (tanish bo'yicha harakatlanishi)	Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish. Natijalar: (ma'lum, tanish narsani o'zgartirishsiz, umumiy taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi; (o'z so'zlarida) qaytarib beradi; - tashqi belgi va xususiyatlari bo'yicha biladi, taniydi; (so'zma-so'z) yozadi. <i>Baholash mezonlari:</i> axborotni xatosiz qayta tiklaydi.	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari bo'yicha faoliyatlarini tashkillashtiruvchi, axborot manbai bo'ladi. Ta'lim oluvchilar: axborot - reseptiv (qabul qilish) faoliyatini amalga oshiradi: eshitadi, kuzatadi, o'quv axborotini eslab qoladi va xatosiz qayta tiklaydi.
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish)	Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo'yicha bajarish malakalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash). Natijalar: - asosiy fikrni ajratadi; - baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi; - tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi; - mustaqil vazifalarni yechadi; - tanish sharoitlarda (namuna) tayyor ketma-ketlik bo'yicha harakatlarni bajaradi: o'lchashlarni o'tkazadi, sinaydi; tekshiradi, (tizimlarni, jihoz va boshqalarni) tashxis qiladi; yechadi, yig'adi; texnik topshiriq, chizmalarni o'qiydi; ishlab chiqarish ishlarini bajaradi, (jihozlarni) ishlatadi va boshqalar; - referat tayyorlaydi, tuzadi va grafik, sxema, jadvallarni o'qiydi. <i>Baholash mezonlari:</i> o'quv faoliyat yo'llarini biladi, bor bilimlarini o'zgartiradi va ularni tanish sharoitlarda qo'llaydilar: namuna, o'xshashlik bo'yicha bajaradi.	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi. Ta'lim oluvchilar: (namuna) ketma-ketlik bo'yicha reproduktiv (qayta tiklash) faoliyatini amalga oshiradi: bilimlarni ongli o'zlashtiradi, ularni mustahkam eslab qoladi va qo'llaydi: o'xshash holatda harakatlarni asos bilan namunali o'rganganliklari bo'yicha ta'lim beruvchi rahbarligi ostida bajaradilar.
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik) (harakatlarni	Ta'lim maqsadi: shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltiradi.

tanlash)	shakllantirish Natijalar: • shaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkillashtiradi; • kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi; • yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi; • bilim va malakalarni yangi holatlarda tanish va nostandart topshiriqlarni, muammoli holatlarni yechish uchun qo'llaydi; • (jihoz va boshqalarni) ishlatish bo'yicha tayyorlov qo'llanmasini o'qiydi va sharhlaydi, tushuntirish olib boradi. Chizma va jadvallarni; (kompyuter va boshqalarni) tizimdagi to'liqsiz tashkil etuvchilarni to'ldiradi va almashtiradi; • nosozliklarni mantiqan izlanishini o'tkazadi, kerak bo'lsa ta'mirlaydi, tiklaydi, almashtiradi, sozlaydi, ya'ni modifikasiyalaydi (turlanishi, ko'rinishi, shakllanishi, o'zgarishi). <i>Baholash mezon:</i> yangi holatda faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi, yangidan hosil bo'lgan bilimlari asosida harakatlarni bajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi	<i>Ta'lim oluvchilar:</i> ijodiy fikrlovchilik turdagi natijaviy ijodiy faoliyatni amalga oshiradi: mustaqil tuzilgan tartib bo'yicha mustaqil izlanish va bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni yangidan hosil qiladi va ularni yangi holatda qo'llaydi
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	<i>Ta'lim maqsadi:</i> muammoni mustaqil ajratish va yechish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish) Natijalar: • muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo'lini topadi; • tadqiqot obyekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, tajriba o'tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi <i>Baholash mezon:</i> tadqiqotchilik turdagi maqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondoshish yo'llariga ega, tahlil qilish malaka va ko'nikmalarni namoyish etadi	<i>Ta'lim beruvchi:</i> ta'lim oluvchilarga maslahat beradi <i>Ta'lim oluvchilar:</i> tadqiqotchilik turdagi mahsuldor faoliyatni amalga oshiradi

3. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI LOYIHALASHTIRISH VA REJALASHTIRISH YO'LLARI

3.1. O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasini tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari

O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqiladi:

- iqtisodiyot OO'Yu da ta'limni texnologiyalashtirish qoidasi;
- fan bo'yicha o'quv axborot maqsadi, tuzilmasi, mazmuni va hajmi;
- DTS tomonidan belgilangan, o'quv rejasida aniqlab berilgan vaqtda va berilgan sharoitda ta'lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning konseptual yondashuvlari.

1. Kirish.

Ta'lim texnologiyasining bu qismida iqtisodiyotning bozor tamoyillari keskinlashuvi sharoitida va jamiyatning demokratiyalashuvida ta'lim berishni texnologiyalashtirishning *dolzarbligi* asoslanadi, o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim berish texnologiyasiga qisqa tavsiflar beriladi.

2. Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari.

TTning bu qismida quyidagilar yoritiladi:

- *o'quv fanining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, auditoriya soatlarining umumiy hajmi* va o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq *ularning mavzular bo'yicha taqsimoti, ish turlari*;
- *o'quv fanining mazmuni*, o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq o'quv fanining mavzu mazmuni bayon etiladi;
- *o'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning konseptual holatlari* - ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning asosi bo'ladigan, ta'lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirishning konseptual asoslari.

3. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim texnologiyasi.

Har bir ta'limiy texnologiya ta'lim texnologiyasi modeli, ta'limning texnologiya xaritasi, texnologiya xaritasiga ilovalardan iborat bo'ladi.

3.2. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi bo'yicha o'qitish rejasining tuzilishi va mazmunining tarkibi

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning *ta'lim modeli* jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma'ruza, seminar va boshq.) va *ko'rinishi* (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lim modeli: *usullar, shakllar va o'qitish vositalari*;
- *ta'lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

Ilova. O'quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek

chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Mavzu (raqami)(nomi).....

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>Talabalar soni:...</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq..), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg'ulot
<i>Ma'ruza rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ...
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ...bilan tanishtirish; ...tasnifini berish; ...tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> ...ko'rsatadilar; ...tasniflaydilar; ...aytib beradilar; ...tartibli ravishda ochib beradilar
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: referat, test va boshq.

3.3. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o'quv jarayon)i bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Mavzuiy rejadani farqli o'laroq texnologik xaritada (1) o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati; (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari; (4) ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko'rsatiladi.

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari.

1 - bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzuning nomi, (ma'ruza) rejasi bilan, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (muammoli ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshq.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

- Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2 - bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy / ma'lumot beruvchilik.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi o'quv mashg'ulotining rejasig' tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi, ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

- Ta'lim oluvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3 - bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:

- Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylarga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

- Ta'lim oluvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor-so'rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi	Javob beradilar Yozadilar. Gruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (daq.)	3.1.Mavzu bo'yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi .	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar


4. TALABALARNING O'QUV YUTUQLARI NAZORATI

Nazorat – doimiy tekshirish yoki nazorat maqsadidagi tekshiruv

Nazorat:

- ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini (BMK) aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi;
- ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqasini, ular tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasi to'g'risidagi haqqoniy ma'lumotni olish, shuningdek kamchilik va oraliqlarni aniqlashni ta'minlaydi.

4.1. Nazoratni boshqaruv tizimidagi o' rni va vazifasi




4.2. Test nazorati

Bir qancha nazorat turlari bo'lgan test nazoratini ko'rib chiqamiz. Test topshiriqlarini tuzish ta'lim natijalarini ifodalash bilan o'zaro bog'liqlikda olib boriladi. Test topshiriqlar soni unga ajratilgan nazorat turi va vaqtga bog'liq bo'ladi.

<i>Nazorat turi:</i>	<i>O'tkazish vaqti (daqiqa):</i>	<i>Topshiriqlar soni:</i>
Joriy	10-15	10-15
Oraliq	30-40	25-30
Yakuniy	1- 1,5 soatgacha	50 va undan ko'p

Mazmun bo'yicha test topshiriqlari rejalashtirilayotgan o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga mos kelishi zarur. B.L. Farberman tomonidan tavsiya etilgan bir qator misollarda tushuntiramiz.

Test topshiriqlarini ishlab chiqish namunasi

Ko'zlanayotgan natija: BMK o'zlashtirish darajasi	Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari	Misol
I. O'quvchilikka oid (tanish bo'yicha harakatlanishi)	Eslab qolish, tanish va qayta aytib berish bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni tekshirish— <i>ta'lim oluvchi o'quv axborotini muddat, dalil, formula, qoida, qonunlar ko'rinishida eslashi va qayta tiklashi lozim</i>	Doiraning maydoni formulasini ko'rsating: A. $2\pi R^2$ B. $\frac{\pi R^2}{2}$ V. πR^2 G. $2\pi R$
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish)	Amaliyotda yuzaki sharo-itlarda bilimlar (qoida, qonunlar)ni amaliy qo'l-lash ko'nikmalarini tekshirish: <i>ta'lim oluvchi avval o'rgangan namuna bo'yicha vazifa/topshi-riqni bajarishi kerak.</i>	Doira maydonini 2 sm radiusli qilib ko'rsating: A. 25,12 B. 6,28 V. 12,56
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik) (harakatlarni tanlash)	Mustaqil ishlab chiqilgan ish tartibi: mantiqan tuzilgan, asoslangan o'zaro bog'liq bo'lgan to'g'ri xulosa chiqarish orqali bir xil bo'lmagan topshiriqlarni yechish uchun o'zlashtirilgan bilimlarni o'zgartira olish ko'nikmalarini tekshirish ta'lim oluvchilar berilgan topshiriq va uni yechish uchun ma'lum bo'lgan qoidalar asosida mustaqil ish tartibini tuzishi kerak	Tashqi doira maydonini ichki dora maydoniga nisbatini ko'rsating: $R = 4$; $r = 2$. A. 3:1 B. 4:1 V. 6:1 G. 8:1 
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

Birinchi topshiriqni yechish uchun doira maydoni formulasini ko'rsating, taklif etilgan 4 tadan to'g'ri javobni ko'rsatish. U bilimlarni I darajaga mos kelishini tekshirishga mo'ljallangan. Bu past daraja, lekin o'quv materialini o'zlashtirishda muhim daraja hisoblanadi. Negaki, ta'lim berish ko'pgina ma'lumotlarni: vaqt, omillar, qoida va boshqalarni eslab qolish muhimligi bilan bog'liq.

Biroq bu test bo'yicha yuqori natijani, ma'lumotni tushunmasdan yod olganlar ham ko'rsatishi mumkin. Shu bois, nazorat testlari tarkibida ko'nikmalarni tekshiruvchi topshiriqlar ham bo'lishi kerak. Bu test topshiriqlari II darajadagi o'zlashtirishni tekshirishga mo'ljallangan (2-misol).

Ushbu test topshirig'ini yechish 4 ishni bajarishdan iborat:

1. Doira maydoni formulasi $S = \pi R^2$ ni eslash.
2. Son qiymati $\pi = 3,14$ ni eslash.
3. Radius uzunligi kvadratga $2^2 = 4$ ni oshirish.
4. Doira maydoni $S = 12,56$ ni hisoblash.

Test tarkibiga III darajadagi o'zlashtirishni tekshirish uchun topshiriq kiritish tavsiya etiladi: ta'lim oluvchilar qobiliyati o'zlashtirilgan bilimlarni odatdagidan boshqacha bo'lgan vazifalarni mustaqil tuzilgan yo'l bo'yicha mustaqil qo'llash (3-misol).

Berilgan topshiriqni turli yo'llar bilan yechish mumkin, ya'ni quyidagi 6 harakatni bajarish orqali:

1. Ikki doira maydoni munosabatlari (radiuslar kvadrati) to'g'risidagi teoremani eslash.
2. Tashqi doira radiusi kvadratini hisoblash: $R^2 = 4^2 = 16$.
3. Ichki doira radiusi kvadratini hisoblash: $r^2 = 2^2 = 4$.
4. Katta doira maydoni munosabatidan kichik doira maydonini ayirish: $16 - 4 = 12$.
5. Tashqi maydonni ichki maydonga munosabatini tuzish: $12 : 4 = 3 : 1$.
6. Olgan munosabatni taklif etilgan javoblar bilan taqqoslash va to'g'ri javob (A)ni aniqlash.

Shuni ajratib ko'rsatish lozimki, ko'rib chiqilgan namunalardagi test topshiriqlari faqat o'zlashtirilgan bir o'quv bo'lagini, ya'ni πR^2 dan foydalanib doira maydonini hisoblab topishni nazorat qiladi. Biroq ta'lim oluvchilar topshiriqni yechish jarayonida bir qator izchillikdagi harakatlarni, ya'ni, eslash-namuna bo'yicha harakatlarni bajarish ma'lum bo'lgan qoidalardan berilgan topshiriq va uni yechish uchun harakat tartibini ishlab chiqishni bajarishlari kerak. Bu ta'lim oluvchilarning mashqi uchun (ba'zi hollarda baho qo'ymasdan, faqat o'quv namunalaridek), birgina o'quv materiali bo'yicha o'zlashtirish darajasini izchil oshirishni ta'minlovchi test topshiriqlaridan foydalanish imkonini beradi.

4.3. Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarini ishlab chiqish (V. Bepalko bo'yicha)

Test maqsadi	Testlar toifasi va turlari	Xususiyatlari	Javoblar	Test topshiriqlarini ifodalash namunalari
Talabalar avval o'rgangan materialni tanishini tekshirish (o'zlashtirish-ning I darajasi)	Tanib olishlikka oid topshiriq	Bir vaqtni o'zida (aytib berish uchun) <i>topshiriq va javobdan</i> iborat bo'ladi	“Ha” “Yo'q”	... hisoblanadimi?
	Ajratib olishlikka oid topshiriq	<i>Savol hamda tanlash uchun javob variantlaridan</i> iborat bo'ladi	1. 2. 3. 4.	...shulardan qaysi biri... to'g'riligini ko'rsating
	Tasniflashlikka oid topshiriq	Mos qismlarni taqqoslash topshiriqlaridan iborat bo'ladi	1-(g) 2-(b) 3-(a) 4-(v)	Mosliklarni ko'rsating (ularning tushunchasi va belgilanishi)
Tashqi aytib berishlarsiz esda qolganlar bo'yicha o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qayta aytib berish va shular asosida namunaviy topshiriqlar yechish ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirish-ning II darajasi)	Qo'shimchalar qo'yiladigan testlar	Xohlagan shaklda: og'zaki, belgili, chizmalarda taqdim etilgan fikrlarni to'ldirish talab etiladi	Yo'q	... (formulani) to'ldiring, (yetishmayotgan elementni)... ko'rsating
	Tuzilishlik(konstruktorlik)ka oid testlar	Esda qolganlarni aytib berishlarsiz qayta takror tik-lashni talab etadi	Yo'q	Bu “(tushuncha / ifodalash ko'rsatiladi) nima?”... Chizma chizing ... Uchun formulani yozing
	Namunaviy topshiriqlar	Ma'lum bo'lgan qoidalarini qayta tiklash va uni izlanayotgan natija uchun qo'llash talab etiladi	1. 2. 3. 4.	Namunaviy topshiriq
Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish (o'zlashtirish-ning III darajasi)	Nooddiy topshiriqlar	Namunaviy tartib ostidagi topshiriq-larni oxiriga yetka-zishda, qo'shimcha ma'lumotlarni qi-dirish uchun, dast-labki sharoitlarni o'zgartirish talab etadi	1. 2. 3. 4.	Nooddiy topshiriqlar

3-4-TA'LIM SHAKLLARI TA'LIM TEXNOLOGIYASI TARKIBI

I. Reja

1. Ta'limni tashkillashtirish shakllari: mohiyati va mazmuni.
2. Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkil etish texnologiyasi.
3. Hamkorlikda o'zaro o'qish.

II. Asosiy tushuncha va atamalar

Ta'limni tashkillashtirish shakllari, ta'lim shakllari, ommaviy, jamoaviy, guruhli va yakka tartibli.

III. Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Butz M., Faltus R., Soxen E. Rabota v gruppax: Sb. Varshava: Fond obrazovaniya dlya demokratii, 1994.
2. Guzeyev V.V. Obrazovatel'naya texnologiya: ot priyema do filosofii. - M.: Sentyabr, 1996.
3. Djenni Stil, Kert Meredis, Charlz Pimpl. Obucheniya soobshcha: Uchebnaya programma; Obucheniya soobshcha: chteniye i pismo dlya razvitiya kriticheskogo myshleniya. - T.: Fond Sorosa – 1999.
4. Podlasyy M.L. Pedagogika. Novyy kurs: Uchebnik: V 2 kn. k.1.: Obshchiye osnovy prosessa obucheniya. - M.: VLADOS, 1999.
5. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. - T.: RTM, 2000.

IV. O'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. "Ta'limni tashkillashtirish shakllari" tushunchasini kengroq ta'riflab bering.
2. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllarining farqli belgilarini ayting.
3. Guruhlarni shakllantirish asoslarini aytib bering.
4. Guruhlar qaysi belgilarga qarab shakllantirilishini tushuntirib bering.
5. Guruhlarda ishlarni tashkil etish qoidasini ayting.
6. Guruhlarda ishlar qanday baholanadi va yakun chiqariladi?
7. Guruhlarni maqbul joylashtirish chizmasini tasvirlang va asoslang.
8. TT "Ilon izi" va "Birga o'rganamiz" texnikasini o'rnini tushuntiring.

1. TA'LIMNI TASHKILLASHTIRISH SHAKLLARI: MOHIYATI VA MAZMUNI

Ta'lim shakllari (forma-lotincha-tashqi ko'rinish) - bu usul o'quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

Ta'lim shakli o'quv jarayonining shunday tashqi tomonlarini namoyon qiladi, ya'ni:

Uning mavjud bo'lish yo'li: tartib tartibot:

- *ta'lim oluvchilar soni*: ommaviy, kichik guruhlarda, yakka holda o'qitish;
- *o'qitish vaqti*: 45- sinf darsi, 90-birlashgan dars, "tanaffussiz dars";
- *o'qitish joyi*: auditoriya, laboratoriya mashg'ulotlari.

O'quv ishini tashkillashtirish shakli:

- ma'ruza, seminar, mustaqil ish va boshqalar.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish yo'llarimumiy (frontal), guruhli, yakka tartibli.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari:


- *Ommaviy ish* (frontal) - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.


- *Jamoaviy ish* (kollektiv) - ham umumiy va guruhliga taalluqli bo'lishi mumkin:

1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo'lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta'lim oluvchilar fikrlari tingladi va muhokama qilinadi); 4) ma'qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

- *Guruhli* - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.
- *Yakka tartibli* (individual) - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi.

2. GURUHLARDA HAMKORLIKDA ISHLASHNI TASHKILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI






9. Guruxni bo'lish yo'lini tanlash
10. Guruhda ta'lim oluvchilar bajaradigan vazifalarni aniqlaydi

Kichik guruhlarni birlashtirish yo'lini tanlaydi. *Ta'lim oluvchilarni kim guruhlarga bo'ladi?*, aniqlaydi. Agarda bajarish uchun turli topshiriqlar berilsa, ular guruhni o'z qiziqishlari bo'yicha tanlashlari mumkin.

Guruhlarni joylashtirishning eng maqbul chizmasi



II bosqich. Guruhli ishni bajarishga kirishish

F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1. Bilim orttirishlik vazifani (muammoli vaziyatni taklif qiladi) belgilaydi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni yechish yo'li va tartibini muhokama qiladi. 2. Ish yakuni bo'yicha qanday natijalar kutulishini tushuntiradi. 3. Guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har birining va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi. 4. Ta'lim oluvchilarni guruhlariga bo'ladi. 5. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni taraqqatadi. Topshiriqni bajarishda (kerak bo'lganda), qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. 6. Yozuv taxtasida guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqqatadi. Ta'lim oluvchilar bilan bu yo'riqnomani muhokama qiladi, hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.	Vazifani muhokama qiladilar O'quv materiallari va yo'riqnoma bilan tanishadilar

III bosqich. Guruhli ish

F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Biroq bunda u: 1) ishlayotgan guruhlarini nazorat qiladi, lekin ularga rahbarlik qilmaydi: ta'lim oluvchilar o'zlari uchun javobgarlar. Xato qilsalar ham, o'zlari ishlashlariga ruxsat beradi; 2) aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan, alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllanishiga e'tiborini qaratadi; 3) ta'lim oluvchilarga ishni bajarganliklarini ma'lum qilishlarini taklif qiladi va ochiq savollar berib ularga yordam beradi: - Hodisalarni tahlil qilish uchun - "Qanday?"; - Fikrlarni bildirish uchun "Nima uchun bu usul yaxshi yoki yomon?"; - Eshittirib o'ylashga, boshqalarni tinglashga, olingan axborotdan ma'lumotlarni tanlab olishlari uchun "Agarda,...? Qanday boshqa usullar mavjud?...boshqalar o'ylaydiki, ...Qo'llashimiz mumkin; 4) ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim, aniq va samimiy tanbeh qiladi	Guruhlarda ishini rejalashtiradi Guruhlar ichida topshiriqni tarqqatadi Alohida topshiriqni bajaradilar. Alohida bajarilgan ish natijalarini muhokama qiladilar. Guruhli ishning umumiy natijasini ifodalaydi va ularni taqdimotga tayyorlaydi

Guruhlar ishida tarqoqsizlikni oldini olish yo'li:

- Guruhlar ishini har doim boshqarib turish kerak: mavzudan chetga chiqish ta'lim oluvchilar uchun yo'ldan chiqish.
- Guruh sardorlariga e'tibor berish kerak.
- Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan, barcha materiallar tushunarli bo'lganligiga ishonch hosil qilish.

IV bosqich. Yakun yasash, tahlil va baholash

Faoliyat	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1. Bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezon va ko'rsatkichlarini eslatadi. 2. Natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; yoki buni avvaldan tayinlangan nazoratchi qilishi mumkin; yoki materialga taalluqli bo'lgan, topshiriqni bajarish vaqtida o'zlashtirilganlar bo'yicha, test o'tkazadi; yoki berilgan material bo'yicha boshqalar ma'lumot olganliklarini aniqlash uchun, har bir guruh o'zaro tekshirish uchun savol berishi yoki tayyorlashi mumkin. Bunda guruh a'zolari testga tayyorlanishlarida bir-birlariga hamkorlikda yordam berishlariga ruxsat beradi. 3. Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.	Guruh vakillari ish natijalari to'g'risida ma'lumot beradilar

3. HAMKORLIKDA O'ZARO O'QISH

3.1. Hamkorlikdagi o'qish: tamoyil va qoidalari

Hamkorlikdagi o'qish: tamoyil va qoidalari

- 1) guruhga bitta topshiriq;
- 2) bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;
- 3) har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyatligi;
- 4) hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- 5) muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirishga, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

Hamkorlikda o'qiyotganlar uchun asosiy qoidalar:

- topshiriqni birgalikda oddiy bajarish emas, balki birgalikda o'qish;
- musobaqalashish emas, balki hamkorlashish;
- birgalikda ishlashga o'rganish, o'qish va ijod;
- har doim bir-biriga yordam qilishga, muvaffaqiyat quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik achchig'ini birga tortishga tayyor bo'lish

“Ilon izi” (“Arra”) texnikasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchi
1	Lavhalarning murakkab-ligi va hajmi bo’yicha teng bo’lingan o’quv materiali stida ishlash uchun 4-6 kishidan iborat bo’lgan guruhlarini shakllantiradi.	
2	Oldinda turgan ish xususiyatini tushunturadi, ekspert varaqlarini tarqatadi - har bir guruh a’zosi umumiy ishning alohida qismini oladi va o’zining o’quv materiali sohasining eksperti bo’ladi.	Har bir guruh a’zosi ekspert varag’iga mos ravishda o’quv materialidan kerakli ma’lumotni topadi. Mutaxissislarning uchrashuvi-har xil guruhlarda faqat bir materialni o’rganayotganlar bilan uchrashadilar va ekspertlar sifatida axborotlar bilan almashiladilar, o’zlarining savollarini ishlaydilar, dastlabki o’zlarining guruh a’zolariga ushbu axborotni samaraliroq bayon etishni birgalikda rejalashtiradilar. Mutaxissislarning o’zlarining dastlabki guruhlariga qaytadilar, har biri o’zining topshiriq’ining qismi to’g’risida ma’ruza qiladi (xuddi arraning bir tishiday). Umumiy mavzu bo’yicha bir-birlariga savollar beradilar va bilimlarni baholaydilar yoki ta’lim beruvchi tomonidan barcha mavzular bo’yicha testlarni bajaradilar
3	Ish yakunidan so’ng guruhlardagi hohlagan ta’lim oluvchiga mavzu bo’yicha hohlagan savolga javob berishishi taklif etadi.	Savollarga javob beradilar

3.3. “Birgalikda o’rganamiz” (“Koop-koop”) usulining

“Birgalikda o’rganamiz” (“Koop-koop”) usulining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchi
1	O’qiganlik darajasi bo’yicha 3-5 kishidan iborat bo’lgan har xil guruhlarini shakllantiradi	
2	Har bir guruhga umumiy mavzuning qismini - bir topshiriq beradi, bu bo’yicha barcha o’quv guruhlarini ishlaydi. Tayanch (ekspert varaqlar)ni taqdim etadi	Guruh ichida umumiy topshiriq bo’linadi
3	Topshiriqni bajarish muvaffaqiyatini, muomala madaniyatini nazorat qiladi	Hamma alohida topshiriqni bajaradilar va barcha mavzular bo’yicha mustaqil ishlaydilar. Guruh a’zolarini kichik ma’ruzalarini tinglaydilar. Umumiy ma’ruzani ifodalaydilar
4	Guruhlardagi ish yakunini va natijalar taqdimotini e’lon qiladi	Guruh sardorlari yoki hamma guruh ma’ruza taqdimotini o’tkazadilar.
5	Guruh natijalarining tahlili va baholashini o’tkazadi, g’olib-guruhni aniqlaydi.	

3.4. “O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing” texnikasi

Ushbu texnika birgalikdagi faoliyat bo’lib, talabalarni matn ustida fikrlash, o’z g’oyalarini shakllantirish va ularni hamkorlar yordamida muayyan shaklda ifodalashga yo’naltiradi.

“O’ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing” texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishini tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. O’qituvchi savol va topshiriq beradi: oldin o’ylab chiqish, so’ng qisqa javoblar yozish tartibida.



2. Talabalar juftliklarga bo’linib, bir - biri bilan fikr almashadilar va ikkala javobni mujassam etgan umumiy javobni ishlab chiqishga harakat qiladi.



3. O’qituvchi bir necha juftliklarga o’ttiz sekund davomida auditoriyaga o’z ishinining qisqa yakunini ifodalab berishni taklif qiladi.

Quyidagi o’quv topshiriqlarini bajarish uchun 3 guruhga bo’lining:

1. Mustaqil xohlagan shaklda “hamkorlikdagi o’qish”, “o’zaro o’qish”, “birgalikda o’qish” tushunchalariga, sizning fikringiz bo’yicha, munosib tavsif va belgilarni yozing.

2. Guruhda birgalikda yozilganlarni muhokama qiling va ushbu tushunchalarni birga taqqoslab tahlil qilishga harakat qiling (grafik tashkil etuvchilaridan foydalanishingiz mumkin).

3. Siz uchun uchta o’qish texnikasidan qaysi biri ma’qul? O’z javobingizni asoslab bering.

Ushbu mavzu bo’yicha guruh bilimini aks etadigan ko’rgazmali taqdimotni tayyorlang.

Boshqa guruh a’zolarining bilimini tekshirish uchun savollarni tayyorlang.

5-6-TA'LIM USULLARI – TA'LIM TEXNOLOGIYASI TARKIBI

I. Reja

1. Usulning ta'lim berish texnologiyasidagi o'rni va vazifasi.
2. Ta'lim usullari va texnikalarining xususiyatlari.
3. Ta'lim usullarini tanlash.

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Ta'lim usullari, faol usul, interfaol usul, aqliy hujum usuli, Insert, Pinbord texnikasi, amaliy vaziyatlarni o'rgatuvchi usul (Case – stadi), loyihalar usuli, muammoli vaziyatlar usuli, ishbilarmon va rol (holat)li o'yinlar, munozara, suhbat, amaliy ish, mashq, tajriba usuli, kitob bilan ishlash, ko'rish usuli, ko'rsatish, namoyish, yo'riqnoma berish, hikoya, tushuntirish, ma'ruza

III. Mavzuni va alohida savollarni o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bekmurodov A.Sh., Golish L.V., Pulatov M.E., Xajiyeva K.N. Proyektная технология обучения в вузе: Metodicheskoye posobiye. - T.: TGEU, 2009.
2. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax: Uchebnoye posobiye. //Pod общ. red. akad. S.S.Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
3. Djenni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ. Obucheniye soobshcham: chteniye i pismo dlya razvitiya kriticheskogo myshleniya. Uchebnaya programma.- Bishkek: Fond Sorosa, 1999.
4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004.
5. Методы эффективного обучения взрослых //Учебно-metodicheskoye posobiye. - M.: IPK gossluzhax, 1998.
6. Новые pedagogicheskiye informatsionnyye texnologii v sisteme obrazovaniya: Uchebnoye posobiye. – M.: Akademiya, 2000.
7. Подласый M.L. Pedagogika. Novyy kurs. Uchebnik dlya studentov ped. vuzov: V 2 kn. k.1: Obshchiye osnovy prosessa obucheniya.- M.: VLADOS, 1999.
8. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
9. Farberman B.L., Musina R.G. i dr. Instrumenty razvitiya kriticheskogo myshleniya. - T.: Minvuz, 2002.
10. Xarlamov I.D. Pedagogika: Uchebnoye posobiye. 2-ye izd.- M.: Vysshaya shkola, 1990.
11. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-stadi – iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – T.: TDIU, 2009.
12. Xojiyeva K.N., Iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi ta'limning loyihali texnologiyasi.: Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – T.: TDIU, 2009.
13. Shadmonov Sh.Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoye masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii: Metodicheskoye posobiye. - T.: Sentr "Yangi asr avlodi", 2004.
14. Shadmonov Sh.Sh., Baubekova G.D., Xalikova G.M. Innovatsionnyye metody obucheniya v ekonomicheskom obrazovanii. - T.: FAN, 2002.

IV. O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. "Ta'lim berish usuli" tushunchasi ta'rifini bering.
2. Usulning ta'lim berish texnologiyasidagi o'rni va vazifasini aytib bering.
3. Ta'lim berish guruhlari o'rtasidagi farqlar to'g'risida gapirib bering.
4. Ta'lim berish usullarini aniqlovchi, omillarni aytib bering.
5. Ta'lim berish usullari talabalarga o'quv axborotini o'zlashtirish natijalariga ta'sir etadi degan tasdiqlashga o'z mulohazangizni bering.
6. Birinchi guruh usullari: hikoya, tushuntirish, ma'ruza qilish usuli, ko'rsatish, namoyish, yo'riqnoma usullarini ta'lim berish texnologiyasidagi o'rnini tushuntirib bering.
7. Ikkinchi guruh usullari: amaliy ish, mashq, tajriba usuli, kitob bilan ishlash usullarini ta'lim berish texnologiyasidagi o'rnini tushuntirib bering.
8. Uchinchi guruh usullari: muammoli vaziyatlar usuli, ishbilarmon va rolli (holatli) o'yinlar, munozara, suhbat usullarini ta'lim berish texnologiyasidagi o'rnini tushuntirib bering.
9. To'rtinchi guruh usullari: amaliy vaziyatlarni o'rgatuvchi usul (Case-stadi), loyihalar usulini
10. Faol ta'lim usullari: aqliy hujum usuli, insert, pinbord texnikalarini ta'lim berish texnologiyasidagi o'rnini tushuntirib bering.

1.USULNING TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASIDAGI O'RNI VA VAZIFASI

Metod (usul) - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "Metodos"- biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi

Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li

Ta'lim berish usuli, ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Usullar: ushbu ta'lim berish davridan chiqqanda ta'lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Usullarni tanlashning **asosiy qoidasi** → turlicha emas ta'lim berish maqsadiga mos kelishi

Usullarga qo'yiladigan **asosiy talab** → natija beradigan, faqat bittasini qo'llash.

Usulning asosiy natijaviyligining mezonlari → belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamkorligi.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashda usulni ongli tanlash, har birining imkoniyatlarini ko'ra bilish kerak

Usulni tanlab, o'qituvchi o'ziga savol berishni boshlaydi:

→ Usulni qo'llashdan so'ng natijalar qaysi sohalarda: Bilimlar sohasidami? Ko'nikmalardami? Malakalardami? Yoki ko'rsatmada ko'p bo'ladi.

→ Keyingi savol ta'lim berishning bajariladigan ishlar tartibiga taalluqli: "Talabalarning faolligi (tashabbus) qanday bo'lishi kerak?"

Ta'lim usullarining natijaviyligini qaysi mezonlar aniqlaydi?

Yaxshi yoki yomon usullar mavjud emas. Usulning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo'yicha xulosa chiqarish mumkin.

Qanday qilib keng tarqalgan usullar, jumladan aqliy hujum yoki guruhli munozara natijaviyligini o'quv mashg'ulotida yechiladigan topshiriqlar bilan bog'liqsiz, yoki aniq amaliy vaziyatni tahlil qilish va yechish (keys-stadi) usulining natijaviyligini, ushbu usul qo'llanilayotgan o'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalaridan uzilishda oldindan baholash mumkin.

Tajribalarning ko'rsatishicha, usulning **asosiy natijaviylik mezonlari** quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va iqtisodiyligi;
- uni qo'llashda soddalik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta'minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini ta'minlay olishi.

Faol ta'lim berish usuli - ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi usuldir. U yoki boshqa muammoni yechish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi suhbat asosida quriladi

Eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan ta'lim usullari quyidagilar hisoblanadi: *suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum* va boshqalar hisoblanadi

Interfaol (Interactive) - suhbatli.

Interfaol ta'lim berish - suhbatli ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi

Interfaollik ta'lim berish sohasida umuman yangi hodisa, bunga binoan ta'lim beruvchi:

- o'qituvchi, boshqa talabalar, ma'muriyat bilan faqat shaxsiy uchrashuv yo'li bilan emas, balki ta'lim jarayonining barcha subyektlari bilan faol o'zaro harakat qilishi mumkin;
- multimediali obyektlarni tahlil etish jarayonida ularning mazmuni, shakli, o'lchovi va rangini o'zgaruvchan boshqarish, ularni har tomondan ko'rib chiqish, shunga o'xshash boshqa harakatlarni bajarishni, eng ko'p ko'rgazmalilikka erishishda to'xtatish va xohlagan joyida yana ishga tushirishi mumkin.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi.

Pedagogikada ta'lim usullarini tasniflash (tartiblashtirish, bir guruhga birlashtirish)ga turli yondashishlar yuzaga keldi. Ular tizimlashtirishni turli asoslarida tuzilgan.

Ta'lim usullarini ta'limiy maqsadlarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi (o'rgatish) va ta'lim oluvchini (o'rganish) hamkoriy faoliyatini yo'li sifatida ko'rsatish ular xususiyati va o'quv faoliyati natijalari bo'yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini beradi:

1-guruh: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar;


2-guruh: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar;

3-guruh: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar;

4-guruh: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4-darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.

Ta'lim usullarini tasniflash

(ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkoriy faoliyatini tashkillashtirish yo'li va o'quv faoliyati natijalari asosida)



2. TA'LIM USULLARI VA TEXNIKALARINING XUSUSIYATLARI

2.1. Birinchi guruh ta'lim usullari

Birinchi guruh ta'lim usullari: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1- darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar.

MA'RUZA

Ma'ruza – davomli vaqt ichida o'qituvchi tomonidan katta hajmdagi o'quv materialining monologik bayon qilishi

Usulning asosiy vazifasi - ta'lim berish. *Belgilari:* qat'iy tuzilma, og'zaki-mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko'pligi.

Ma'ruzalar muhim lahzalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkillashtirish usulining samaradorlik shartlari quyidagilardan iborat:

- ✓ ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;
- ✓ ta'lim oluvchilarga ma'ruza mavzusining maqsadi, vazifalari va rejani eshittirish;
- ✓ har bir rejani yoritgandan so'ng qisqa umumlashtiruvchi xulosalarni shakllantirish;
- ✓ ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tganda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;
- ✓ yozib olish uchun zarur joylarni ajratib ko'rsatish (aytib turish);
- ✓ uning alohida holatlari batafsil ko'rib chiqiladigan seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan ma'ruzaning to'g'ri kelishi.

HIKOYA, TUSHUNTIRISH

Hikoya - hodisa, voqyea, haqiqat to'g'risida o'qituvchining monologik xabar berishi odatda u nazariy holatlarni aniqlashtirish, o'rganayotgan materialga qiziqishni uyg'otish uchun qo'llaniladi.

Hikoya qilishga asosiy talab-materialni hissiy yetkazib berish, san'atkorona, ta'sirchan bayon qilish.

Tushuntirish – bayon qilinayotgan materialning turli holatlarini xona doskasiga yozib tushuntirish, tahlil qilish, izoh berish va isbotlash orqali o'quv materialini bayon qilish

YO'RIQNOMA BERISH

Yo'riqnoma berish – kasbiy tayyorgarlikda keng foydalaniladigan mustaqil usul bo'lib, u talabalarga aniq harakatlarning vazifalarini, ularni amalga oshirish yo'llarini, amaliy topshiriqlarni yechish talablarini, ko'nikmalardan iborat harakatlar tartibini, ma'lum turga xos bo'lgan vaziyatlar tavsifi va ularni amaliyotda qo'llashni tushuntirish

3) yakuniy.

Kirish yo'riqnomasini berish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- talabalarga bajariladigan ish mazmuni, pedagogik o'zaro harakatning usul, vosita va shakllarini, texnik hujjatlar va yakuniy natijaga, mehnat mahsuliga bo'lgan talablarni yetkazish;
- ish bajarish qoidasi va izchilligi, alohida harakatlar, usullarni tushuntirish;

- qiyinchiliklar, xatoliklar, mehnat xavfsizligi to'g'risida ogohlantirish.
Joriy yo'riqnoma berish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:
- ishni bajarishga qiyinalayotgan talabalar ishini to'g'rilash;
- har bir talaba ishini kuzatish;
- ish turlarini bajarish va ish natijalari vaqtidagi mustaqillikni o'rnatish.
Yakuniy yo'riqnoma berish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:
- jamoaviy va guruhli mehnat natijalarini baholash;
- o'quv – bilish faoliyatning mustaqillik darajasi;
- mehnat harakatlarini bajarishdagi alohida kamchiliklarni aniqlash;
- kasbiy muhim sifatlar, ko'nikma, o'zini tutishning odob–ahloqiy me'yorlarini shakllanganligi;
- baholar bilan tanishtirish.

Yo'riqnoma berish shakliga ko'ra og'zaki, yozma, ko'rgazmali va aralash bo'lishi mumkin. Yozma yo'riqnoma berishda eng katta samaraga erishish mumkin bo'lib, bunda turli yo'riqnomali, ishlab chiqarishli, o'quv–ishlab chiqarishli va o'quv–uslubiy hujjatlardan (yo'riqnomali, texnologik, yo'riqnomaviy–texnologik va harakatlar xaritasi, ishlar tartibi, qoidasi) foydalaniladi.

Texnologik va yo'riqnomaviy–texnologik xaritalar o'quv–ishlab chiqarishli ishlarni bajarishda qo'llaniladi. Ular texnologik izchillikdan tashqari, texnologik talab, tartib, umumiy ishlarni bajarish vositalari, ishlarni bajarish qoidasining yo'riqnomali bayonidan iborat bo'ladi.

Harakatlar xaritasi va ishlar tartibidan yozma yo'riqnoma berish: xizmat ko'rsatish, nosozliklarni tashxislash, murakkab jihozlarni sozlashni o'rgatishda foydalaniladi. Ular ishlab chiqarish faoliyatida bajariladigan turli ishlab chiqarishli ko'rsatma va qoidalarni o'z ichiga oladi. Ish o'rnida har bir talabani yozma yo'riqnomadan foydalanishi eng samarali hisoblanadi.

NAMOYISH

Namoyish - ta'lim oluvchilarni obyekt va hodisalar, jarayonlarni ularning tabiiy ko'rinishda ko'rgazmali-hissiy tanishtirish

Bu usulning yetakchi vazifasi o'qitish hisoblanadi. Biz namoyishdan o'rganilayotgan hodisalar, o'zgaruvchanlikni ochib berish uchungina foydalanamiz, shu bilan birga bu usul ta'lim oluvchilarni narsalarni tashqi ko'rinishi bilan uning ichki tuzilishi yoki o'xshash narsalar qatorida tutgan o'rni bilan tanishish uchun xizmat qilishi mumkin.

Namoyishni ko'rib chiqilayotgan obyektни yozuv taxtasida sxemali rasm chizish yoki ko'rsatish, chizmalarni chizib olib borish mumkin, bu namoyish etilayotgan obyekt asosidagi tamoyillarni tushunishni yengillashtiradi.

Namoyish usulining ta'limiy vazifasi samaradorligi quyidagilarni bajara olishni ta'minlaydi:

- obyektlarni to'g'ri tanlash;
- ta'lim oluvchilar e'tiborini namoyish qilayotgan hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirish;
- ta'lim oluvchilar namoyish qilinayotgan obyektни yaxshi ko'rishlari va imkon bo'yicha na faqat ko'z, balki barcha sezish a'zolari bilan qabul qilish;
- ta'lim oluvchilar e'tiborini imkoni boricha o'rganilayotgan obyektning muhim tomonlariga jalb etish;
- ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan obyekt sifatlarini mustaqil baholash.

KO'RSATISH

Ko'rsatish narsa, jarayon va hodisalarni ularni tasviriyl ko'rinishda ko'rsatish va qabul qilishni ko'zlaydi

Bu usulning asosiy vazifasi - o'rgatish. Ko'rsatishning vositalariga sxemalar, jadvallar, rasmlar, sur'atlar, albomlar, xaritalar, yassi modellar xizmat qiladi.

VIDEOUSUL

Ko'rish usuli axborotni ko'proq ko'rgazmali kodoskop, proyektor, kinoapparat, o'quv televideniylalar, shuningdek axborotni displey bilan aks ettiruvchi kompyuterlar bo'yicha qabul qilishga asoslanadi

2.2. Ikkinchi guruh ta'lim usullari

Ikkinchi guruh amaliyl ta'lim usullari: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliylati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar

KITOB BILAN ISHLASH

Kitob bilan ishlash usuli: ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish va qiziqtirish vazifalarini bajaradi

Ta'lim oluvchilar kitob bilan ishlashlari mumkin:

- o'quv mashg'ulotida sizning rahbarligingiz ostida;
- uyda mustaqil.

Uyda kitob bilan ishlash vazifasini o'quvchilar oldiga qo'yishdan avval kitob bilan mustaqil ishlash usullariga ega ekanliklariga ishonch hosil qiling:

- uning tuzilishi bilan tanishish;
- ko'z yugurtirib chiqish;
- alohida boblarni o'qish;
- savollarga javob qidirish;
- referat yozish;
- tayanch konspektlar tuzish;
- mantiqiy tuzilmaviyl chizmalarni tuzish;
- misol va topshiriqlarni yechish, mashqlarni bajarish;
- nazorat testlarini bajarish;
- materialni xotirada saqlash.

Agarda ish o'quv mashg'ulotida olib borilsa, unda kitob bo'yicha o'rganadigan materialni biz alohida qismlarga bo'lamiz va ularni nazorat qilamiz.

LABORATORIYAUSULI

Laboratoriya usuli - bu shunday usulki, bunda ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi rahbarligi ostida va oldindan tayyorlangan reja bo'yicha tajribalar o'tkazadilar yoki amaliyl topshiriqlarni bajaradilar, shu jarayonda yangi bilimlarni qabul qiladilar va anglab yetadilar

Usulning asosiy vazifalari - o'rgatish va rivojlantirish. Bu usul ta'lim oluvchilarga quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- jihoz bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini egallash;
- ma'lum bo'lganlarni tekshirish va mustaqil tadqiqot yo'llarini tanlash;

- amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash; natijalarni qayta ishlash va avvalgilari bilan solishtirish.

Laboratoriya usuli murakkabdir. U maxsus, qimmatli jihozlarning bo'lishi, nafaqat sizni, balki ta'lim oluvchilarning ham puxta tayyorgarligini talab etadi. Undan foydalanish kuch va vaqtni sarflash bilan bog'liq. Shuning uchun, tajriba usulini rejalashtirayotganda, mustaqil tadqiqotning ta'lim samaradorligini oshirishga ishonch hosil qilish zarur, chunki bunga boshqa soddaroq, tejamliroq usullar bilan erishish mumkin.

MASHQ

O'rganilayotgan materialni amaliyotda qo'llash maqsadi bilan muntazam tashkillashtirilgan ko'p takrorlanuvchan harakat

Usulning *asosiy vazifasi* - ta'limiy va rivojlantiruvchi.

Mashqning quyidagi turlari mavjud:

- maxsus;
- sharhlashga oid;
- yozma;
- og'zaki;
- ishlab chiqarish.

2.3. Uchinchi guruh ta'lim usullari

Uchinchi guruh ta'lim usullari: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3-darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.

SUHBAT

Suhbat – dialogli (yunoncha: dialogos - ikki yoki bir necha insonlar orasidagi so'zlashuv), ta'lim berish va o'rganishning savol-javobli yo'li

Usulning yetakchi vazifasi - qiziqtirish: maqsadga yo'naltirilgan va mohirona qo'yilgan savollar yordamida ta'lim oluvchilarda berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini eslash va bayon qilishga harakat qilinadi, o'qituvchi rahbarligida boshqa ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilinadi. Ta'lim oluvchilar o'qituvchi bilan birga qadamma-qadam mustaqil fikrlash, yakunlash, xulosalash va umumlashtirish yo'li bilan yangi bilimlarni anglaydilar va o'zlashtiradilar.

Suhbatning afzalligi yana shundaki, u ta'lim oluvchilar fikrlashini faollashtiradi va bilim kuchini rivojlanishiga yordam beradi.

Suhbatlar vazifasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- kirish yoki tashkillashtiruvchi (didaktik vazifasi: ta'lim oluvchilarni mashg'ulotdagi ishga tayyorlash);
- yangi bilimlarni yetkazish (didaktik vazifasi: ta'lim oluvchilarni yangi material bilan tanishtirish);
- sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi: ta'lim oluvchilar bilimlarini tizimlashtirish, "mustahkamlash", eslab qolishi va fikrlashi).

Suhbatlar tashkiliy shakli bo'yicha o'quv va "davra suhbatiga" bo'linadi.

"Davra suhbat" o'quv suhbatidan erkin holatda ishtirokchilar joylashish tartibi va asosiysi, ular fikrini navbat bilan bildirishi bilan farqlanadi.

Eng muhimi savollarni to'g'ri shakllantirish va berish. Ular o'zaro mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lishi kerak, o'rganilayotgan savol mohiyatini ochib berishi, tizimda

bilimlarni o'zlashtirishga yordam berishi kerak. Savollar mazmuni va shakliga ko'ra ta'lim oluvchilarning rivojlanish darajasiga mos kelishi lozim.

Esda tuting: oson savollar faol bilish faoliyatini rag'batlantirmaydi, jiddiy munosabat esa bilishga rag'batlantiradi.

Suhbatning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	Suhbatning mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi, asosiy va yordamchi savollarni shakllantiradi, uni tashkillashtirish va olib borishni o'ylab chiqadi: savollarni berish tartibi, qanday bog'liq holatlar bo'yicha umumlashtirish va xulosalar qilish lozimligi va boshq.	
2-bosqich. Suhbatga kirish	Qisqa shaklda o'quv suhbatining mavzusi, uning vazifalarini eshittiradi, ushbu mavzu bo'yicha ega bo'lgan bilim va malakalarni eslatadi. Suhbat davomida ta'lim oluvchilarning alohida mulohazalarini umumlash-tiradi. Suhbatda hamma ta'lim oluvchilar faol ishtirok etishlariga harakat qiladi.	
3-bosqich. Suhbat	To'g'ri javoblarni ma'qullaydi, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmaganlarni sharhlaydi, aniqlaydi. Noto'g'ri javob bergan ta'lim oluvchining o'ziga xatosini topishni taklif qiladi. Agar u buni qila olmasa, boshqa ta'lim oluvchilarni yordamga chaqiradi	Savollarni diqqat bilan tinglaydilar, javob beradilar, o'zgalar javoblarini tahlil qiladilar, o'zlarining shaxsiy mulohazarini aytadilar
4-bosqich. Xulosa	Usullardan birini tanlab, suhbat natijalarini umumlashtiradi: o'zi yakun yasaydi; yo'naltiruvchi savollar yordamida suhbat natijalarini "yig'adi"	
5-bosqich. Yakunlash	Yakun yasaydi: ta'lim oluvchilarning faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi	O'z-o'zlarini baholaydilar

BAHS (munozara)

Bahs (munozara) - aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi

Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ✓ yangi bilimlarni shakllantirishda;
- ✓ ta'lim oluvchilar u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, ularning mohiyatiga kirishni ta'minlashda;
- ✓ ta'lim oluvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o'rgatishda;
- ✓ o'zaro fikr almashinuv ko'nikmalarni shakllantirishda;
- ✓ ta'lim oluvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish.

Munozara erkin bo'ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo'lishi mumkin. U

faqat o'zlashtirish lozim bo'lgan mavzu va savollarga taalluqli bo'lishi kerak.

Ma'ruzada boshqariladigan munozaraning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	<i>F a o l i y a t</i>	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	Munozara mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi, natijalarni shakllantiradi; "Munozara ishtirokchisiga eslatma" plakat/slaydni rasmiylashtiradi; munozarani kerakli maromda ushlab turadigan savollar va oraliq xulosalarni tayyorlaydi; uni o'tkazish tartibi va tashkillashtirishni loyihalaydi: munozarani qanday va nimadan boshlash; unda barcha ta'lim oluvchilar ishtirokini qanday ta'minlash; munozarani qanday yakunlash va oxirgi xulosalarni aniq shakllantirish	
2-bosqich. Kirish	Mavzuni e'lon qiladi, uning tuzilishini bayon qiladi, o'zining mulohazalarini bildiradi va ta'lim oluvchilarga o'zlarining fikrlarini bayon qilishni taklif etadi. Munozara boshlanishini qiziqtirish uchun, tayyorlab qo'yilgan bir necha savollarni beradi	
3-bosqich. Asosiy qism	Munozarani qiziqtiradi, ishtirok-chilarni qoidani bajarishlarini ta'minlaydi	Takliflar kiritadilar, muhokama qiladilar
4-bosqich. Yakuniy-tahliliy	Munozara so'nggida qisqacha va bahosiz bog'liqli savollarni ajratadi va tuzilmaga soladi, xulosalaydi	Tinglaydilar, baholar bilan tanishadilar

Seminar - munozaraning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	<i>F a o l i y a t</i>	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik.	Seminar mavzusi, uning maqsadi, vazifa va natijalarini aniqlaydi; ta'lim oluvchilar munozarada erishishi mumkin bo'lgan, natijalarni shakllantiradi; munozarada muhokama qilish muhim bo'lgan muammoni ajratadilar, ma'ruzachi va ishtirokchi uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini shakllantiradi.1) seminar olib boruvchisi, 2) e'tirozchi va taqrizchilarni, 3)mantiqchi, 4)ruhshunos, 5) ekspertlarni belgilaydi va ularga tayyorgarlikda yordam beradi. Munozara o'tkazish tartibi va tashkillashtirishni dasturlashtiradi	Seminar boshlovchisi ta'lim oluvchilardan biriga seminar mavzusi bo'yicha ma'ruza qilishni topshiradi
2-bosqich. Kirish	Seminar mavzusini e'lon qiladi, seminar olib boruvchini tanishtiradi	Olib boruvchi ma'ruzachi, e'tirozchi, taqrizchi, mantiqchi,

		ruhshunos va ekspertlarni tanishtiradi
3-bosqich. Asosiy qism	Savollar beradi, alohida bildirishlar qiladi, ma'ruzaning asosiy holatini aniqlaydi, fikrlashdagi qarama-qarshiliklarni cheklaydi. Gapirilayotgan fikrlarda erkinlik va qiziquvchanlikni namoyon qiladi, muammoning ishonchli bayonini ishlatadi	Ma'ruzadan so'ng olib boruvchi e'tirozchi va taqrizchilarga so'z beradi. Ishtirokchilarni "Munozara ishtirokchilari eslatmasi" bilan tanishtiradi va munozara boshlanishini e'lon qiladi
4-bosqich. Yakuniy-tahliliy	Munozara yuzasidan qisqa va bahosiz bog'liqli savollarni ajratadi va tuzilmaga keltiradi. Yakuniy xulosa-larni shakllantiradi. Ishtirokchilarga baho beradi	Olib boruvchi e'tirozchi, taqrizchi, mantiqchi, ruhshunosga so'z beradi

Munozara ishtirokchisi uchun eslatma:

- Munozara munosabatlarni aniqlash emas, muammoning yechish usuli bo'ladi.
- Boshqalarga ham gapirish imkonini berish uchun juda uzoq gapirmang.
- Sening aqlli fikrlaring maqsadga erishish uchun, so'zlarni o'lchab ko'r, ularni o'ylab gapir, his-hayajonlarni nazorat qil.
- E'tirozchi yo'lini tushunishga harakat qil, unga hurmat bilan yondash.
- Faqat munozara bo'yicha gapir, o'zingni o'qimishliliging va umumiy bilimdonliging bilan g'ururlanma.
- E'tirozchi aytgan fikrlarni buzmasdan va ajablanmasdan rad et.

Kimningdir ko'nglini olish yoki o'zining chiqishi bilan o'tkazib qo'ymoq vasvasasi bilan kurash.

Olib boruvchi - ta'lim beruvchining barcha majburiyatlarini oladi, muhokama borishiga rahbarlik qiladi, isbotlarni sharhlashi yoki tushuncha va atamlarni aniq ishlatishni, muomalani to'g'rilashni qaytaradi.

E'tirozchi/ Taqrizchi tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan olqishlash muolajasini keltirib chiqaradi.

Mantiqchi - ma'ruzachi yoki e'tirozchi fikrlashdagi qarama-qarshilik va mantiqiy xatolarni ajratadi, tushunchalardagi ma'nolarni aniqlaydi, isbot yoki qaytarish yo'lini, farazni harakatlanish ravonligini tahlil qiladi.

Ruhshunos - natijaviy muomalani tashkillashtirishga va o'zaro harakatga javob beradi, hamkorlikdagi harakatlarning kelishganligiga harakat qiladi, munozarani ziddiyatlarga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ekspert - barcha munozaraning natijaviyligini, ilgari surgan faraz va takliflarning to'g'riligini, qilingan xulosalarni baholaydi, munozaraga hissa qo'shgan aniq ishtirokchilar to'g'risida fikrlarni gapiradi

AQLIY H U J U M USULI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to'zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.

qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'l qo'ymay uni hal etishning ko'proq shaxsiy g'oyalarini yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq oqilona/samarali/maqbul va boshqa g'oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta'lim oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va yechishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta'sir ostida fikrlashdan ozod bo'lish va ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yo'l fikrlarini yengib o'tishni tarbiyalaydi.

An'anaviy ta'limda vazifani yechish vaqtida ko'pgina ta'lim oluvchilar o'z g'oyalarini aytishga botina olmaydilar. O'z takliflarining xatoligi va ta'lim beruvchining salbiy munosabatidan, boshqa ishtirokchilarning yo'q qilib yuboruvchi tanqidi va kulgisidan asosli qo'rqadilar.

Aqliy hujum qoidasi:

Hyech qanday birga baholash va tanqidga yo'l qo'yilmaydi!

Taklif etilayotgan g'oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g'aroyib bo'lsa ham hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma, hamma aytilgan g'oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O'rtaga chiquvchini bo'lma!

Turtki berishdan o'zingni ushla!


Maqsad miqdor hisoblanadi!

Qancha ko'p g'oyalar aytilsa, undan ham yaxshi: yangi va qimmatli g'oyalarni paydo bo'lishi uchun ko'p imkoniyatdir.

Agarda g'oyalar qaytarilsa, xafa bo'lma va hijolat chekma.

Tasavvuringni "jo'sh urishiga" ruxsat ber!

Baholash tizimi va kichik guruhlarda eng yaxshi g'oyalarni tanlash



Aqliy hujum usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	O'quv mashg'ulotida "aqliy hujum" o'rnini aniqlaydi, uning maqsadini shakllantiradi, muammoni va uni yechish bo'yicha taklif etilayotgan g'oyalarni baholash mezonlarini aniqlaydi	
2-bosqich. Kirish	Mavzuni e'lon qiladi, muammo bilan tanishtiradi, uni yechishning izlash yo'lini va baholash mezonini asoslaydi. Jamoaviy ishlash sharoiti va axloq qoidasi bilan tanishtiradi (eslatadi). Ishtirokchilarni 3-4 guruhga bo'ladi (AH jamoaviy o'qitish sharoitida to'g'ri olib borish mumkin, lekin bu boshqaruvni qiyinlashtiradi va samaradorlikni pasaytiradi). Ta'lim oluvchilarga ruhiy qiyinchilik va qo'rquvlardan qutulish uchun, mavzuga to'g'ri borish bilan bog'liq bo'lmagan, balki yaqinroq mavzudan olingan kutilmagan, qiziq savollarga tez javoblar izlash mashqini o'tkazadi. Berilgan muammoni eslatadi va boshlashga ruxsat beradi	Har bir guruh baho va maqbul/samarali/oqilona g'oya-larni qayd etib borishi uchun ekspert tanlaydi. Guruh a'zolari hamkorlikda ishlashlari mumkin bo'lgan holda o'tiradilar

3-bosqich. Asosiy qism	Kuzatadi, yo'llaydi, rag'batlantiradi. O'zini tortishuvga aralashishini, o'z nuqtai-nazarini aytishga yo'l qo'ymaydi. Chidash, chidamlilik, hayron bo'lmaslikni namoyon qiladi. Kerak bo'lganda guruhni xayrixohlik bilan ish holatiga qaytaradi	Muammoni yechish bo'yicha g'oya va takliflarni aytadilar, ekspertlar esa ularni yozadilar
	1-variant. Aytilgan g'oyalarni ekspertlar bilan muhokama qilishni, ularni taklif etilgan mezonlarga mos holda baholash va tanlashni tashkillashtiradi. Muammoni yechish uchun tanlangan g'oyalarni ekspertlar guruhi taqdimotini va ularning muhokamasini tashkil-lashtiradi.	Ekspertlar ishlayotgan paytda, boshqa barcha ishtirokchilar mavzular bosqichi bo'yicha krossvord yechadilar, o'quv holatini muhokama qiladilar. Ekspertlar tanlangan g'oyalarni taqdim etadilar. Ushbu g'oya mualliflari himoyani olib boradilar
	2-variant. G'oyani alohida baholash va eng yaxshilarini jamoaviy tanlashni tashkillashtiradi	
4-bosqich. Yakun yasash, tahlil qilish va baholash	Yakunlarni umumlashtiradi, guruhlar ishini tahlil qiladi va baholaydi: ijobiy, ijodkorlikning yuqori darajasi holatlari, jamoaviy faoliyat muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi	O'z-o'zlarini baholaydilar

INSYE RT

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob.

Insert - o'zlashtirishning majmual vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

(-) - mening bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.

Insert usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t m a z m u n i	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Tayyorgarlik	O'quv mashg'ulot maqsadini aniqlaydi, uning natijalari, ta'lim oluvchilar faoliyatini baholash mezonlarini shakllantiradi, kerakli o'quv materiallarini tayyorlaydi	
2-bosqich. Kirish	O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari uning natijalari, ta'lim oluvchilar faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Yozib oladilar
3-bosqich Asosiy qism	Mavzu bo'yicha mavjud axborotlarni faollashtiradi: "aqliy hujum" usuli yordamida quyidagi savolga javob berishlarini taklif etadi: "Siz... shu to'g'risida nimalarini bilasiz?" Yozuv taxtasida alohida so'z yoki so'z bog'lovchilari ko'rinishida yozishni tashkillashtiradi. Olingan axborotlarni toifalar bo'yicha tizimlashtirishni taklif etadi. Buning uchun: • toifali jadval tuzilmasini jamoaviy muhokamasini tashkillashtiradi; • yozuv taxtasida jadval chizishni va unga (jamoaviy/alohida) olingan axborotlarni kiritishni taklif etadi. Hosil qilingan bilimlarni umumlashtiradi: quyidagi savolga javob berishlarini taklif qiladi: "Siz qanday yangiliklarni bilishni xohlar edingiz?", "Sizga...shu to'g'risidagi bilimlar nima uchun kerak?" Matnni tarqatadi, uni o'qib chiqishni va insert usulidan foydalanib matn chetida belgilar qo'yishni taklif etadi. Ishning borishini kuzatadi. Ishning o'zaro tekshiruvini o'tkazish va o'qish paytida paydo bo'lgan savollarga javob berishni taklif etadi. Ixtiyoriy belgi bo'yicha guruhlariga bo'ladi va guruhli Insert jadvallarini tuzishni va ularga olingan axborotlarni kiritishni taklif etadi. Natijalar taqdimoti boshlanishini e'lon qiladi	Savollarga javob beradilar Jadvalning tuzilmaviy tarkibiy qismlarini yechishda ishtirok etadilar. Unga axborotlar "kiritadilar". Savollarga javob beradilar Juftlikda ishlaydilar; o'rganilgan material bo'yicha fikr almashadilar. Muhokama vaqtida tanlab olingan axborotlarga asoslanib, guruhli jadvallar tuzadilar . Guruh sardorlari natijalar taqdimotini o'tkazadilar. Bunda ular e'tiborni asosiy axborotga qaratadilar, o'qish davomida paydo bo'lgan savollarni aytadilar
4-bosqich. Yakun yasash	Olingan axborotni umumlashtiradi va sharhlaydi. Paydo bo'lgan savollarga javob beradi, muhim qo'shimcha axborotni beradi. Maqsadga erishish muvaffaqiyatini tahlil qiladi va baholaydi. Keyingi ish istiqbollari aniqlaydi	

P I N B O R D

Pinbord (inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat.

Ta'lim beruvchi:

→ Taklif etilgan muammoni yechishga o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.

→ Ommaviy to'g'ri aqliy hujumni tashkillashtiradi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi g'oyalarni:

→ Taklif etadilar, muhokama qiladilar, baholaydilar eng ko'p maqbul (samarali va boshqa g'oyalarni tanlaydilar va ularni qog'oz varag'iga asosiy so'zlar ko'rinishida (2 so'zdan ko'p bo'lmagan) yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar.

→ Guruh a'zolari (ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan 2-3 talaba yozuv taxtasiga chiqadilar va boshqalar bilan maslahatlashib:

- aniq xato yoki qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar;
- tortishuvlarni aniqlaydilar;
- g'oyalarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilar bo'yicha aniqlaydilar;
- shu belgilar bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruhlaydilar (kartochka/varaqlar).

Ta'lim beruvchi:

→Umumlashtiradi va ish natijalarini baholaydi.

Pinbord texnikasi qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	O'quv mashg'ulotida pinbord o'rnini aniqlaydi, uning maqsadini shakllantiradi, muammoni va uni yechish bo'yicha taklif etilayotgan g'oyalarni baholash mezonlarini aniqlaydi	
2-bosqich. Mavzuni yaxshi o'rganish	Mavzu tuzilmasini aniqlaydi. Pin-bord usulini tushuntiradi. O'zining fikrlarini aytadi va ta'lim oluvchi-larga o'z fikrlarini aytishlarini tak-lif etadi, munozara boshlanishini tez-latish uchun bir qator savollar beradi. Kuzatadi. Berilgan muammoni eslatadi va boshlashga ruxsat beradi	Har bir guruh baho va maqbul/samarali/ oqilona g'oyalarni qayd etib borishi uchun ekspert tanlaydi. Guruh a'zolari hamkorlikda ishlashlari mumkin bo'lgan holda o'tiradilar
3-bosqich. Yakuniy xulosani yozma bayon etish	Maslahat, tavsiyalar beradi	Munozara jarayonida ishlab chiqilgan, o'z fikrlarini, asosiy yakuniy xulosadek, kichik qog'ozlarga yozadilar va yozuv taxtasiga biriktiradilar. O'quv guruhidan 2-3 vakillar boshqa ta'lim oluvchilar bilan maslahatlashib, ma'lumotni
4-bosqich. Umumlashtirish		tizimlashtiradilar va mazmuniga ko'ra guruhlaydilar. Ko'rsatuvchi chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ularning mosliklarini ko'rsatadilar
5 - bosqich Yakun yasash, tahlil qilish va baholash	Yakunlarni umumlashtiradi, guruhlar ishini tahlil qiladi va baholaydi: ijobiy, ijodkorlikning yuqori darajasi holatlari, jamoaviy faoliyat muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi	O'z-o'zlarini baholaydilar.

Ishbilarmon va rol (holat)li o'yinlar muammoli topshiriqning bir turi. Faqat bunday holatda matnli material o'rniga, ta'lim oluvchilar tomonidan o'ynaladigan sahnalashtirilgan hayotiy holatlar ishlatiladi

O'qitish usuli sifatida u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- **o'rgatuvchi:** umumo'quv malakalarni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, shu jumladan, tushunish, yangi holatlarni shakllantirish va tahlil qilish;
- **rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlash, nutq, atrof-muhit sharoitiga o'rganish qobiliyatini rivojlantirish;
- **motivasiyal:** ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosa qabul qilishini rag'batlantirmoq;
- **tarbiyalovchi:** mas'uliyatlilikni, fikr almashishlikni shakllantirish.

O'yin usullari va dars shaklidagi mashg'ulot holatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda sodir bo'ladi:

- didaktik maqsad ta'lim oluvchilar oldiga vazifa ko'rinishida qo'yiladi;
- o'quv faoliyat o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv material o'yinning vositasi sifatida ishlatiladi;
- o'quv faoliyatiga didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan musobaqa bo'lagi kiritiladi;
- didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Ishbilarmon o'yinni rolli o'yindan farqi nimada?

Ishbilarmon o'yin ishtirokchilariga hayotiy holatda qurilgan o'yinli syujet taklif qilinadi, bunda ishtirokchilar oldiga yagona umumiy maqsad: taklif etilayotgan muammoni yechish qo'yiladi.

Shu bilan bir vaqtda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi lozim. Shuning uchun yechimni ishlab chiqish jarayonni alohidalig-guruhli xususiyatga ega: har bir ishtirokchi avval o'zining vazifali maqsadiga muvofiq qaror qabul qiladi, undan so'ng esa uni guruh bilan kelishadi. Alohida vazifali maqsad bajarilishi butun guruh qaror qabul qilish natijalariga bog'liq. Odatda, ishbilarmon o'yin davomidagi muammoni yechish bir nechta bosqichda (2 dan 10 gacha va bir o'yin ko'p).

Ishtirokchilar harakatini baholash yakuniy va oraliq natijalar bo'yicha amalga oshiriladi: oraliq baholash belgilangan maqsadni amalga oshirishda ularning anglab yetishini oshirish maqsadida bizga o'yin davomida ishtirokchilar harakatiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi, yakuniy natijani baholashda ishtirokchilarning tashkiliy faoliyatlari va ular tomonidan vazifali rolli maqsadni bajarish hisobga olinadi.

Rolli o'yin, ishbilarmonlik kabi vaziyatda ko'rsatilgan, muammoni yechishda ishtirokchilarning faol birgalikdagi harakatlariga asoslanadi. Mavzu qatnashchilarining bitta majburiy maqsadlari bor - muammoni yechish. Lekin alohidalig maqsadlar, ishbilarmon o'yindagi kabi kelishib olinmaydi. Rolli o'yinning har bir ishtirokchilar maqsadlari - g'alaba qozonish, o'zini ko'rsatish. Vaziyatli o'yin yakunlarini nafaqat umumiy maqsadga erishish natijalari bo'yicha emas va balki har bir ishtirokchining rolli maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha baholanadi.

Siz tomondan ishlab chiqilgan o'yin haqiqiy hayotga mumkin qadar yaqin bo'lishi, lekin ishtirokchilar uchun juda murakkab va qiyin bo'lmasligi kerak.

Ishbilarmon o'yin usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	<i>F a o l i y a t</i>	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	Mavzu tanlaydi, maqsad, vazifalar va natijalarni shakllantiradi; o'rganilayotgan muammoni bayon qiladi, qo'yilgan vazifani asoslaydi; o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqadi; o'yin tartibini, vaziyat mazmuni va qatnashuvchilar xususiyatlarini aniqlaydi	
2-bosqich. Kirish	Ishtirokchilar uchun yo'riqnomalar va o'yinning aniqlovchilarini tayyorlaydi; natijalarni baholash mezonlarini aniqlaydi. Ishtirokchi va ekspertlarni yo'llaydi. Ish tartibini aniqlaydi, mashg'ulotning bosh maqsadini shakllantiradi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlashni asoslaydi. Ishtirokchilarga materiallar solingan paketlarni: yo'riqnomalar, o'ynash lozim bo'lgan qahramonlarning xususiyatlari, shuningdek vaziyatli ko'rsatmalarni tarqatadi	Materiallarni birga-likda muhokama qiladilar, rollarni taqsimlaydilar.
3-bosqich. Rollarni bajarishga tayyorgarlik	Kuzatadi, alohida maslahatlar beradi	Oldindan belgilangan vaqtda qo'yilgan vazifani anglab yetadilar va rolga kiradilar: har bir ishtirokchi, ssenariyda bayon qilingan o'zining rolli maqsadini amalga oshirishni rejalashtiradi. Kerak bo'lganda qo'shimcha axborotlar yig'adi, maslahat uchun olib boruvchi va ekspertlardan maslahat oladi
4-bosqich. Asosiy qism	O'yin yo'nalishini o'zgartirish bevosita aralashish huquqisiz kuzatadi. O'yining oraliq natijalarini baholashni amalga oshiradi (ta'minlaydi), shu bilan birga ularning anglab yetishishlarini oshirish maqsadida ishtirokchilar harakatiga o'rtacha ta'sir ko'rsatadi	O'yin shartlarida yozilgan talab bo'yicha, rollarni o'ynaydilar, bir-birlari bilan faol hamkorlik qiladilar. Shu bilan birga bunda oshkora bo'lmagan o'yindan chiqishni, ta'qiqlovchi, o'yinga sust munosabatda bo'lish boshqalarning faolligini bostirish o'zini tutish etikasi va reglamentini buzmaslik qoidalariga amal qiladilar
5-bosqich. Tahlil, muhokama, natijalar bo'yicha o'z-o'zini baholash	O'yin yakuni muhokamasiga yo'naltiradi. Tahlil avval e'lon qilingan ko'rsatkich va baholash mezonlari bilan chegaralanadi. Bunda ishtirokchilar tomonidan berilgan mavzuni qabul qilish, rolli maqsadlarga erishish darajasidan tashqari, ishtirokchilarning qo'l harakatlari, mimika, ularni o'qitish vositalari bilan ishlay olishlarini tanqidiy	Ekspertlar chiqishini eshitadilar, fikrlar bilan almashinadilar, rolli maqsadlarga erishish bo'yicha o'z xulosalarini himoya qiladilar. O'z harakatlari va xulosa-larini o'yin

	kuzatish bo'lishi mumkin	qahramonlari harakatlari bilan taqqos-laydilar
6-bosqich. Yakun yasash, va baholash	Erishilgan natijalarni sharhlaydi, xatolarni ko'rsatadi, mashg'ulotning so'nggi yakunini chiqaradi, o'yinning o'quv fani mazmuni bilan bog'liqligini aniqlaydi	Tinglaydilar

VAZIYATLAR USULI

Vaziyatlar usuli – ta'lim beruvchining muammoli vaziyatlarni yaratishga va ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatlariga asoslangan. U aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va keyingi qarorni qabul qilishdan tuzilgan

Usulning yetakchi vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'rgatuvchi – bilimlarni faollashtirishga asoslangan;
- Rivojlantiruvchi – tahliliy tafakkurni, alohida hodisalarning dalillari qonuniylikni ko'ra bilishini shakllantirish;
- Tarbiyalovchi – fikr almashinish ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalardan foydalanish usuli bizga, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, imkonini beradi, bu materialni ta'lim oluvchilar uchun yanada ko'p dolzarbli qiladi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- noma'lumning borligi, uni topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi;
- noma'lumni topish yo'nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun ta'lim oluvchilarda ma'lum darajada bilim manbalari borligi.

Muammo 3 tarkibiy qismdan tashkil topadi:

- ma'lum (ushbu berilgan vazifadan).
- noma'lum (topish yangi bilimlar shakllanishiga olib keladi).
- noma'lumni topish yo'nalishida qidiruvni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan, avvalgi bilimlar (ta'lim oluvchilar tajribasi).

Shunday qilib, o'quv muammosini ta'lim oluvchilarga oldindan noma'lum bo'lgan natija yoki bajarish usuli vazifasi sifatida aniqlash mumkin. Lekin ta'lim oluvchilar ushbu natija qidiruvini amalga oshirish yoki hal etish yo'li uchun dastlabkiga egadirlar. Shunday qilib, ta'lim oluvchilar hal etish yo'lini biladi, vazifasi o'quv muammosi bo'lmaydi. Boshqa tomondan, agar ta'lim oluvchilar u yoki bu vazifani yechish yo'lini bilmay uni yechish qidiruvi uchun vositaga ega bo'lmasalar, unda u ham o'quv muammosi bo'lishi mumkin emas.

Muammoli vazifaning murakkabligi (vaziyat "o'quv" muammo) bir qator dalillar bilan aniqlanadi, bu jumladan ta'lim oluvchilar darajasiga mos qilishi kerak. Agarda tanishtiruvchi material juda ham hajmi katta yoki murakkab bo'lsa, ular hamma akborotni qabul qila olmaydilar, yechimini topishni bilmaydilar va o'quv faoliyatida bo'lgan har qanday qiziqishlardan mahrum bo'ladilar.

Muammoli vazifani ishlab chiqish katta mehnat va pedagogik mahoratni talab etadi. Qoidaga binoan, vazifani bir necha marotaba tajribadan o'tkazgandan so'ng o'quv guruhida omadli variantini tuzishga ega bo'linadi. Shunga qaramay, bunday vazifalar nazariyani haqiqiy vaziyat bilan bog'lash imkonini beradi. Bu ta'lim oluvchilar ongida o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun o'rganilayotgan materialning amaliy foydasini anglab yetishga yordam bo'ladi.

Vaziyatlar usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	<i>F a o l i y a t</i>	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	Mavzu, muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad, natijalar va baholash mezonlarini ifodalaydi, texnologik xaritani, talabalar bilan muammoli vaziyatlarni belgilash va yechishni ishlab chiqadi.	
1-bosqich. Muammoga kirish	Muammoli vaziyatni (muammoni bayon etadi) yaratadi, talabalarni ularni yechishga yo'naltiradi; shu bilan birga ularni ish natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Guruhlarga bo'linadilar; muammoli vaziyatlar bayon qilingan materiallar bilan tanishadilar
2-bosqich. Muammoga kirish	Muammoni to'g'ri tushunganliklariga ishonch hosil qilish uchun, bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tib, munozarani faollashtiradi va zarur bo'lganda maqsadga yo'naltiradi. Talabalarga muammolarni turlicha majmuali hal etish mumkin ekanligini tushuntiradi	Ushbu muammoni hal etishning turli imkoniyatlarini guruhlarda muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladi-lar, eng maqbullarini topadilar, yagona fikrni ifodalaydilar.
3-bosqich. Natijalarni taqdim etish	Diqqat bilan tinglaydilar, savollar beradilar	Natijalarni ma'lum qiladi, boshqa guruh variantlarini muhokama qiladilar
4-bosqich. Umumlash- tirish, yakun yasash	Bahosiz va qisqa ravishda muammoni yechishning asosiy va hal etish yo'llarini sanab o'tadi. Muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi	Eng maqbullarini aniqlaydilar

2.4. To'rtinchi guruh ta'lim usullari

To'rtinchi guruh ta'lim usullari: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4 darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi usullar.

3.TA'LIM BERISH USULLARINI TANLASH

Ta'lim berish usullarini tanlash va qo'llashda ko'pgina quyidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhim:

- *Maqsadni belgilash:* 1) ta'lim berish maqsadi, 2) pedagogik vazifalar, 3) o'quv faoliyat natijalari.
- *O'quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi:* maqsad va ushbu o'quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan.
- *Ta'lim berish usullarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri.* G. Mayerga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10%; ko'rish orqali - 20%; ko'rib va eshitish orqali - 50%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada - 70%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda -90% axborot qoladi.

- *Ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlari:* tayyorgarlik darajasi, umumo'quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo'naltirilganligi, yoshi, ishlash qobiliyati, o'ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlari.

- *Vaqt sarfi:* 1) o'quv dasturida yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo'lishi mumkinki, bu esa ko'p vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini beradi; 2) vaqt u yoki boshqa usulni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarfini ketish nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Shu bois, bunday usullarni qo'llashni rejalashtirishda, o'zidan ushbu tashkillashtirish yo'lini amalga oshirishga zarur tayyorgarlikka vaqt va kuch yetarli bo'ladimi? deb so'rash kerak.

- *Ta'lim berish sharoiti:* ba'zi usullarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta'lim berishning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshq.

- *Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi, jamoadagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari* (hamkorlik yoki so'zsiz bo'ysunishli).

- *Ta'lim oluvchilar soni:* agarda u katta bo'lmasa, ta'lim berishni faol ta'lim usullarni qo'llab, jadallashtirish mumkin.

- *Ta'lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari:* ma'qul deb topilgan usullarni qo'llashni bilishi va uddalashi, talablarga mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Qo'shimcha omillar:

- Mavzuni o'rganishni (mustaqil/ ta'lim beruvchi rahbarligi ostida) tashkillashtirish yo'li: *Qay tarzda?*

- Didaktik vositalar: *Qaysilari?*

- Faollikni rag'batlantiruvchi usullar: *Qaysilari?*

- Nazorat va o'z-o'zini nazorat: *Qaysilari?*

7- “Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari”

I. Reja

1. Ta’lim texnologiyasi - pedagogika tizimning tashkil etuvchisi.
2. Ta’lim texnologiyasining (qismlari bo’yicha) tuzilmasi.
3. Ta’lim texnologiyasining harakatlanuvchi tuzilmasi.
4. Ta’lim texnologiyasini loyihalash va ishlab chiqish tartibi .

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Tizim, model, tuzilma, tarkib, element, haraktlanuvchi tuzilma, loyihalash, maqsadni belgilash, maqsad, vazifa, natija.

III. Mavzuni va alohida savollarni o’rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro’yxati

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari.-T., 2001.
3. Bershadskiy M.Ye. V kakix znacheniyax ispolzuyetsya ponyatiye “texnologiya” v pedagogicheskoy literature? //Shkolnyye texnologii.- 2002.- № 1.
4. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika, 1989.
5. Bogolyubov V.I. Evolyusiya pedagogicheskix texnologiy //Shkolnyye texnologii - 2004. - № 4.
6. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax: Uchebnoye posobiye //Pod общ. red. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
7. Yepisheva O.B. Osnovnyye parametry texnologii obucheniya. //Shkolnyye texnologii -2004.- № 4.
8. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O’qituvchi, 2004.
9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. Analiz zarubejnogo opyta.- M.: Znaniye, 1989 / Novoye v jizni, nauke, texnike. Ser. “Pedagogika i psixologiya”. № 6.
10. Kushnir A.M. Metodicheskiy plyuralizm. //Shkolnyye texnologii.- 2004. № 4.
11. Selevko G.K. Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii: Uchebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
12. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
13. Tolipov O’., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
14. Farberman B.L. Peredovyye pedagogicheskkiye texnologii. -T.: Fan, 2000.

IV. O’zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogik tizim modelini tasvirlab bering va uning tarkiblarini ayting.
2. TT modelini tasvirlab bering va uning tarkibi hamda elementlarini ayting.
3. TT harakatlanuvchi tuzilmasini kengaytirib bayon eting.
4. TT loyihalashda nima uchun yo’naltiruvchi bosqich muhim hisoblanishini tushuntiring.
5. Nima uchun natijaviy bosqichda baholash-tahliliy harakatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntiring.

1. TA'LIM TEXNOLOGIYASI – PEDAGOGIK TIZIMNING TASHKIL ETUVCHISI

1.1. Pedagogik tizim tushunchasi

Tizim – o'zida yaxlit borliqlikni namoyon etib, bunda o'zaro bog'liq va o'zaro harakat qiluvchi qismlarning o'zgarmas tartibi uning ichki tuzilmasini yaratadi. Bu harakat qiluvchi tuzilma bo'lib, bunda faoliyat aniq maqsadlarga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik tizim quyidagi tarkiblardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi - o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustasi.

2. Ta'lim oluvchi - talaba, o'quvchi, tinglovchi.

3. Ta'limiy maqsad – bu ta'lim berishni biror narsaga intilishi.

4. Natija – (1) ushbu davr ichidan chiqishda ta'lim oluvchini bilishi, uddalashi, qadrlashi zarur bo'lgan, ta'lim berishni biror narsaga kelishidir; (2) ta'lim jarayonini samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi. Natija belgilangan maqsadga mos kelsa, qo'ish o'rgatish jaryoni tugallangan hisoblanadi.

5. O'quv axboroti mazmuni – fan bo'yicha o'qitish mazmunini tashkil etuvchi, adabiyot matnlari va o'quv qo'llanmalar, lug'at va boshqa axborot manbalaridan iborat bo'ladi. O'quv dasturi asosida aniqlanadi va maqsadni belgilashdan kelib chiqib ta'lim beruvchi tomonidan o'zgartirish kiritiladi.

6. Ta'lim texnologiyasi – (1) o'qitish- usul, shakl va vositalar; (2) muloqot, (3) axborot va (4) boshqaruvning **yo'l va vositalari**.

7. Tahliliy-natijaviy tarkib – ta'lim texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar samaradorligini o'lchashning yo'l va vositalari.

Agar pedagogik tizimning tarkibiy tashkil etuvchilaridan bittasi ham bo'lmasa, unday holda ta'lim jarayonining o'zi ham bo'lmaydi, yoki u kuchsiz xususiyatga ega bo'ladi. Har qanday holatda ijobiy natija bo'lsa ham, u tasodifiy bo'lishi mumkin.

1.2. Pedagogik tizim tuzilmasi

Izoh:

“Boshlang'ich vaziyat” ta'lim texnologiyasini loyihalashni boshlaguncha keng qamrovli axborotni olishdir, ya'ni:

Ta'lim oluvchilar, shu qatorda ularning:

- tayanch bilimlari (avval olgan bilimlar yig'indisi);
 - o'quv - axborotli malakalar;
 - o'qishni davom ettirish, kasbni egallash uchun kerakli o'quv muloqotli (o'zaro fikr almashinuvi bilan bog'liq) malakalar;
 - kasbiy muhim sifatlar;
 - shaxsning ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan sifatлари;
- O'quv – moddiy manba:*
- o'quv materiallarining (kitoblar, qo'llanmalar, lug'atlar va boshqalar) mavjudligi;
 - ta'lim berish vositalarining borligi va holati;
 - jihozlangan xonalarning (ustaxona, tajriba o'tkazish xonalari va boshqalar) mavjudligi.

Boshlang'ich vaziyatni “aniqlash” maqsadni belgilash uchun muhim.

“Kechiktirilgan, o’zgaruvchan natija”. Moddiy va mas’ul (masalan, ishlab chiqarish sharoitidagi) faoliyat ma’lum sohaning borliq qonuniyatlari bilan bog’liq. Shu bois ishlab chiqarish texnologiyalari texnologik tartibni qat’iy belgilanishi bilan xususiyatlanadi va shu bilan birga natijani belgilangan maqsadga mosligini doimo ta’minlaydi.

Vaholanki, ta’limiy faoliyat shaxsiy-subyektiv, xissiyotli xususiyatga ega bo’lib, u mualliflik, individual, ijodiy, tayyorgarliksiz, ya’ni jarayonni o’zida yaratish tabiatida ta’lim berishga asoslanadi, ta’lim beruvchining psixologik-kasbiy xususiyatlari hamda ta’lim oluvchilarni ko’p qirrali shaxsiy xususiyatlari bilan ifodalanadi. Shu bois, ta’lim texnologiyasida belgilangan tartibdan chetga chiqishga yo’l qo’yiladi, birgina va faqat shu texnologiyani amalga oshirishda subyekt tomonidan erishilgan ta’lim natijalari esa, *kechiktirilgan, o’zgaruvchan xususiyatga* ega bo’ladi.

Shunday bo’lsa ham har qanday holatda ham erishilgan natija bir oz o’rtacha ko’rsatkichga yaqin bo’ladi.

2.TA’LIM TEXNOLOGIYASINING TUZILMASI

2.1.Ta’lim texnologiyasining tarkibiy qismlari va elementlari

Tuzilish (lot. structura – tuzilish, joylashish), tarkibiy qismlarning muayyan o’zaro aloqasi, o’zaro joylashuvi; biror narsaning tuzilishi.

Tuzilmaning qismlari – uning shartli bo’linmaydigan va qiyoslana oladigan qismlari.

Tuzilmaning tashkil etuvchilari - qismlar uchun ularni birlashtiruvchi nom.

Ta’lim texnologiyasi - tizimli toifa bo’lib, tuzilmaviy tashkil etuvchi va qismlari bo’lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta’limning yo’l va vositalari: ta’lim usullari; ta’lim shakllari; ta’limning yo’llari, texnikalari; ta’lim vositalari.

2. Muloqotning yo’l va vositalari:

2.1. Ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan birga tezkor qaytar aloqa asosida bevosita o’zaro harakati:

(1) ta’lim beruvchi - o’quv axborot manbai, undan foydalanishning tashkilotchisi hamda nazoratchisi;

ta’lim oluvchi - axborot iste’molchisi, ta’sir o’tkaziladigan boshqaruv obyekti;

(2) ta’lim beruvchi - o’quv axboroti manbai bo’lib, maslahatchi, ta’lim jarayonining subyektlari o’rtasida axborot almashinuvining muvofiqlashtiruvchisi;

ta’lim oluvchi - o’quv axborotini egallash va uni ishlatish bo’yicha shaxsiy mustaqil ijodiy faoliyat subyekti.

2.2. Vaqt bo’yicha bo’lingan qaytar aloqa bilan ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan birga bilvosita o’zaro harakati:

(1) ta’lim beruvchining ta’lim manbalari bilan ta’lim oluvchilarni eng kam ishtiroklaridagi o’zaro harakati;

(2) ta’lim beruvchining bir ta’lim oluvchi bilan, ikkita ta’lim oluvchi o’rtasidagi: faol o’zaro harakat;

(3) ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o’rtasida: ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar guruhi bilan; ta’lim oluvchi guruhlar o’rtasida: faol o’zaro harakat.

3. Axborotning yo’l va vositalari:


- axborotni yetkazish - monolog, dialog, polilog;
- axborotni olish (qaytar aloqa) - tashxis, baholash, kuzatuv.

4.Boshqaruvning yo’l va vositalari:


- bashoratlash;
- rejalashtirish;

- nazorat;
- baholash;
- axborotni yig'ish, uning to'planishi va tahlil;
- o'zgaruvchanlik va yo'nalishni aniqlash;
- boshqaruv xulosasini qabul qilish;
- o'zgartirish kiritish.

2.2. Ta'lim texnologiyasining tuzilishi



3. TA'LIM TEXNOLOGIYASINING HARAKATLANUVCHI TUZILMASI




Izoh:

“Tashqi sharoitlar” - o'quv xonalarni jihozlashda, texnikaviy va boshqa o'qitish vositalarining holati va mavjudligi, ijtimoiy muhit va boshqalarda namoyon bo'ladi.

“Halaqitlar” - ularning kelib chiqishi ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtirish va amalga oshirish jarayonida ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik, rivojlanganlik darajasi, ularning imkoniyatlari ta'lim jarayoni ishtirokchilarini zaruriy psixologik, shaxsiy, individual va boshqa xususiyatlari kabi omillarni hisobga olishni yo'qligi bilan namoyon bo'ladi.

“To'g'rilash /o'zgartirish” kiritish. Nima sababdan ta'lim jarayoni yakunida uning yo'li va natijalarini tahlil qilish muhim hisoblanadi? Javob ravshan- dastlabki g'oyaga yo'l va natijalarni to'liq mos kelmasligi sababini aniqlash, nima sababdan, qayerda xatoliklarga yo'l qo'yilganligini aniqlash uchun, tezkorlikda to'g'rilash kiritish va o'z vaqtida o'zgartirish kiritish zarur.

4.TA'LIM TEXNOLOGIYASINI LOYIHALASH VA ISHLAB CHIQUISH TARTIBI



8- “Loyixaviy ta’lim texnologiyasiga kirish”

I. Reja

1. Ta’lim texnologiyasi - pedagogika tizimning tashkil etuvchisi.
2. Ta’lim texnologiyasining (qismlari bo’yicha) tuzilmasi.
3. Ta’lim texnologiyasining harakatlanuvchi tuzilmasi.
4. Ta’lim texnologiyasini loyihalash va ishlab chiqish tartibi .

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Tizim, model, tuzilma, tarkib, element, haraktlanuvchi tuzilma, loyihalash, maqsadni belgilash, maqsad, vazifa, natija.

III. Mavzuni va alohida savollarni o’rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro’yxati

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari.-T., 2001.
3. Bershadskiy M.Ye. V kakix znacheniyax ispolzuyetsya ponyatiye “texnologiya” v pedagogicheskoy literature? //Shkolnyye texnologii.- 2002.- № 1.
4. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika, 1989.
5. Bogolyubov V.I. Evolyusiya pedagogicheskix texnologiy //Shkolnyye texnologii - 2004. - № 4.
6. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax: Uchebnoye posobiye //Pod общ. red. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
7. Yepisheva O.B. Osnovnyye parametry texnologii obucheniya. //Shkolnyye texnologii -2004.- № 4.
8. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O’qituvchi, 2004.
9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom prosesse. Analiz zarubejnogo opyta.- M.: Znaniye, 1989 / Novoye v jizni, nauke, texnike. Ser. “Pedagogika i psixologiya”. № 6.
10. Kushnir A.M. Metodicheskij plyuralizm. //Shkolnyye texnologii.- 2004. № 4.
11. Selevko G.K. Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii: Uchebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
12. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
13. Tolipov O’., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
14. Farberman B.L. Peredovyye pedagogicheskiye texnologii. -T.: Fan, 2000.

IV. O’zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogik tizim modelini tasvirlab bering va uning tarkiblarini ayting.
2. TT modelini tasvirlab bering va uning tarkibi hamda elementlarini ayting.
3. TT harakatlanuvchi tuzilmasini kengaytirib bayon eting.
4. TT loyihalashda nima uchun yo’naltiruvchi bosqich muhim hisoblanishini tushuntiring.
5. Nima uchun natijaviy bosqichda baholash-tahliliy harakatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntiring.

1. TA'LIM TEXNOLOGIYASI – PEDAGOGIK TIZIMNING TASHKIL ETUVCHISI

1.1. Pedagogik tizim tushunchasi

Tizim – o'zida yaxlit borliqlikni namoyon etib, bunda o'zaro bog'liq va o'zaro harakat qiluvchi qismlarning o'zgarmas tartibi uning ichki tuzilmasini yaratadi. Bu harakat qiluvchi tuzilma bo'lib, bunda faoliyat aniq maqsadlarga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik tizim quyidagi tarkiblardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi - o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustasi.

2. Ta'lim oluvchi - talaba, o'quvchi, tinglovchi.

3. Ta'limiy maqsad – bu ta'lim berishni biror narsaga intilishi.

4. Natija – (1) ushbu davr ichidan chiqishda ta'lim oluvchini bilishi, uddalashi, qadrlashi zarur bo'lgan, ta'lim berishni biror narsaga kelishidir;

(2) ta'lim jarayonini samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi. Natija belgilangan maqsadga mos kelsa, qo'ish o'rgatish jaryoni tugallangan hisoblanadi.

5. O'quv axboroti mazmuni – fan bo'yicha o'qitish mazmunini tashkil etuvchi, adabiyot matnlari va o'quv qo'llanmalar, lug'at va boshqa axborot manbalaridan iborat bo'ladi. O'quv dasturi asosida aniqlanadi va maqsadni belgilashdan kelib chiqib ta'lim beruvchi tomonidan o'zgartirish kiritiladi.

6. Ta'lim texnologiyasi – (1) o'qitish- usul, shakl va vositalar; (2) muloqot, (3) axborot va (4) boshqaruvning **yo'l va vositalari**.

7. Tahliliy-natijaviy tarkib – ta'lim texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar samaradorligini o'lchashning yo'l va vositalari.

Agar pedagogik tizimning tarkibiy tashkil etuvchilaridan bittasi ham bo'lmasa, unday holda ta'lim jarayonining o'zi ham bo'lmaydi, yoki u kuchsiz xususiyatga ega bo'ladi. Har qanday holatda ijobiy natija bo'lsa ham, u tasodifiy bo'lishi mumkin.

1.2. Pedagogik tizim tuzilmasi

Izoh:

“Boshlang'ich vaziyat” ta'lim texnologiyasini loyihalashni boshlaguncha keng qamrovli axborotni olishdir, ya'ni:

Ta'lim oluvchilar, shu qatorda ularning:

- tayanch bilimlari (avval olgan bilimlar yig'indisi);
- o'quv - axborotli malakalar;
- o'qishni davom ettirish, kasbni egallash uchun kerakli o'quv muloqotli (o'zaro fikr almashinuvi bilan bog'liq) malakalar;

- kasbiy muhim sifatlar;

- shaxsning ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan sifatлари;

O'quv – moddiy manba:

- o'quv materiallarining (kitoblar, qo'llanmalar, lug'atlar va boshqalar) mavjudligi;
- ta'lim berish vositalarining borligi va holati;
- jihozlangan xonalarning (ustaxona, tajriba o'tkazish xonalari va boshqalar) mavjudligi.

Boshlang'ich vaziyatni “aniqlash” maqsadni belgilash uchun muhim.

“Kechiktirilgan, o’zgaruvchan natija”. Moddiy va mas’ul (masalan, ishlab chiqarish sharoitidagi) faoliyat ma’lum sohaning borliq qonuniyatlari bilan bog’liq. Shu bois ishlab chiqarish texnologiyalari texnologik tartibni qat’iy belgilanishi bilan xususiyatlanadi va shu bilan birga natijani belgilangan maqsadga mosligini doimo ta’minlaydi.

Vaholanki, ta’limiy faoliyat shaxsiy-subyektiv, xissiyotli xususiyatga ega bo’lib, u mualliflik, individual, ijodiy, tayyorgarliksiz, ya’ni jarayonni o’zida yaratish tabiatida ta’lim berishga asoslanadi, ta’lim beruvchining psixologik-kasbiy xususiyatlari hamda ta’lim oluvchilarni ko’p qirrali shaxsiy xususiyatlari bilan ifodalanadi. Shu bois, ta’lim texnologiyasida belgilangan tartibdan chetga chiqishga yo’l qo’yiladi, birgina va faqat shu texnologiyani amalga oshirishda subyekt tomonidan erishilgan ta’lim natijalari esa, *kechiktirilgan, o’zgaruvchan xususiyatga* ega bo’ladi.

Shunday bo’lsa ham har qanday holatda ham erishilgan natija bir oz o’rtacha ko’rsatkichga yaqin bo’ladi.

2.TA’LIM TEXNOLOGIYASINING TUZILMASI

2.1.Ta’lim texnologiyasining tarkibiy qismlari va elementlari

Tuzilish (lot. structura – tuzilish, joylashish), tarkibiy qismlarning muayyan o’zaro aloqasi, o’zaro joylashuvi; biror narsaning tuzilishi.

Tuzilmaning qismlari – uning shartli bo’linmaydigan va qiyoslana oladigan qismlari.

Tuzilmaning tashkil etuvchilari - qismlar uchun ularni birlashtiruvchi nom.

Ta’lim texnologiyasi - tizimli toifa bo’lib, tuzilmaviy tashkil etuvchi va qismlari bo’lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta’limning yo’l va vositalari: ta’lim usullari; ta’lim shakllari; ta’limning yo’llari, texnikalari; ta’lim vositalari.

2. Muloqotning yo’l va vositalari:

2.1. Ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan birga tezkor qaytar aloqa asosida bevosita o’zaro harakati:

(1) ta’lim beruvchi - o’quv axborot manbai, undan foydalanishning tashkilotchisi hamda nazoratchisi;

ta’lim oluvchi - axborot iste’molchisi, ta’sir o’tkaziladigan boshqaruv obyekti;

(2) ta’lim beruvchi - o’quv axboroti manbai bo’lib, maslahatchi, ta’lim jarayonining subyektlari o’rtasida axborot almashinuvining muvofiqlashtiruvchisi;

ta’lim oluvchi - o’quv axborotini egallash va uni ishlatish bo’yicha shaxsiy mustaqil ijodiy faoliyat subyekti.

2.2. Vaqt bo’yicha bo’lingan qaytar aloqa bilan ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan birga bilvosita o’zaro harakati:

(1) ta’lim beruvchining ta’lim manbalari bilan ta’lim oluvchilarni eng kam ishtiroklaridagi o’zaro harakati;

(2) ta’lim beruvchining bir ta’lim oluvchi bilan, ikkita ta’lim oluvchi o’rtasidagi: faol o’zaro harakat;

(3) ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o’rtasida: ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar guruhi bilan; ta’lim oluvchi guruhlar o’rtasida: faol o’zaro harakat.


3. Axborotning yo'l va vositalari:

- axborotni yetkazish - monolog, dialog, polilog;
- axborotni olish (qaytar aloqa) - tashxis, baholash, kuzatuv.


4.Boshqaruvning yo'l va vositalari:

- bashoratlash;
- rejalashtirish;
- nazorat;
- baholash;
- axborotni yig'ish, uning to'planishi va tahlil;
- o'zgaruvchanlik va yo'nalishni aniqlash;
- boshqaruv xulosasini qabul qilish;
- o'zgartirish kiritish.

2.2. Ta'lim texnologiyasining tuzilishi



3. TA'LIM TEXNOLOGIYASINING HARAKATLANUVCHI TUZILMASI




Izoh:

“Tashqi sharoitlar” - o’quv xonalarni jihozlashda, texnikaviy va boshqa o’qitish vositalarining holati va mavjudligi, ijtimoiy muhit va boshqalarda namoyon bo’ladi.

“Halaqitlar” - ularning kelib chiqishi ta’lim berish texnologiyasini loyihalashtirish va amalga oshirish jarayonida ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik, rivojlanganlik darajasi, ularning imkoniyatlari ta’lim jarayoni ishtirokchilarini zaruriy psixologik, shaxsiy, individual va boshqa xususiyatlari kabi omillarni hisobga olishni yo’qligi bilan namoyon bo’ladi.

“To’g’rilash /o’zgartirish” kiritish. Nima sababdan ta’lim jarayoni yakunida uning yo’li va natijalarini tahlil qilish muhim hisoblanadi? Javob ravshan- dastlabki g’oyaga yo’l va natijalarni to’liq mos kelmasligi sababini aniqlash, nima sababdan, qayerda xatoliklarga yo’l qo’yilganligini aniqlash uchun, tezkorlikda to’g’rilash kiritish va o’z vaqtida o’zgartirish kiritish zarur.

4.TA'LIM TEXNOLOGIYASINI LOYIHALASH VA ISHLAB CHIQISH TARTIBI



“Loyihaviy ta’lim texnologiyasiga kirish”

L O Y I H A L A R U S U L I

Loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualar o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar

Loyihalarda o'qitish nafaqat natijalar, balki jarayonning o'zi ham qimmatli.
Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin.

Loyiha usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik	Loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta'lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to'g'risida ma'lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o'tadi	Guruhga birlashadilar, loyiha mavzusini tanlaydilar va muhokama qiladilar. Kerak bo'lganda qo'shimcha axborotlar oladilar. Maqsadni aniqlaydilar, loyiha bo'yicha ish natijalarini muhokama qiladilar
1-bosqich. Rejalashtirish	G'oyalarni taklif etadi, takliflarni aytadi. Axborot manbai va uning yig'ish usullari va tahlilini tavsiya etadi. Ish tartibi va oraliq bosqichlarni baholash mezonlari va umuman jarayonni belgilaydi	Harakat rejasini tanlaydilar: vazifalarni shakllantiradilar, yo'nalish va bajarish bosqichlarini, ular tartibini aniqlaydilar, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlaydilar. Ta'lim beruvchi bilan natijalarni tahlil etish usulini (hisobot shaklini) ma'qullaydilar
2-bosqich.	Kuzatadi, maslahat beradi, axborot manbasini izlashga yordam beradi, o'zi axborot manbai hisoblanadi	Tadqiqotni bajaradilar. Axborot to'playdilar, oraliq vazifalarni yechadilar,
3-bosqich. Axborot tahlili. Xulosalarni shakllantirish.	Butun jarayonni boshqaradi, qaytar aloqani ushlab turadi	Olingan axborotni tahlil qiladilar, xulosalarni shakllantiradilar
4-bosqich. Hisobot	Eshitadi, oddiy ishtirokchi bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan savollar beradi, quvvatlaydi va rag'batlantiradi	Hisob beradilar. Ish natijalarini: og'zaki hisobot materiallarini namoyish bilan og'zaki hisobot, loyiha ko'rinishida yozma hisobot shakllarida taqdim etadilar

5-bosqich. Jarayon va natijalarni baholash.	Muammoni yechishning to'liq darajasini, guruhlar harakati strategiyasi, ta'lim oluvchilar kuchi, manbalardan foydalanish sifati, ijodiy yondashuv, ishni davom ettirish imkoniyati, hisobot sifati va boshqalarni baholaydi	Jamoaviy muhokama orqali ish natijalari va uning borishi, shu jumladan muammoni yechishning to'liqlik darajasi va harakat strategiyasini himoya qiladilar, baholaydilar
---	---	---

9- “TA’LIMNING KEYS TEXNOLOGIYASIGA KIRISH: KEYSLARNI ISHLAB CHIQISH QOIDALARI”

KEYS-STADI

Ta’lim berish vaziyati- **keys-stadi** (case ingliz.- to’plam, aniq vaziyat, stadi-o’rganish) – bu usul, odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta’lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq yechim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi.

Keys - ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq yechim izlashga yo’naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashtirishidan olingan ma’lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat.

(2) qo’shimcha axborotlardan, jumladan audio, video va elektron yetkazuvchilar va o’quv-uslubiy materiallardan iborat.

O’qitish vaziyatining dolzarbligi:

Aniq vaziyat ta’lim berishni haqiqiylikka bog’laydi: keys ta’lim oluvchilarga vaziyatni tashhis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo’shimcha axborotlarni yig’ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish bo’yicha aniq bosqichlarni loyihalashda amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Keys ta’lim oluvchilarga tahlil ilish, tenglashtirish yo’llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi.


Keysni ko’rib chiqishda ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonini yaratadilar va jarayonda o’zaro harakatda haqiqiy fikr almashish holatlarini yaratadilar.

Keys-stadi usuli qo’llanilgan o’quv mashg’ulotining texnologik xaritasi


Ishlar bosqichi va mazmuni	<i>F a o l i y a t</i>	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg’ulotlarda tarqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (5 daq.)	1.1. O’quv mashg’ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlanishiga ta’sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo’yicha tezkor-so’rov o’tkazadi (ilova). 2.2. Seminarda ishlash tartibi, baholash ko’rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida ishlash (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e’tibor	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar

	berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'llarini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini beradi	beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko'rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag'ini tayyorlash bo'yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o'zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi. Keys bo'yicha o'zining javobini havola qiladi (ilova)	Guruhlar taqdimot qiladilar Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

Keys ishlab chiqish va uni amalga oshirish qoidasi



Amaliy vaziyatni tahlil qilishning yo'naltiruvchi chizmasi



10-Ma'ruzada ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari

Reja

1. Ma'ruza - OUYu ta'lim tashkillashtirishning asosiy shakli.
2. Ma'ruzada o'qitish texnologiyasining jarayonli tuzilmasi.
3. Ma'ruzalarda ta'lim berish texnologiyasi.

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Ma'ruza, kirish ma'ruza, yakuniy ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza, muammoli ma'ruza, qo'shilgan ma'ruza, oldindan ko'zlangan xatoliklar bilan ma'ruza, maslahat ma'ruza, axborotli ma'ruza, ma'ruzalarda ta'lim texnologiyasi

III. Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar i pedagogik mahorat - T.: TDPU, 2003.
2. Axunova G.N. Obrazovatel'naya texnologiya po kursu "Marketing v sfere obrazovaniya" // Iz serii "Texnologii obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii".- T.: TGEU, 2005
3. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax / Uchebnoye posobiye / Pod obshch. red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
4. Djenni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ. Obucheniye soobshch.: chteniye i pismo dlya razvitiya kriticheskogo myshleniya. Uchebnaya programma - Bishkek: Fond Sorosa – 1999.
5. Metody effektivnogo obucheniya vzroslykh: Uchebno-metodicheskoye posobiye. - M.: IPK gosslujaniy, 1998.
6. Rean A, Bordovskaya N, Rozum S. Psixologiya i pedagogika. - SPb.: Piter, 2003.
7. O'Q. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005
8. Farberman B.L., Musina R.G. i dr. Instrumenty razvitiya kriticheskogo myshleniya. - T.: Minvuz, 2002.
9. Shadmonov Sh.Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoye masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii: Metodicheskoye posobiye. - T.: Sentr "Yangi asr avlodi", 2004.
10. Shadmonov Sh.Sh., Baubekova G.D., Xalikova G.M. Innovatsionnyye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii. - T.: FAN, 2002.

IV. O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar


1. Nima uchun ma'ruza TT elementi hisoblanadi? tushuntirib berishga harakat qiling.
2. Ma'ruzaga, ta'lim berish usullaridek tavsif bering.
3. Ma'ruza usulining samaradorlik shartlarini ayting va ularning kengaytirilgan tavsiflarini bering.
4. Ma'ruzaga, ta'lim berishni tashkillashtirish shakllaridek tavsif bering.
5. Ma'ruza shaklidagi ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gapirib bering.

1. MA'RUZA - OUYU TA'LIM TASHKILLASHTIRISHNING ASOSIY SHAKLI


Ma'ruza - o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- yo'naltiruvchilik-talabalarni o'quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;
- axborotlilik- o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;
- metodologiklik- ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;
- tarbiyalovchilik-ma'ruza o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otish;
- rivojlantiruvchilik - bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

1.1.Ma'ruzaning samaradorlik shartlari



1.2. Pedagogik texnikani qo'llash



1.3. Ma'ruza shaklida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'ruza shakllari	O'ziga xos xususiyatlari
Ma'lumotli	Ma'ruzaning eng an'anaviy turi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> o'quv ma'lumotini bayon qilish va tushuntirish
Umumlashtiruvchi qisqa ma'lumotli	Kursni yoki uning katta bo'limlarini bayon etilgan nazorat holatlari negizini, avvalom bor ilmiy-tushunchaviy va konseptual asos tashkil etadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> Ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish. Ichki va fanlararo aloqalarni yoritib berish.
Muammoli	Yangi bilimlar savol / vazifa / vaziyatlarni muammoligi orqali amalga oshiriladi. Bunda talabalar bilimi o'qituvchi bilan hamkorlikda va suhbatda tadqiqotchilik faoliyatiga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish; muammoni aniqlash uni yechish / jamlash va an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarni tahlil qilishni tashkillashtirish
Ko'rgazmali	Bunday ma'ruzaning olib borilishi ko'rilayotgan materiallarni ochiq holda va qisqa sharhlashga olib kelinadi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> ma'lumot mazmunini ta'limning texnikaviy vositalari yoki audio texnikalar yordamida yoritib berish
Binarli	Bunday ma'ruzani olib borilishi ikki o'qituvchi / 2-maktab vakillari / olim va amaliyotchilar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi suhbatni namoyon qiladi <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotlarni ikki tomon nuqtai nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berish
Oldindan ko'zlangan xatoliklar bilan	O'qituvchi ongli ravishda yo'l qo'ygan mazmunli, metodologik xatolarni: talabalar tomonidan topishga qaratilgan. Ma'ruza yakunida talabalarning tashhisi va qo'yilgan xatoliklari tahlili olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi material mazmunini yoritib berish; talabalarni taklif etilayotgan ma'lumotni doimo nazorat qilishlariga qiziqtirish
Anjuman	O'qituvchi tomonidan tayyorlangan dastur miqyosida, oldindan belgilangan muammo va ma'ruza tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg'ulot olib boriladi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> yangi o'quv ma'lumotini yoritib berish, talabalarni yangi o'quv ma'lumotini izlash va tizimlashtirishga harakat qildirish
Maslahatli	Turli yo'l bilan o'tkazilishi mumkin. 1. "Savol-javob". O'qituvchi ma'ruza davomida butun kurs yoki bo'lim bo'yicha talabalarning savollariga javob beradi. 2. "Savol-javob-munozara". Yangi ma'lumotni nafaqat bayon etadi, balki va qo'yilgan savollarga javob izlab topishni tashkillashtiradi. <i>Pedagogik vazifalar:</i> talabalar bilimini mustahkamlash, rivojlantirish, ularni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish
n...	

2. MA'RUZADA O'QITISH TEXNOLOGIYASINING JARAYONLI TUZILMASI

I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish - o'quv mashg'ulotining mavzusini ifodalash, mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlarni, ushbu mavzu bo'yicha kalitli toifalar va tushunchalarni, o'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlarni ma'lum qilish.

II bosqich. Asosiy, axborotli - ma'ruza mashg'uloti rejasiga qat'iy rioya qilish, o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasiga binoan ta'lim maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning tartibiy harakatlari.

III boskich. Yakuniy – natijaviy - yakuniy xulosalar qilish, ushbu mavzu bo'yicha asosiy o'quv axborotiga ta'lim oluvchilar e'tiborini qaratish. O'zaro baholash va o'zining faoliyati haqida fikr yuritishni tashkillashtirish; bajarilgan ishni kelgusi kasbiy faoliyati uchun ahamiyatligi to'g'risida ma'lum qilish.

3. MA'RUZALARDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

3.1. Kirish ma'ruzasida ta'lim berish texnologiyasi

An'anaviy ta'lim berish tizimida o'quv materialini tuzib chiqishning birligi "mavzu" hisoblanadi. Talaba uchun o'quv materialining haqiqiy birligi bo'lib, o'quv mashg'uloti xizmat qiladi, mavzu esa uni o'rganishning o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadigan faqat nomlanishidir.

Shu bois, talabalar alohida o'quv birliklari o'rtasidagi aloqa va o'zaro aloqani aniq anglamasdan mavzuni o'rganadilar: bu yerda o'quv materialini "bo'laklab-mazuviy" o'rganish xususiyati ko'rinib turibdi.

Hozirgi vaqtda o'quv materialini tuzilmaga solish modul asosida amalga oshirilmoqda. Bu ham talabada birdaniga harakatning to'liq yo'nalishini, ya'ni barcha qismlar (o'quv yoki modul birliklar) o'rtasidagi aloqalarni aniqlash ular tomonidan berilgan o'quv materialini chegarasida BMK izchillikda egallash degani emas.

Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasiga muvofiq, bu muammo o'qitish tuzilmasiga qiziqitiruvchi bosqichni kiritish orqali hal etish mumkin. Uning vazifasi - ta'lim oluvchilarda kutilayotgan o'quv materialini egallash uchun qiziqish (bizning holatda-o'quv fani/kurs) ta'minlash, modomiki harakatning to'liq yo'nalishi o'quv materialini barcha tashkil etuvchilari o'rtasidagi aloqani aniqlashi mumkin.

Oliy maktabda ta'lim fan/kursning qiziqitiruvchi bosqichi kirish ma'ruzasi hisoblanadi. Uning maqsadi-o'quv fani/kursi to'g'risida birinchi umumiy tasavvurni berish va talabalrni ish jarayonida, oldindagi o'quv faoliyati natijalariga va ularni nazorat tizimi va baholashiga yo'naltirish hisoblanadi.

Pedagogik vazifalar quyidagilardan iborat:

- talabalarni fan/kursning ahamiyati, vazifasi va uning o'rni, o'quv fanlar tizimida hamda kasbiy tayyorgarligidagi o'rni bilan tanishtirish;
- tuzilmaga qisqacha sharh berish, fanni va amaliyot rivojlanishini, bunda mashhur olimlarning nomini aytib, bu sohadagi erishilgan yutuqlarni yoritib berish;
- ushbu bilimlar sohasidagi tadqiqot istiqbollari yo'nalishlarini bayon etish;
- fan/kurs doirasida uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini yoritish;
- tavsiya etilayotgan o'quv - uslubiy adabiyotlar tahlilini amalga oshirish;
- hisobot/baholash shakllari va vaqtni aniqlash.

3.2. Mavzuviy ma'ruzalarda ta'lim berish texnologiyasi

Mavzuviy ma'ruzalarda ta'lim berish texnologiyasining variantlari (Talabalarga oldindan ma'ruza matnlari berilgan)

I bosqich.

1.1. Ma'ruza mavzusini e'lon qiladi, (talabalarga tarqatilgan matnda mavjud) asosiy savol, ahamiyatli tushuncha va so'zlarni eslatadi.

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining kutilayotgan o'quv natijalari va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi.

II bosqich.

2.1. *Vazifani eslatadi:* Insert texnikasidan foydalanib, ma'ruza matnini o'qib chiqish. Tanishib chiqish uchun o'rtog'i bilan matn almashishni taklif etadi.

2.2. *Talabalarni erkin bo'lish belgisi bo'yicha guruhlariga bo'ladi.*

1 - variant

- Mavzu bo'yicha "ekspert" bo'lishlarini ma'lum qiladi.
- Ekspert varaqlarini tarqatadi - ularning matnini kodoskop orqali namoyish etadi va sharhlaydi.

- Guruhlarda ish boshlanganini ma'lum qiladi: jamoaviy yoki juftliklarga bo'linib savollarga javob tayyorlaydilar.

- Taqdimot boshlanganligini e'lon qiladi.

Guruh sardori/guruh a'zolari ular tomonidan o'zlashtirgan materialni namoyish etuvchi materiallardan foydalanib bayon qiladilar; boshqa guruh taklifiga qo'shilishlari yoki qo'shilmasliklarini asoslaydilar; savollarga javob beradilar.

O'qituvchi maslahatchi vazifasini bajaradi.

2 - variant

- Xar bir guruh a'zosi mavzu bo'yicha "ekspert" bo'lishlarini va boshqalarni o'qitishlarini ("Ilon izi" texnikasi) ma'lum qiladi.

- Savollar miqdoriga bog'liq holda, o'zlashtiriladigan material bo'yicha, barcha talabalarga ishlashlari kutilayotgan, ekspert guruhi raqamini (1, 2, 3, 4, 5) tarqatadi.

- O'zlarini raqamlariga mos ravishda kichik guruhlariga birlashishlarini aytadi. Guruhlarga ekspert raqamini tarqatadi, ularning matnini kodoskop orqali ekranga chiqaradi va sharhlaydi. Xuddi shunday ish natijalarining baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.

- Guruhlarda ish boshlanganini ma'lum qiladi: jamoaviy yoki juftliklarga bo'linib, o'rganayotgan materialni kamroq grafik/jadval shaklida taqdim etishga harakat qilib, savollarga (bunday holatda natijalar albatta jamoaviy muhokama qilinadi), javob tayyorlaydilar.

- Ekspertlar o'zlarining dastlabki guruhlariga qaytadilar va boshqalarni o'qitadilar.

- O'qituvchi tomonidan taklif etilgan "o'zini tekshirish uchun savollar ro'yxati"ga asoslanib, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi tekshiruvini olib boradi.

O'qituvchi, agar ish 1-variant bo'yicha bajarilgan bo'lsa, har bir guruh taqdimotining yakuni bo'yicha xulosalar qiladi, talabalar diqqatini asosiyga qaratadi. O'quv materialini o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida tezkor-savol beradi.

Agar ish 2-variant bilan bajarilgan bo'lsa, umumlashtiruvchi xulosalar qiladi, talabalar diqqatini asosiyga qaratadi. O'quv materialini o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida tezkor-savol beradi.

III bosqich.

3.1. Xulosa qiladi, talabalar diqqatini asosiyga qaratadi.

3.2. Guruhlarga o'zaro baholashning yakunini ma'lum qilishlarini aytadi natijalarni sharhlaydi. Kelgusidagi kasbiy ish faoliyatlari uchun bajarilgan ishlarning muhimligini ko'rsatib o'tadi.

3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va tushuntiradi.

Mavzuviy ma'ruzada ta'lim berish texnologiyasining variantlari

(Talabalarga oldindan ma'ruza matnlari berilgan)

I bosqich. Ma'ruza mavzusini e'lon qiladi, (talabalarga tarqatilgan matnda mavjud) asosiy savol, ahamiyatli tushuncha va so'zlarni eslatadi. Ma'ruza mashg'ulotining kutilayotgan o'quv natijalari va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi.

II bosqich.

2.1. Tanlagan variantga (oltitadan bittasi) muvofiq harakat qiladi. (Variantni tanlash maqsadni belgilash, vaqt, o'quv axborot mazmuni hajmiga bog'liq):

- *Jalb savol* va topshiriqlar beradi:
 - bilimlarni dolzarblashtirish va qayta takrorlashga (masalan, “Mavzu bo'yicha qanday bilimlarga egasiz?” ... aytib bering, ... bayon eting);
 - diqqatni faollashtirishga (“Siz nima deb o'ylaysiz, ... sizning kelgusi kasbiy ish faoliyatingizda zarur bo'ladimi?”);
 - talabalarni bilganlari bilan va ushbu bosqichda ular o'zlashtirishlari kerak bo'lganlar o'rtasidagi aloqani aniqlash.
- *Muammoli savollar* beradi:
 - ularni yechishni mustaqil izlashlari maqsadi bilan talabalarni qarama-qarshilikka olib keluvchi bir qator savollar;
 - muammoni turli tomondan ko'rib chiqiladigan, savollar;
- *“Ochiq” savollar* beradi (yozuv taxtasida testni yozish/ekranga chiqarish) va “O'ylab ko'rishni/juftliklarga bo'linishni/fikrlar bilan almashishni” taklif etadi.
- Qisqa, bir ma'noga ega javoblar (*“Ha”* va *“Yo'q”*, *“To'g'ri”* va *“Noto'g'ri”*) berishni talab etuvchi, mavzuning muhim jihatlarini yorituvchi bir qator savollarni beradi.
- *“Kutish yo'ldoshi”* texnikasini qo'llaydi.
- *“Aqliy hujum”* usulini qo'llaydi.
- *Grafikli tashkilotchilar:* “B/BX/B” jadvali, Insert jadvali, klasterlar, toifali jadvalni qo'llaydi.

2.2. O'zining xohishiga ko'ra, uni olib borishning xohlagan shaklini tanlab ma'ruza o'qiydi. Bunda u quyidagilardan foydalanilishi mumkin:

- Quyidagi grafikli tashkilotchilarni: muammolar sababini aniqlovchi diagramma; xronologik jadval; klaster; toifali jadval; tuzilmaviy-mantiqiy chizma; T-chizma va boshqalar.
- ta'limni tashkillashtirishning shunday shakllarini, ya'ni ommaviy, jamoaviy yoki guruhlarda juftliklardagi ishlash.

III bosqich.

3.1. Xulosa qiladi, talabalar diqqatini asosiyga qaratadi.

3.2. Agar II bosqichda “Kutish yo'ldoshi” texnikasi qo'llanilgan bo'lsa, unda talabalarga asosiy tushuncha va atamalarni taklif etilgan ma'lumot va uni bayon etish tuzilmasining qo'llanish tartibi bilan ularning bashoratlarini taqqoslashni taklif etadi. Natijalarni sharhlaydi.

3.3. Kelgusidagi kasbiy ish faoliyatlari uchun bajarilgan ishlarning muhimligini ko'rsatib o'tadi.

3.4. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi va sharhlaydi.

3.3. Ma'ruzalarda namunaviy modellar va texnologik xaritalar

MA'LUMOTLI KIRISH - MA'RUZASIDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI MODEL TEXNOLOGIK XARITALAR

Ma'lumotli kirish - ma'ruzasida ta'lim texnologiyasi modeli

<i>Vaqt: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 25 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Ma'lumotli kirish - ma'ruza
<i>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	1. O'quv kursi va mashg'ulot mavzusiga kirish 2. Bilimlarni faollashtirish - aqliy hujum 3. Ma'ruza matnini tarqatish 4. Ma'ruzani power Point tartibida olib borish. 5. Asosiy atamalarni aniqlash-pinbord 6. Yakunlash. Baholash
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi: O'quv fani to'g'risida umumiy tasavvurlarni berish</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - ... fanning ahamiyati va vazifalari, uni o'quv fanlar tizimida tutgan o'rni bilan tanishtirish; - ... o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlash; - ... nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritish; - ... fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlari, muddat va baholash shakllarini ochib berish; - ... tashkillashtirish, ...jarayonning umumiy chizmasini tavsiflash; - ... jarayonni tashkillashtirishning asosiy bosqichlarini ifodalash; - ... jarayonni tushuntirish.	<i>O'quv faoliyat natijalari:</i> - ...fanning ahamiyati va vazifalarini ifodalaydilar; - ... o'quv fani tuzilishini va tavsiya etilayotgan o'quv-uslubiy adabiyotlarni sharhlaydilar; - ... nazariya va amaliyot sohasidagi yutuqlarni yoritadilar; - ... fan miqyosidagi uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini, muddat va baholash shakllarini ochib beradilar; - ... jarayonning umumiy chizmasini tavsiflaydilar; - ... jarayonni tashkillashtirishning asosiy bosqichlarini ifodalaydilar; - ...jarayonni tushuntiradilar.
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, pinbord, aqliy hujum
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, kompyuter, grafikli tashkil etuvchilar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor - so'rov.

Ma'lumotli kirish - ma'ruzasining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (20 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Ekranga fanning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini (№ ilova) chiqaradi, mavzularning o'zaro aloqasini yoritadi, ularga qisqa tavsif beradi, fan miqyosida bajariladigan uslubiy va tashkiliy ishlar xususiyatlarini tushuntiradi. Reyting-nazorat tizimi, joriy, oraliq, va yakuniy nazoratni baholash mezonlari (№ ilova) bilan tanishtiradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.2. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va o'quv faoliyat natijalarini aytadi. 1.3. Aqliy hujum usuli yordamida ushbu mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni aytishni taklif etadi. Aqliy hujum usuli qoidasini (№ ilova) eslatadi. Barcha aytilayotgan takliflarni yozuv taxtasiga yozib boradi. Ushbu ish mashg'ulot yakunida tugatilishini ma'lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Tushunchalarni aytadilar
2-bosqich. Asosiy (50 daq.)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini tarqatadi va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishishni taklif qiladi. 2.2. Slaydlarni Power point tartibida (№ ilova) namoyish va sharhlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy holatlarni bayon qiladi. Jalb qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo'yicha xulosalar qiladi; eng asosiylariga e'tibor qaratadi; berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi. 2.3. Yozuv taxtasida yozilgan tushunchalarga qaytishni taklif etadi. Talabalar bilan birga fanga taalluqli bo'lmagan va qaytariluvchi ma'lumotlarni olib tashlaydi, muhim asosiy tushunchalarni (Pinbord) kiritadi (№ ilova).	O'qiydilar. Tinglaydilar, jadval va chizmalarni daftarga ko'chirib oladilar. Savollar beradilar. Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar. Ma'lumotlarni daftarga qayd qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun yasaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar

MUAMMOLI - MA'RUZADA TA'LIM TEXNOLOGIYASI MODEL VA TEXNOLOGIK XARITALAR

Muammoli - ma'ruzada ta'lim texnologiyasi modeli

<i>Vaqt: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 35-40 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Muammoli ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. 2. 3.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi: ... to'g'risida umumiy tasavvurlarni shakllantirish</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - ... mohiyatini tushuntirish; - ...harakatlanish shartlari turlarini, asoslarini, iqtisodiy o'rni va vazifalarini tavsiflab berish; - ...baholashni asosiy usul va ko'rsatkichlarini ochib berish; - ...iborat bo'lgan, muammoni ifodalash; - ...muammolarni ko'rsatish; - ...muammoni yechish jarayonining izchilligini tushuntirish; - ...muammoni yechish yo'llarini izlash imkonini taqdim etish.	<i>O'quv faoliyat natijalari:</i> - ...mohiyatini tushuntiradilar; - ...harakatlanish shartlari turlarini, asoslarini, iqtisodiy o'rni va vazifalarini tavsiflab beradilar; - ...baholashni asosiy usul va ko'rsatkichlarini ochib beradilar; - ...iborat bo'lgan, muammoni ifodalaydilar; - ...muammolarni ko'rsatadilar; - ...muammoni yechish jarayonining izchilligini tushuntiradilar; - ...muammoni yechish to'g'risida yakuniy xulosalar qiladilar.
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, muammoli usul, aqliy hujum, munozara, birgalikda o'qish, tezkor-so'rov, taqdimot
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy, guruhli
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, kompyuter, ko'rgazmali materiallar, chizmalar, marker, skoch
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Guruhlarda ishlashga mo'ljallangan, maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob, muammoni yechish bo'yicha o'quv topshirig'ini bajarish

Muammoli ma’ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchilar
1-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg’ulot muammoli ma’ruza shaklida borishini ma’lum qiladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (70 daq.)	2.1. Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi (№ ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o’quv muammosini yechish bo’yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlari yetarliligini aniqlaydi. 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg’ulotda yechiladigan muammoga “olib kiradi”, va uni ifodalaydi. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga tahlil qiladi, ularda paydo bo’lgan qiyinchiliklarni aniqlaydi. 2.3. Muammoni yechish yo’llarini izlashni tashkillashtirishga o’tadi: birinchi kichik muammoni ifodalaydi, so’ngra muammoli savollarni berib va ular javoblarini muhokama qilib, talabalarni uni yechish yo’lini izlashga, ya’ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. Shu tarzda keyingi muammolarni yechish yo’llarini izlashni tashkillashtiradi. Mashg’ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar (№ ilova), ko’rgazmali materiallardan (№ ilova) foydalanadi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlariga bo’ladi, taqdimot uchun qog’ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish “Yechimlar daraxti” tasvirlashni, beradi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma’lum qiladi, guruhlar chiqishlarini boshqaradi. Taqdimot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga ko’chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi	Savollarga javob beradilar. Muammoni yechish bo’yicha o’z fikrlarini beradilar. Kichik muammoni yechish bo’yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarda tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Yechimlar daraxti” tasvirleydilar. Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy xulosani beradilar, daftarga yozadilar
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzu bo’yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e’tiborini qaratadi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq (№ ilova) beradi.	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar.

ANJUMAN-MA'RUZADA TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASI MODELI VA TEXNOLOGIK XARITALAR

Anjuman-ma'ruzada ta'lim berish texnologiyasi modeli

<i>Vaqt: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 35-40 ta</i>
<i>O'quv mashg'ulot shakli</i>	Anjuman - ma'ruza
<i>O'quv mashg'ulot rejasi</i>	1. 2. 3.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi: ... to'g'risida bilimlarni shakllantirish.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - ...tushunchalar bilan tanishtirish; - ... tavsifini berish; - ... tushuntirib berish; - ... mazmunini ochib berish.	<i>O'quv faoliyat natijalari:</i> - ... tushunchalarni ta'riflaydilar; - ... tasniflab beradilar; - ... tushuntirib beradilar; - ... mazmunini ochib beradilar.
<i>Ta'lim usullari</i>	Anjuman-ma'ruza, munozara, tezkor-so'rov.
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy, individual.
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruzalar tizimi, ko'rgazmali materiallar (slaydlar), lazerli proyektor, axborotli ta'minot.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga mo'ljallangan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov, nazorat so'rovlari

Anjuman- ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik	Ma'ruza mavzulari (№ ilova), ma'ruzaga tayyorlanish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxatini beradi. Ma'ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchi va opponentlarni aniqlashni tashkillashtiradi. Ma'ruzachilarga tanlagan mavzu bo'yicha referat rejasini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi, olib boruvchi, taqrizchi, ekspertlar vazifasini va ma'ruza qilishga ajratilgan vaqt, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. Barcha talabalarga ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tuzish topshirig'ini beradi. Ma'ruzachilar bilan ma'ruza qilish uslubi va tuzilishini muhokama qiladi, ma'ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi	Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlar ma'ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma'ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma'ruzachilar o'zgartirishlar, to'ldirishlar kiritadilar, referat yozadilar, ko'rgazmali material tayyorlaydilar

1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 daq.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, ko'zlanayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma'lum qiladi. Olib boruvchini tanishtiradi. 1.2. Bilimlarni faollashtirish uchun diqqatni jalb qiluvchi savollar "...?" beradi, tezkor-so'rov o'tkazadi. 1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari (№ ilova), baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (№ ilova).	Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalarni tayyorlagan ma'ruza va ma'lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunini mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi. 2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqish va savollar berishni taklif etadi. 2.3. Ma'ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi: - opponentlarga o'z fikrlarini bildirishlari, qo'shimcha savollar berishni taklif qiladi; - savollar beradi (№ ilova); - ma'ruzaning asosiy mohiyatini aniqlashtiradi; - bilan ishonuvchanlik ruhida suhbatlashadi. 2.4. Har bir ma'ruzani qisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi.	Ma'ruzachi ma'lumot bilan tanishtiradi Taqrizchi ma'ruzaning ijobiy jihatlarini, kuchsiz tomonlarini aytib o'tadi. Opponenlar o'z fikrlarini aytadilar. Savollar beradilar. Munozalarda ishtirok etadilar. Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruza mazmunini muhokama qiladilar, munozara qiladilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. Ma'ruza-anjuman ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, munozaralardagi faolligini baholaydi. Olingan bilimlarni kelajakdagi kasbiy va o'quv faoliyatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi (№ ilova)	Tinglaydilar, aniqlashtiradilar, vazifani yozib oladilar

11-Seminarda ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari

Reja

1. Seminar - OO'Yuda ta'limni tashkil etish shakli.
2. Seminar mashg'ulotlarida ta'lim berish texnologiyasini loyihalash va rejalashtirish.

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Seminar, seminar turlari, boshqarish, samaradorlikni baholash, savol - javob texnikasi.

III. Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar i pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
2. Axunova G.N. Obrazovatel'naya texnologiya po kursu "Marketing v sfere obrazovaniya"/ Iz serii "Texnologii obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii".- T.: TGEU, 2005.
3. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax:Uchebnoye posobiye // Pod obsh. red. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
4. Djenni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ. Obucheniye soobsh: chteniye i pismo dlya razvitiya kriticheskogo myshleniya. - Bishkek: Fond Sorosa: 1999.
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 2004.
6. Metody effektivnogo obucheniya vzroslyx: Uchebno-metodicheskoye posobiye. - M.: IPK gosslojuxix, 1998.
7. Farberman B.L., Musina R.G. i dr. Instrumenty razvitiya kriticheskogo myshleniya. - T.: Minvuz, 2002.
8. Shadmonov Sh.Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoye masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii: Metodicheskoye posobiye. - T.: Sentr "Yangi asr avlodi", 2004.

IV. O'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun? seminar TT qismi hisoblanishini tushuntiring.
2. Seminar, o'quv mashg'ulotini tashkillashtirish shakliga asoslangan tavsif bering.
3. Asosiy seminar turlarini ayting.
4. Har bir seminar qanday xususiyatlarga ega?
5. O'qituvchi tomonidan seminarini boshqarishni tanlashi qanday omillarni aniqlaydi? U yo'l nimada namoyon bo'ladi?
6. Seminar samaradorligini baholashda qanday mezonlarga amal qilish kerak?
7. O'qituvchi seminarida bajaradigan vazifa va uni amalga oshirish vositasini ayting.
8. Ta'lim berishning savol-javob texnikasi nimada namoyon bo'lishini aytib bering.
9. Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasini ishlab chiqing va asoslab bering.

1. SEMINAR - OUYU TA'LIMNI TASHKILLASHTIRISH SHAKLI

Seminar - ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshrish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shakli

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- nazariy materialni tartibga solish;
- ko'nikmalarni hosil qilish;
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta'lim beruvchi seminarini samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi;
- o'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- o'quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Seminar shaklidagi mashg'ulotga o'tish o'zaro harakatni eshittirish (translyasiya) sxemasidan muloqotga o'tishni, monologdan dialogga o'tishni anglatadi.

Tayyorgarlik va seminarini olib borish bir qator savollarga javob berishni talab etadi:

1. *Nima uchun?* - Vazifa va seminarini olib borish umumiy qilib olganda ta'lim berish maqsadlariga mos bo'lishi kerak.

2. Seminar shaklida olib borish texnologiyasini *Qanday qilib?* - ishlab chiqish kerak

3. Seminar vaqtida muhokama qilish kerak bo'lgan, material mazmunida - *Nimani?* ishlab chiqish zarur.

4. Seminarini olib borish vaqtida, ya'ni hisobga olish muhim bo'lgan omillar- *Nimani hisobga olgan holda?* yelgilanishi zarur.

5. Seminarini boshqarish uchun uning samaradorligini ta'minlash maqsadida undan foydalanish mumkin bo'lgan, ta'sir etish vositasini- *Qanday yo'l bilan?* aniqlash mumkin.


O'quv dasturining maqsad va qo'llanish sohalariga muvofiq asosiy **uch turdagi seminarlarni** ajratib ko'rsatish mumkin:

1) ta'limiy - asosan quyidagilarga yo'naltirilgan bo'ladi:


- nazariy bilimlarni tartibga solish, faollashtirish yoki ularni mustaqil rivojlantirishga;
- o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga.

2) rivojlantiruvchi - ta'lim oluvchilarda muammoli ko'rish, tahliliy qobiliyatlar hamda bashorat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.


1.1. Seminar mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari



1.2. Seminarni pedagogik boshqarish, uning samaradorligini baholash



1.3. Seminar mashg'uloti samaradorligini baholash



2. SEMINAR MASHG'ULOTLARIDA TA'LIM BERISHTEXNOLOGIYASINI LOYIHALASHTIRISHVA REJALASHTIRISH

2.1. Bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish bo'yicha ta'lim texnologiyasi


Bunday seminarlarni o'tkazishning asosiy yo'li ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruza va ma'lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkillashtirishdan iborat bo'ladi.

Bunday **seminarlar samaradorligi** ta'lim oluvchilarni seminarga tayyorlanish sifati bilan aniqlanadi. Ma'ruza va yangiliklar bilan chiquvchi, ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi ahamiyatga ega bo'ladi.

1. Tayyorgarlik bosqichi

F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Oldindagi seminar uchun ma'ruza/yangiliklar mavzular ro'yxatini taklif etadi. O'quv fanini bundan keyin o'zlashtirishda, zamonaviy ijtimoiy/iqtisodiy va boshqa kelgusidagi kasbiy faoliyatlaridagi muammolarda to'liq yo'nalish olishda ularning muhimligini tushuntiradi. Seminarga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxatini taviya etadi. Mavzular tanlashni tashkillashtiradi. Tanlangan mavzu bo'yicha referatning batafsil rejasini tuzib chiqish vazifasini beradi. Faqat ma'ruza qilayotgan talabalar tayyorgarligini ta'minlab qolmay, balki barcha seminar ishtirokchilariga: seminar mashg'uloti mavzusiga bog'liq bo'lgan ma'ruza mazmuni va qo'shimcha materiallarni o'rganish vazifasini beradi, o'zlashtirilgan bilimlar va belgilangan mavzular muhokamasini nazorat qilishga tayyor bo'lishlarini aytadi.	Seminarga tayyorlanadilar. Ma'ruza/yangiliklar mavzusini tanlaganlar referat rejasini tuzadilar
Referat rejasini muhokama qiladilar	
	Tezlikda boshlang'ich g'oyaga o'zgartirish, aniqliklar, to'ldirishlarni kiritadi. Referat yozadilar.
Tayyorlangan referat mazmuni bilan tanishadi. Zarur holatda talabalar referatni to'ldirishlari uchun savollar, shuningdek ma'ruza qilayotganda javob berishlari uchun savollar ham beradi	
Seminarda ma'ruza qilishning tuzilishi va usulini muhokama qiladi	

2. Amalga oshiruvchi bosqich: seminar



F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1. Seminarga kirish. 1.1. Mavzu muhokamasini eslatadi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini, ma'ruza material bilan bog'liqligini asoslaydi. 1.2. Ta'lim oluvchilarni materialga mos ravishda: (1) avvaldan tayyorlangan savollar bo'yicha, mazmunli aniq javoblarni nazarda tutuvchi, suhbatli shaklda, (2) matnni to'g'rilovchi nazorat yordamida bilimlarni <i>faollashtiradi</i>. Bilimlarni faollashtirish jarayonida seminar keyingi ma'ruzalarni tushunishlari uchun talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning yetarliligini va ularni muhokamadagi ishtiroklarini aniqlaydi. Bilimlar yetarlicha to'liq bo'lmaganida zarur bo'lgan bilimlarni ularni shaxsiy bayon etish/talabalar bilan suhbat shaklida o'zlashtirish/aniqlashtirish/o'zgartirish-larni (ikkinchi variant samaraliroq hisoblanadi) tashkillashtiradi.	Savollarga javob beradilar, savollar beradilar
2. Asosiy qism. 2.1. Talabalarni tayyorlagan ma'ruza va yangiliklari taqdimotini tashkillashtiradi. Ma'ruza jaryonida o'quv materialini mantiqiy yoritib berishini, uni bayon etish yo'li, tinglovchilarning ta'sirlanishini diqqat bilan kuzatadi. Ma'ruza yoki yangiliklar mazmuni tinglovchilarni qiziqitirmay qo'ygan holda, yoki aksincha, ma'ruza vaqtida ko'tarilgan savol yuqori qiziqishni uyg'otsa, ma'ruzachini ma'lum vaqtgacha xushmuomalalik bilan to'xtadi va seminarini jamoaviy muhokama yo'liga o'tkazadi. 2.2. Ma'ruza mazmunining jamoaviy muhokamasini tashkillashtiradi. (Bu seminarining eng ahamiyatli qismi bo'lgani sababli, talabalar faol bilish faoliyatiga jalb qilinadilar). Bunda bu mazmun: seminar ishtirokchilarini ma'ruzachiga bergan savollar mazmuni bo'yicha va o'qituvchini talabalarga bergan savollariga (odatda, agarda ularning o'zlari savollar bermaganlarida yoki ularning savollari mavzu mazmunini alohida tomonlariga taalluqli bo'lsa, talabalarga savollarni tavsiya etadi) javoblari bo'yicha talabalarga qay darajada tushunarli bo'lganini baholash. <i>Seminarini sekin-asta tashkillashtirilgan munozara shakliga o'tkazadi.</i> Har bir ma'ruza muhokamasini qisqa umumlashtirish, ma'ruzaning asosiy holatlari va muhokama (munozara) natijalarini qayd etish bilan tugatadi	Talabalarni tayyorlagan ma'ruza va yangiliklari taqdimoti. Ma'ruza mazmunini jamoaviy muhokama qiladilar, bahslashadilar

Ma'ruza mazmuni bo'yicha savollarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- mazmunni aniqlashtirishga yo'naltirilgan, savollar: ma'ruzani ayrim bayonini takrorlash talab etiladi;
- mazmunni kelgusi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan, savollar: ma'ruzani to'ldirishni talab etadi.

O'qituvchi avvalo 1-guruhdagi savollar muhokamasini, so'ngra jamoaviy 2-guruh savollariga javoblarni topishni tashkillashtiradi.

Seminarda munozarani tashkillashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- seminar jarayonida berilgan savollarga erkin fikr aytishlari va talabalar tomonidan o'zlarining javoblarni asoslab berishlarini ta'minlash;
- boshqa talabalar tomonidan mos javoblarning tushunishni ta'minlash;
- aniqlik kiritish, to'ldirish, o'zgartirishlarni tushunishni ta'minlash;
- berilgan savollarga tasdiqlovchi javoblar berishni tashkillashtirish.

3. Yakuniy bosqich

F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Seminarni yakunlash: Seminar mashg'uloti mavzusi mazmuni bo'yicha yakun yasaydi: • berilgan savollarni muhokama qilishda javoblardan iborat bo'lgan xulosalarni ifodalaydi; • javobni izlash kelgusi seminarlarda yoki talabalarni mustaqil ish jarayonida tashkillashtiriladigan muammoni aytadi; • seminar ma'ruzachi va ishtirokchilari tayyorgarligini, ularni munozara vaqtidagi faolligini baholaydi; • seminar natijaviyligining umumiy bahosini beradi; • keyingi seminar mashg'ulot maqsadlarini aniqlaydi.	Savollar beradilar, baholar bilan tanishadilar, muammo bilan tanishadilar

2.2. Muammoli turdagi seminarda ta'lim texnologiyasi

Seminar mashg'uloti mavzusi tez yechimga ega bo'lmagan, muammo shaklida talabalarga taqdim etiladi.


Muammoli savollar tizimini ishlab chiqish talabalarni puxta o'ylagan va imkonli javoblarini hisobga olishni nazarda tutadi. Yaxshi loyihalangan texnologiyada ham, seminar vaqtida dastlabki rejadani, talabalarining alohida xususiyatlari ulardagi o'zaro bog'langan bilimlarning daraja va hajmi turlichaligi sababli, chetga chiqishlar bo'lishi mumkin.

1. Tayyorgarlik bosqich



F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1. Muammoni ifodalaydi. 2. Yakuniy xulosa - muammoni eng muvofiq yechimi yakunini ifodalaydi. 3. Muammoning to'liq yechimini ta'minlaydigan, kichik muammolarni ifodalaydi. 4. Bunda to'g'ri javoblar muammoning yechimini ta'minlaydigan muammoli savollarni ifodalaydi. 5. Muammoni yechishda ishtirok etishi uchun muhim bo'lgan talabalar bilimini faollashtirish uchun savol va topshiriqlar ro'yxatini tuzadi. 6. Talabalarining bilimlarini faollashtirish asosida ularni muammoga "olib kirish" yo'llari va vositalarini aniqlaydi	

2. Amalga oshiruvchi bosqich: seminar



F a o l i y a t	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1. Seminarga kirish. 1.1. Mavzu muhokamasini eslatadi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini, ma'ruza material bilan bog'liqligini asoslaydi. 1.2. Ta'lim oluvchilarni materialga mos ravishda: (1) avvaldan tayyorlangan savollar bo'yicha, mazmunli aniq javoblarni nazarda tutuvchi, suhbatli shaklda, (2) matnni to'g'rilovchi nazorat yordamida bilimlarni <i>faollashtiradi</i>. Bilimlarni faollashtirish jarayonida seminarda keyingi ma'ruzalarni tushunishlari uchun talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning yetarliligini va ularni muhokamadagi ishtiroklarini aniqlaydi. Bilimlar yetarlicha to'liq bo'lmaganida zarur	Savollarga javob beradilar

bo'lgan bilimlarni ularni shaxsiy bayon etish/talabalar bilan suhbat shaklida o'zlashtirish/aniqlashtirish/o'zgartirishlarni (ikkinchi variant samaraliroq hisoblanadi) tashkillashtiradi	
2. Asosiy qism 2.1. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda hal etiladigan muammoga, "olib kiradi" va uni ifodalaydi. 2.2. Muammoni yechishni boshlashdan avval, talabalar belgilangan muammoni qabul qila olishlarini ta'minlash maqsadida, uni dastlabki yechib ko'rishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birgalikda tavsiya etilayotgan yechimlarni muhokama qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va tahlil qiladi. 2.3. Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi: birinchi muammoni ifodalaydi, so'ngra muammoli savollar orqali va ularga berilgan javoblarni muhokama qilib talabalarni uni yechish yo'llariga, ya'ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. Shu tartibda keyingi kichik muammolarni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtiradi. 2.4. Yakuniy xulosani ifodalaydi	Tinglaydilar. Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini aytadilar. Muammolarni "yuzaki" yechish mumkinmasligini anglab yetadilar. Kichik muammolarni yechish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, muammoni eng maqbul yechish yo'li bo'yicha xulosalar qiladi

3. Yakuniy bosqich



Faoliyat	
ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
3.Seminarni yakunlash. Seminar mashg'uloti mavzusi mazmuni bo'yicha yakun yasaydi: 3.1. Talabalar tomonidan bajarilgan, ish natijalarini baholaydi. 3.2. Seminar ishtirokchilari tayyorgarligi, ularni munozara vaqtidagi faolligini baholaydi. 3.3. Seminar natijaviyligining umumiy bahosini beradi. 3.4. Keyingi seminar mashg'ulot maqsadlarini aniqlaydi	Savollar beradilar

Muammoli savolga javob izlashni tashkillashtirish izchilligi:

- muammoli savolning berilishi;
- berilgan savolga javoblarni izlash va asoslash bo'yicha talabalarning fikrlash harakatlarini tashkillashtirish;
- javoblarning tanqidiy tahlil qilish, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashni tashkillashtirish;
- mos keluvchi tomonlarni ishlab chiqish - eng to'g'ri javoblarni tuzib chiqish maqsadida o'zlari o'rtasida javoblarni taqqoslashni tashkillashtirish;
- keyingi muammoli savolni berishga o'tish.

2.3. Muammoli seminarda ta'lim berish texnologiyasi modeli va texnologik xarita

Muammoli seminarda ta'lim berish texnologiyasi modeli

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 15-30 ta
O'quv mashg'ulot shakli	Muammoli seminar
O'quv mashg'ulot rejasi	1. 2. 3.
O'quv mashg'ulot maqsadi: ...bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, ... to'g'risida muammoli vazifalarni yechish malakalarini rivojlantirish	

<i>Pedagogik vazifalar:</i> -...to'g'risida ma'lumotlarni tizimlashtirishni o'rgatish; -...bo'yicha muammoli vazifalarni yechishni, tahlil qilishni o'rgatish; -...imkoniyatlarni ilgari surish, ularni baholash, yakuniy xulosalar qilishni o'rgatish.	<i>O'quv faoliyat natijalari:</i> -... ma'lumotlarni tizimga soladilar; -...bo'yicha muammoli vazifalarni yechadilar, tahlil qiladilar; -...imkoniyatlarni ilgari suradilar, ularni baholaydilar, yakuniy xulosalar qiladilar.
<i>Ta'lim usullari</i>	Muammoli usul, suhbat, munozara, aqliy hujum
<i>Ta'limni tashkillashtirish shakli</i>	Ommaviy, jamoaviy, guruhli.
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, markerlar, skoch, o'quv materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov

Muammoli seminarning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (15 daq.)	1.1.Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot muammoli seminar shaklida borishini ma'lum qiladi. 1.2.Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi (№ ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlarini yetarliligini aniqlaydi	Tinglaydilar, yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (55 daq.)	2.1. Talabalarga muammoli topshiriqni o'qib beradi (№ ilova). 2.2. Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi: birinchi kichik muammoni ifodalaydi, so'ngra muammoli savollarni berib va ular javoblarini muhokama qilib, talabalarni uni yechish yo'lini izlashga, ya'ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. Shu tarzda keyingi muammolarni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtiradi. 2.3. Talabalarni kichik 3 guruhlariga bo'ladi, muammoli topshiriqni yechish vazifasini beradi. O'quv materiallari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini tarqatadi (№№ ilova). Taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, aqliy hujum qoidasini eslatadi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi. 2.4. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlar chiqishlarini boshqaradi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'g'ri yechimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'liqligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.5. Taqdimot yakunlaydi, muammoni yechishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni ko'rsatadi	Savollarga javob beradilar. Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar. Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy xulosani beradilar. Tinglaydilar
3 bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq (№ ilova) beradi	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

12-TA'LIM VOSITALARI TA'LIM – TEXNOLOGIYASINING TARKIBI

Reja

1. Ta'lim vositalari: tushuncha va mazmuni.
2. Grafikli organayzerlar texnikasi.

II. Asosiy tushuncha va atamalar

Ta'lim vositalari, ta'limning texnik vositalari (TTV), yordamchi ta'limiy vositalar (YoTV), o'quv-uslubiy materiallar (O'UM), Insert jadvali, klaster, toifalash va konseptual jadvallar, B/BX/B jadvali, Venna diagrammasi, SWOT - tahlil jadvali, "Nima uchun?", "Baliq skleti", "Kaskad", "Piramida", "Nilufar guli" sxemasi, "Qanday?" diagrammasi.

III. Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Djenni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ/ Obucheniye soobuqa: chteniye i pismo dlya razvitiya kriticheskogo myshleniya. Uchebnaya programma.-// Bishkek: Fond Sorosa 1999.
2. Gulyamov S.S. i dr. Distansionnoye ekonomicheskoye obrazovaniye. – T.: Shark, 2004.
3. Metody effektivnogo obucheniya vzroslyx. Uchebno-metodicheskoye posobiye. - M.: IPK gosslujamix, 1998.
4. Podlasyy I.P. Pedagogika. Novyy kurs: Uchebnik. V 2 kn. Kn.1: Obshchiye osnovy. Prosess obucheniya. – M.: VLADOS, 1999.
5. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. -T.: RTM, 2000. - 46 b.
6. Farberman B.L., Musina R.G. i dr. Instrumenty razvitiya kriticheskogo myshleniya. - T.: Minvuz, 2002.

IV. O'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. "Ta'lim vositalari" tushunchasini asoslang. Uning ta'lim berish texnologiyasidagi o'rnini tushuntiring.
2. Ta'lim berishning texnik vositalari, yordamchi ta'lim vositalar, o'quv-uslubiy materiallar nima uchun zarurligini tushuntiring.
3. Ta'lim vositalarini tanlash nimaga bog'liq ekanligini tushuntiring.
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o'zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi. Keys bo'yicha o'zining javobini havola qiladi (ilova)	Guruhlar taqdimot qiladilar Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

Keys ishlab chiqish va uni amalga oshirish qoidasi



Amaliy vaziyatni tahlil qilishning yo'naltiruvchi chizmasi



TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATLARINI PEDAGOGIK BOSHQARISH

I. Reja

1. Talabalarining mustaqil faoliyatlarini pedagogik boshqarishning mohiyati.
2. Umumo'quv ko'nikma va malakalarga ega bo'lish - talabalarining mustaqil faoliyatlari asosi.
3. O'quv fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua (O'UM).

II. Asosiy toifa va tushunchalar:

Mustaqil faoliyat, umumo'quv ko'nikma va malakalar, o'quv-uslubiy majmua, reja-topshiriq, erishilgan yutuqlarni baholashni jamllovchi varaq.

III. Mavzuni va alohida savollarini o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. - T.: TGPU, 2003.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004.
3. Pidkasisty P.I. Organizatsiya uchebno-poznavatelnoy deyatelnosti studentov. – M.: Pedagogicheskoye obshchestvo Rossii, 2005.
4. Farberman B.L., Musina R.G. i dr. Instrumenty razvitiya kriticheskogo myshleniya. T.: Minvuz, 2002.
5. Xodiyev B.Yu, Golish L.V. Sposoby i sredstva organizatsii samostoyatelnoy uchebnoy deyatelnosti studentov: Uchebno-metodicheskoye posobiye dlya studentov. – T.: TGEU, 2006.

IV. O'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Talabalarining mustaqil faoliyatlari mazmuni nimadan iborat?
2. Talabalar egallashi lozim bo'lgan asosiy umumo'quv ko'nikma va malakalarini ayting, ular mazmunini yoritib.
3. Talabaning o'quv-uslubiy majmuasini tarkibiy qismlari va mazmunli ko'rsatkichlarini ayting.
4. Sizning fikringizcha o'quv-uslubiy majmuasini ahamiyati nimadan iborat? Javobingizni asoslang.
5. Reja-topshiriq modelini chizma ko'rinishida tasvirlab bering va uning mazmunli ko'rsatkichlarini yoritib bering.
6. O'quv mashg'ulotiga reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqing.

TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATLARINI PEDAGOGIK BOSHQARISHNING MOHIYATI

Talabalarning o'quv faoliyatlari sifati va jadallashuvi ta'lim berish sifatini, balki shunga mos ravishda, mutaxassislar tayyorlash natijalarini ham aniqlab beradi.

Modomiki talaba ta'lim tizimiga subyekt sifatida kirsa, unda boshidan uning qobiliyati mustaqil, ongli va maqsadli harakat qilishini nazarda tutadi:

- o'zining harakatini rejalashtirish - o'z maqsadini tanlash, ularga erishishning yo'l va vositalarini aniqlash;
- berilgan topshiriqlarni yechish uchun o'z imkoniyatlarini birlashtirish-tashkillashtirish;
- o'z faoliyatini nazorat qilishi va mos ravishda baholash- o'zining keyingi harakatlarini o'zi nazorat qilishi va o'zini o'zi baholashni amalga oshirish.

Talaba tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko'rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli

- rejalashtirish;
- tashkillashtirish;
- monitoring va baholash;

Shundan so'ng o'qituvchi tomonidan quyidagi qoidalar amalga oshiriladi:

- talaba nafaqat o'quv mashg'ulotining maqsadini, balki uning yakunida taxminan qanday o'quv natijalarga erishish mumkinligini ham bilishi zarur;
- o'quv natijalariga erishish yo'llari ko'rsatilganda - berilgan ishga ma'lum bo'lgan usul yoki texnikani o'rganish va qo'llashni yoki ishlar tartibi bo'yicha batafsil yo'riqnoma yoki ko'rsatmani aytib berish mumkin;
- talaba nazoratning shakli va turi: yozma-esse, hisobot, referat va boshqalar, og'zaki-taqdimot, savollarga javob berish va boshqalar, shuningdek har bir o'quv topshirig'ini baholashni sifat va miqdoriy mezonlari bilan tanishtirilgan bo'lishi zarur;
- o'zini o'z tekshirish uchun har bir o'quv mashg'ulotiga tavsiya etilayotgan topshiriq (test, savol, vazifa va mashqlar) joriy pedagogik nazoratni va talaba tomonidan ko'zlanayotgan ta'limiy maqsadlarga erishish darajasini doimiy o'zi baholashni ta'minlaydi;
- "O'quv fani bo'yicha talabani o'quv natijalarining yutuqlar varag'i" ishlab chiqish. U talaba tomonidan reyting ballarning to'planishi to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olishning vositasi hisoblanadi.

2. UMUMO'QUV KO'NIKMA VA MALAKALARGA EGA BO'LISH - TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATLARINING ASOSI

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish sharoitida talaba quyidagi umumo'quv (har qanday o'quv fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan) ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kerak:

1) ma'lumot bilan mustaqil ishlash: asosiy holatlarni aniq, chizmaaviy va izchillikda konspekt ko'rinishida qayd etish; o'quv topshiriq va vazifalarni yechish uchun zarur bo'lgan axborotlarni topishi, tanishi, tushunishi, tanqidiy baholashi, uni yig'ish va referat, hisobot, belgilarda, shuningdek grafikli tashkil etuvchilar ko'rinishida taqdim etish; berilgan talablarga muvofiqlikda o'zining shaxsiy ilmiy matnini (maqola, ma'ruza, tezis) yaratish;

2) taqdim etish malakalari: o'quv topshirig'ini bajarish natijalari bo'yicha so'zlayotganda o'zini dadil tutishi, turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishi;

3) o'qituvchi bilan talabani o'quv o'zaro harakatini tashabbuslash, o'z nuqtai nazarini himoya qilish va murosa yo'lini topish, suhbatga kirishish, haqiqat bo'yicha savollar berish, daliliy javoblar berish, munozara qoidalariga rioya etib uni olib borish, tortishuvlarda ishtirok etishning muloqotlashuv malakalari;

4) guruhli o'zaro harakatga tayyorligi va qobiliyatida – o'quv topshirig'ini bajarish

bo'yicha hamkorlik faoliyatini jamoaviy rejalashda, umumiy vazifani yechishda hamkoriyl muloqot va o'zaro harakat, o'zaro yordam va o'zaro baholashda namoyon bo'ladigan hamkorlikda ishlash malakalari;

5) muammoli ma'ruzada faol ishtirok etishni va ta'limiy vaziyatlarni (Keys-stadi) va boshqalarni yechishni ta'minlovchi muammoli vazifalarni tahlil qilish, o'quv topshirig'ini yechishning oddiy bo'lmagan yo'llarini topish, g'oyalarni ishlab chiqish va xulosalarni qabul qilish malakalari;

6) axborot izlash, yig'ish, qayta ishlash va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini qo'llashning amaliy malakalari.

Biroq bularga talabani o'rgatish kerak!

Mustaqil ish mavzulari va uni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar

Samarqand —2017

Pedagogik texnologiyaning mohiyati

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3- ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Chunki mamalakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy -siyosiy mavqei kundan-kun ortib bormoqda. Lekin ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta'lim - tarbiyada umumiy taraqqiyotdan orqada qolish hollari sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bilan bunday holga barham berish mumkin.

Pedagogika fani va amaliyotida keyingi paytlarda keng qo'llanilayotgan "pedagogik texnologiya" atamasi inglizcha "an educational technogu" so'zidan olingan bo'lib, "ta'lim texnologiyasi" degan ma'noni bildiradi. "**Texnologiya**" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan -texnos- san'at, hunar va logos- fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

O'qitish texnologiyasi- birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli- harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operatsiya)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli- bayonli aspektini ifodalaydi.

Ta'lim texnologiyasi- pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflar

Rus olimi **V.P. Bespalko** "...pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning loyihasidir",- deyish bilan , quyidagi ta'rifni beradi: "Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir" Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- PT o'quvchi (talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;
- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;
- yakuniy natija albatta kafolatlanadi.

Nufuzli **YuNESKO** tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo'yicha: "Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir"

O'zbekistonlik olim **N.Sayidaxmedov** fikricha: "Pedagogik texnologiya- bu

o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir".

Pedagog olimlarimizdan biri **M.Ochilov** pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: "Pedagogik texnologiya- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir".

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya- ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob'ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi.

O'quv maqsadlari va vazifalarini loyihalash.

Ta'limni qanday qilib kafolatlangan natijaga olib keluvchi o'ziga xos texnologik jarayonga aylantirish mumkin? Qanday qilsa oddiy pedagog o'qitishda yuqori samaraga erisha oladi?

PT ning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

PT ni tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, PT ning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining hatti-harakati orqali o'qitishdir.

Pedagog o'z oldiga o'quvchilar materialning mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni egallab amaliyotda qo'llashga o'rgansin, degan maqsadni qo'yadi.

Lekin o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadi? Pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiy ko'rinishda oladi. Maqsadlarni aniqlashtirishning o'ziga xos pillapoyasini tuzish mumkin: jamiyatning umumiy talablaridan ta'lim tizimi vazifalariga, ulardan ma'lum o'quv yurti, o'quv predmeti, uning tematik bulimlari va alohida o'quv masalalariga.

Ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. Pedagogik adabiyotlarda vazifalar ba'zan «identifikatsiyalashgan (taqqoslanadigan) pedagogik maqsadlar deb ataladi»¹.

Vazifalarni yanada aniqlash maqsadida quyidagi qadamlarni qo'llash mumkin:

- har bir vazifalar guruhini «Dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim» deb boshlash;
- har bir vazifani raqamlash;
- har bir vazifani quyidagi fe'llardan boshlash: sanab o'ting, eslang, so'zlab bering, ko'rsatib bering, tanlang, hisoblang va boshqalar.
- har bir vazifani talaba so'zi bilan qo'yish;
- har bir vazifa faqat bitta natijani ko'zlasin;
- har bir vazifa «talabani keyinchalik o'zini qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin»;
- vazifalarni shunday yozish kerakki, uning ishlatilishini mezonlash va qanday qilib maqsadga erishilganligini aniqlash mumkin bo'lsin;

Vazifalar o'quv savollarini, mavzularni, bo'limlarni, butun fanni, nimalarni baholash kerakligini (og'zaki, yozma, test usulida) aniqlab beradi.

B.Blum taksonomiyasini («Taksonomiya» tushunchachi narsalarning tabiiy bog'liqligi va xususiyatlariga ko'ra ko'p bosqichli (ierarxik) tuzilishi asosida tavsiflash va tizimlashtirishni anglatadi) qo'llab, umumiy o'quv maqsadlarini shakllantirish mumkin. Ushbu taksonomiya bo'yicha o'quv maqsadlari kategoriyasiga mos keladigan fe'llar ro'yxati keltirilgan.

Bilish	Esga tushirish	Tasvirlash
Tushunish	Eslab qolish	Farqlash
Foydalanish	Axborot berish	Tanlab olish
Tahlil qilish	Aytish	Aytib berish
Sintez	Yozish	Takrorlash
Baholash	Dalillash	Ko'chirish
	Almashtirish	Qayta ishlash
	Muayyanlashtirish	Namoyish etish
	Belgilash	Izohlash
	Tushuntirish	Ochib berish
	Tadbiq qilish	Aniqlash
	Xisoblab chikish	Amalga oshirish
	Namoyish etish	Hisoblash
	Foydalanish	Amalga oshirish
	O'qitish	Yechish
	Keltirib chiqarish	Oldindan ko'rish
	Ajratib chiqish	Saralash
	Umumlashtirish	Bo'lib chiqish
	Turlash	Tekshirib ko'rish
	Faraz qilish	Guruhlash
	Kashf qilish	Tizimlash
	Umumlashtirish	Birlashtirish
	Birlashtirish	Barpo etish
	Rejalashtirish	Tuzish
	Ishlab chiqish	Loyihalash
	Tashhislash	Baholash

Isbotlash
Ulchash
Asoslash
Qo'llab quvvatlash

Tekshirish
Nazoart qilish
Taqqoslash
Solishtirish²

Pedagogik texnologiya asosidagi muayyan darsning loyihasini tuzish ketma-ketligi quyidagicha tavsiya qilinadi:

- o'quv predmetining ishchi dasturiga asosan o'qituvchining o'quv va tarbiya maqsadlarini shakllantirish; tayanch o'quv savollarini bloklarga ajratish (2 soatlik darsga 2-5ta);
- har bir o'quv savoli bo'yicha o'quvchilarning vazifalarini shakllantirish, unda quyidagilar ifodalanadi: 1) O'quvchi maqsadga erishgandan so'ng qiladigan hatti-harakati bilan tasvirlanuvchi fe'li orqali o'xshash o'quv maqsadi shaklida yoki 2) B.Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarining asosiy tushunchalari (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, majmualash, baholash) shaklida;
- har bir vazifa bo'yicha shug'ullanish va mashqlar uchun o'quv materiallarini mustahkamlashni ta'minlovchi vazifalar (savollar, masalalar, test topshiriqlari) tuzish (odatda baholanmaydi);
- har bir tayanch o'quv mavzusi bo'yicha tarkibida og'zaki, yozma test savollari bo'lgan yakuniy nazorat topshiriqlari majmuini tuzish, ushbu majmua mavzularini mahsulдор va namoyish darajasida o'zlashtirilganligini baholay olish zarur;
- ko'zlangan maqsadga kafolatli erishuvni ta'minlovchi ishchi dasturini, o'qituvchi va o'quvchi maqsadi hamda nazorat savollariga mos ravishda dars mazmunini ishlab chiqish;
- o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining uzviyligini ta'minlagan holda darsning borishini loyihalash (asosiy joylarini).

Interfaol usullar

Sinkveyn usuli. Sinkveyn- fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi. Sinkveyn- ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- 1- qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- 1- qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 2- qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi.(3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).
- 3- qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.(4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).
- 4- qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi). Misol:

Shaxs

Serg'ayrat va baxtiyor.
Izlanadi, fikr yuritadi, komillikka intiladi.
Naqadar buyuk va murakkab mavjudot.
Inson.

Klaster usuli Klasterlarga ajratish- o'quvchilarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va

ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi g'ujm, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Klasterlar tuzishdan yangi mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofikdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

- 5- Katta varog` qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
- 6- Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
- 7- Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;
- 8- Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
- 9- Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Insert usuli. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

- - bilganlarimga zid keladi

? - meni o'ylantirib qo'ydi.

Ikki qismlik kundalik usulidan ham matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o'quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o'qib chiqilgach, daftar varag'i quyidagi tarzda ikki qismga bo'linadi:

PARChA	ShARH

Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o'quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o'ylantirib qo'ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo'shilmaslar. Balki bu narsa o'quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir.

Varaqning «Sharh» deb yozilgan o'ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o'ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug'ilganligi haqida sharh beriladi.

Aqliy hujum (Breynstorming). **Aqliy hujum-** g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Bu metodning mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt o'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

«Aqliy hujum»dan maqsadli foydalanish o'quvchilarning ijodiy va nostandart

tafakkurlashini rivojlantiradi. Usulni qo'llash uchun dastlab yig'ilgan guruh odiga muammo quyiladi. Bu muammoni yechimiga oid munozarada barcha o'kuvchilar ishtirok etadilar va o'z fikrlarini bildiradilar. Bunda bahslashuvchilarga miyaga qannday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa» aytish imkoniyati beriladi. Dastlabki bosqichda hech kimni o'zga kishi g'oyalari «hujum» qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. «Aqliy hujum yo'li bilan qisqa daqiqalarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi

«Aqliy hujum»ning qoidalari:

1. Fikr va g'oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;
2. Bildirilgan fikr va g'oyalar takliflar berish to'xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;
3. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi;
4. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi;
5. Fantastik, qo'qqisdan miyada paydo bo'lgan fikrlar ham muhim;
6. Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ular muallifsizdir;
7. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin;
8. Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;
9. Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.
10. Fikr yoki g'oyalarning ma'qulini tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali. Innovatsion usullardan biri bu **B-B-B** (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali bilan ishlashdir. «B-B-B- (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) usuli mashg'ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi».

Venn diagrammasi. Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko'p doiralarda ko'riladi, ular o'rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko'rsatishi kerak. Masalan, o'quvchilar Xristofor Kolumb ekspeditsiyalarini Marko Polo ekspeditsiyalari bilan taqqoslaydilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu ekspeditsiyalar o'rtasida zidlik o'tkazish, ayni vaqtda ularning umumiy unsurlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Kubiklar usuli. Kubiklar- o'zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir. Har tomonlamam fikrlashga (yozishga) yordam beradigan har xil yo'l-yo'riklar yozilgan kubik ishlatiladi. Tomonlarining hajmi o'rtacha 15-20 sm bulgan qutichaga qog'oz yopishtirib, kubik yasash mumkin. Kubikning har bir tomoniga quyidagi oltita yo'l-yo'riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, buni o'zaro bog'lanishini ko'rsating, buni tahlil qiling, buni qo'llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating (dalillar yordamida). O'tiladigan mavzu yoki biror tushuncha shu jadval savollari asosida tahlil qilib chiqiladi.

Kubiklar usuli savolnomasi

1	2	3	4	5	6
Buni tasvirlang. Narsaga diqqat bilan qarang (bal-ki faqat xayolingizda) va uni qanday ko'r-	Buni taqqoslang. Nima-ga o'xshaydi?	U nimalar haqida o'ylash-ga majbur qiladi? Xayolingizga nimalar keladi? Bir-biriga o'xshagan yoki farqlanadigan narsalar bulishi mumkin (narsalar, odamlar, joylar)	Buni tahlil qiling. Uni qanday qilganlari haqida gapiring. (Siz buni bilishin-giz shart emas,	Buni ishlatang. U bilan nima qilishingiz mumkinligi haqida ayting. Uni	Yaxshi va yomon Tomonlarini ko'rsating (dalillar yordamida) Ishonchli dalillarni Topishga harakat qiling. Siz xohlagan barcha dalil-

ganingizni tasvirlang. Ranglari, shakllari, xususiyatlari, hokazolarni		Xayolingizga erk bering. Bu narsani siz nima bilan birlashtirishingiz mumkin	o'ylab chiqing)	qanday ishlatish mumkin?	larni ishlatish-mantiqiy, bema'ni yoki o'rtacha.
--	--	--	-----------------	--------------------------	--

Yozuv strategiyalari.

Esse yozish. Biron bir matn, hikoya, ertak yoki asar o'qilganidan yoki umumiy muhokama qilinganidan keyin o'quvchilarga o'z fikrlarini besh yoki o'n minutlik esse yordamida (erkin yozish uslubiyoti bo'yicha) bayon etishni taklif qilish mumkin. Yozma topshiriqning bu turi o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuga doir o'z bilimlarini yakunlashda yordam berish va o'qituvchiga o'z o'quvchilarni nimalarni o'ylashi xususida ma'lumot berish maqsadida qo'llaniladi.

Erkin xat. O'qituvchi o'quvchilarga avval ishlab chiqilgan, muhokama qilingan matn mavzusiga muvofiq erkin xat yozishni taklif etishi mumkin. Erkin xat strategiyasi mavzu o'quvchilarga anchagina tanish bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Masalan, biror matn, asar yoki she'rni o'qigandan keyin qo'llanilishi mumkin.

Erkin xat yozish qoidasi:

- o'rganilayotgan mavzu yuzasidan xayolga kelgan hamma fikrlar yozilaveradi, uzoq o'ylab o'tirilmaydi;
- yonidagilar, partadoshlar bilan maslahat qilinmaydi;
- matn tahrir qilinmaydi, xatolar to'g'rilanmaydi;
- xatolarga e'tibor berilmaydi;
- xat yozish vaqti belgilab qo'yiladi.

«Munozara»ni o'tkazish usuli:

1. Yetakchi munozara mavzusini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif qiladi;
2. Yetakchi qatnashuvchilarga muammoni «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi:
 - «aqliy hujum»dan maqsad- muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;
 - diqqatni muammo yechimiga qaragan holda fikrlar bildiring, bu g'oyalaringiz umumiy fikrga zid bo'lsada, rad etilmaydi;
 - boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;
 - taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.
3. «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh qatnashchilarining har biri o'z fikrini bildirishiga sharoit yaratiladi, birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etadi;
4. Yetakchi ikkinchi bosqichga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlashtirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi;
5. Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harakat qilinadi. Muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi. O'qituvchi munozara paytida quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Siz misol keltira olmaysizmi?
- Nahotki! Nima uchun?
- Bu fikr Aziz aytgani bilan qanday qilib moslanadi?
- Demak, siz Lolaning fikriga qo'shilasiz?
- Siz menga aytmang, Akbarni ishonitirishingiz lozim!
- Sizning xayolingizga _____ ekanligi to'g'risidagi fikr kelmadimi?

Debatlar. Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiy

maqsad muammoning yechimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'riligiga ishonitirishdir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali metod hisoblanadi. Ular o'quvchilarda ijtimoiy fikrni o'zgartirishga ta'sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg'ularini rivojlantiradi.

Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o'quvchilarga sharoit tug'diriladi. Buning uchun esa mavzuni rezolyutsiya shaklida ifodalash kerak bo'ladi.

Debatlarni o'tkazish tartibi:

1. Qulay bo'lishi uchun rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashaglari ma'qul.
2. O'qituvchi muhokama mavzusni va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqtni belgilaydi.
3. O'qituvchi dastlab rezolyutsiyani qo'llaydiganlarning birinchisiga so'z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilishni so'raydi.
4. Rezolyutsiyani qo'llamaydigan guruh o'quvchilaridan birinchisiga so'z beriladi va o'z fikrini argumentlar bilan asoslab beradi.
5. So'ngra birinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga va ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga so'z beriladi. Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.
6. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchi qarshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berishiga imkoniyat tug'diriladi.
7. Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin. Bahsni doim rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.
8. O'quvchilar bu bosqichda rezolyutsiyaga nisbatan u yoki bu mavqeni egallash sabablarini bayon qilishadi.
9. Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko'rsatishi kerakki, 1-dan, ularning qarashlari muammo yechimiga zid bo'lishi mumkin, 2-dan, barchani o'ylashga majbur etsin, 3-dan, hayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.
10. Debat so'ngida o'quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyutsiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashi kerak. Shuningdek, har ikki tomondan o'rta tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligini ham muhokama qilinishi mumkin.

MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI VARIANTLARI

1- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. O'zbekistonda ta'limni isloh qilish omillari.
2. Ta'limni didaktik loyihalash.
3. Ta'lim jarayonida innovacion usullardan foydalanishning ahamiyati, ularga misollar keltiring.

Asosiy tushunchalar

-«Ta'lim to'g'risidagi»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlar, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari, demokratik jamiyat qurilishi, iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, shaxs manfaati, ta'lim ustuvorligi, milliy o'zlikni anglash, O'zbekistonning jahondagi movqei; -Loyiha, didaktik loyihalash, didaktik loyihalash darajalari, fan va o'quv predmeti tushunchalari, didaktik loyihalash tarkibiy qismlari; -Ta'limda innovაციyalarning ahamiyati, faollik, ijodkorlik, tanqidiy va erkin fikr, mulohaza

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasining o'zaro bog'liqligi va farqini yoritib berishga harakat qiling.

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

2- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va yangi ta'lim modeli.
2. Ilmiy-texnik taraqqiyot asrida ta'limni texnologiyalashtirish vazifalari.
3. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish shartlari va mohiyati.

Asosiy tushunchalar

-Jamiyat hayotidagi islohatlar, ta'lim sohasidagi islohatlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning maqsadi, kadrlar tayyorlash milliy modeli, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish; - Texnika asri, taraqqiyot, texnologiya tushunchasi, o'quv jarayoni, bilish faoliyati, boshqaruv, texnologik yondashuv; -Ta'limning guruhli shakli, «o'qituvchi-guruh-o'quvchi» munosabatiga o'tilishi, katta va kichik guruhlar, guruh tuzish qodilari va shakllari.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarni qiyosiy ta'lil qiling (V.Bespal'ko, N.Sayidaxmedov, M.Ochilov, YuNESKO ta'riflari)

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

3- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari va yangi pedagogik texnologiya muammolari.
2. Ta'lim prinsiplari va pedagogik texnologiya prinsiplari, uzviyligi va farqlari.
3. Ta'lim jarayonida «B-B-B-jadvali» strategiyasidan foydalanish metodikasi.(mutaxassislik

faningiz mavzusi misolida)

Asosiy tushunchalar

-Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari, bosqichlarning vazifalari, o'quv uslubiy majmualar, axborot ta'minoti, moddiy texnika bazasi; -Princip tushunchasi, ta'lim jarayoni va ta'lim prinsiplari, pedagogik texnologiya prinsiplari-yaxlitilik, maqsadlilik, loyihalanganlik, yakuniylik, tugallanganlik; -Interfaol usullarning ahamiyati, ta'lim samardorligini oshirish, o'quvchilarni faollashtirish, «Bilaman, bilishni xohlayman, bildim» strategiyasi mohiyati, uni qo'llash.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha adabiyotlar to'plang va ularning bibliografiyasini tuzing.

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

4- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Prezident I.A.Karimovning ta'lim sohasidagi «portlash effekti» nazariyasi mohiyati.
2. O'quv jihozlari va o'qitishning texnik vositalarining maktablarga kirib kelishi.
3. Pedagogik tizim nazariyasi.

Asosiy tushunchalar

-Prezident I.Karimovning ta'lim islohatiga oid qarashlari, Ta'lim qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad vazifalari, ularning ro'yobga chiqishi, erkin shaxsning shakllanishi; -XX asrning 30-50 yillaridagi maktab faoliyatiga oid qarorlar, texnik vositalarning qo'llanilishi, turli texnik vositalar; -Pedagogik texnologiya loyihasi, pedagogik tizim tarkibi, o'quvchi, ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, didaktik jarayon, didaktik masalalar.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jaroayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llashning dolzarbligini talab qilayotgan omillarni sanab bering.

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

5- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va uning dolzarbligi.
2. Pedagogik texnologiya prinsiplari.
1. «Aqliy hujum» usuli va uni qo'llash qoidalari.

Asosiy tushunchalar

-Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlar, pedagogik texnologiya tushunchasi, pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish dolzarbligi, ta'limni jadallashtirish, o'qituvchi-o'quvchi rolini o'zgartirish, axborotlarning ko'payishi; -Princip tushunchasi, ta'lim prinsiplari va pedagogik texnologiya prinsiplari, yaxlitilik, maqsadlilik, yakuniylik, tugallanganlik; -Pedagogik texnologiyada interfaol usullarning o'rnini, «aqliy hujum» usuli, uning qoidalari, g'oya va fikrlarning generaciya qilinishi, g'oyalarning yozib borilishi.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qitishning texnik vositalari va pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishini kuzating va tahlil qiling

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

6- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va unga berilgan ta'riflar.
2. Muammoli ta'lim va uni tashkil etish.(mutaxassislik faningiz misolida).
3. Ta'lim maqsadlarini loyihalash. "Klaster" usulidan foydalanish yo'lini tushuntiring.

Asosiy tushunchalar

Texnikaviy taraqqiyot, texnologiya, ta'limni optimallashtirish, texnologik jarayon, pedagogik tizim, tizim, usul, vosita, ta'lim maqsadini oydinlashtirish, test topshiriqlari, loyihalash, mahoratga bog'liq bo'lmaslik, natija kafolatlanishi; ta'lim metodlari, ta'lim metodini tanlash, o'quvchilar faolligini oshirish; motivaciya paydo qilish, muammoli vaziyatlar yaratish; o'quvchini fikrlashga o'rgatish; didaktik loyiha, uning turlari, o'quv maqsadini loyihalash, bosh, oraliq, harakatga teng maqsadlar, Blum taksonomiyasi, fe'llar.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Mutaxassislikka oid biror mavzu bo'yicha o'quv maqsadlari va vazifalarini loyihalang.

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

7- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Didaktik jarayon tuzilmasi.
2. 30-40 yillarda pedagogik texnologiya tushunchasi taxlili.
3. Darsda didaktik uyinlarni qo'llashning ahamiyati. O'yinlarga misollar keltiring.

Asosiy tushunchalar.

-O'quv jarayoni, o'quvchi va o'kituvchi faoliyati, pedagogik tizim didaktik jarayon, pedagogik texnologiya asosi, o'qitish jarayoni, motivaciya, o'quv-bilish faoliyati, boshqarish; -1932 yildagi maktab ish tartibi haqida chiqarilgan qarorlar, birgada-laboratoriya metodi, kurgazmalilik ,texnika vositalari, radio, kino, o'qitishning texnik vositalari; -O'yinlar, ularning ta'limiy ahamiyati, didaktik uyin, maqsad, qoida, bilish, jarayon, tafakkur, tahlil qilish,sintez.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Testlarning turli shakllariga oid test topshiriqlaridan namunalar tuzing.

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

8- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

- 1.Motivaciya- o`quv-bilish faoliyatining boshlang`ich bosqichi. Motivaciyani vujudga keltirish.
- 2.Pedagogik texnologiyaga berilgan ta`riflar va ularning mohiyati.
- 3.Ta`lim metodlarini tanlash mezonlari. "B-B-B" jadvali bilan ishlashga misol keltiring.

Asosiy tushunchalar

-Pedagogik texnologiya, pedagogik tizim tarkibi, didaktik jarayon, o`qitish motivi, ehtiyoj, intilish, mayl, motivaciya, motiv uyg`otish, qiziqarli, muomma qo`yish; -Ijodkor o`qituvchi, texnologiya ta`limni optimallashtirish, texnologik jarayon, pedagogik tizim, tizim, usul, vosita, ta`lim maqsadini oydinlashtirish, test topshiriqlari, loyihalash, mahoratga bog`liq bo`lmaslik, natija kafolatlanishi; -Metod, ta`lim samaradorligini oshiruvchi metodlar, og`zaki usul, ko`rgazmali, amaliy usul, muommali- reproduktiv usul, talim mazmuni.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Mutaxassislik fanidan biror mavzuni o`tishda «Aqliy hujum», usullarini qo`llashga oid dars ishanmasi tuzing

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo`yicha bitta mavzuni o`tishning ilg`or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

9- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

- 1.Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari va yangi pedagogik texnologiya muommalari.
- 2.Pedagogik tizim nazariyasi: didaktik masalalar va pedagogik texnologiya.
- 3.Test va unga qo`yilgan pedagogik talablar. Mutaxassislik faningiz bo`yicha turli test turlariga misollar keltiring.

Asosiy tushunchalar

-Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, dasturni ro`yobga chiqarish bosqichlari, har bir bosqichdagi vazifalar, o`quv-uslubiy majmualar, moddiy texnik baza, axborot ta`minoti, resurs, kadrlar bazasi; -Pedagogik texnologiya, pedagogik tizim, pedagogik tizim tarkibi, loyiha, o`quvchi-talaba, ta`lim maqsadi, mazmuni, dastur, darslik, didaktik jarayon, tashkiliy qism, o`qituvchi; -Test topshirig`i, testlar tuzish, test orqali baholashning ahamiyati, test turlari, yopiq test ochiq test, muvofiqlikni aniqlashga doir test.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Mutaxassislik faningizdan birorta mavzuni o`tishda «Munozara» yoki «Debat» usullarini qo`llashga oid dars ishanmasi tuzing

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo`yicha bitta mavzuni o`tishning ilg`or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

10- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

- 1.Ta`lim tarbiyaga an`anaviy va texnologik yondoshuvlar.
- 2.Ta`lim jarayonining ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funkciyalari.
3. Ta`lim jarayonida «B-B-B jadval» va «Ikki qismlik kundalik » strategiyalaridan foydalanish.

Asosiy tushunchalar

-Ta'lim tarbiyaga yondoshuvlar, an'anaviy yondoshuv, o'qituvchi axboroti, tushuntirish, texnologiya, loyiha, etaplar, bosqich, loyihalash, testlar, etalon, muammali yondashuv, axboratli texnologiya, kommunikaciya, komp'yutir, texnikasi, internet tizimi; - Ta'lim-tarbiya jarayoni, bilish jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, ta'limiy funkciya, tarbiyaviy rivajlantiruvchi funkciyalar; -Innovacion usullar, o'quvchilarni faollashtirish, «B-B-B jadvali», munozara, fikrlar jangi, «Ikki qismlik kundalik», matndan so'z (ibora, gap) ciitata tanlash, unga sharh yozish.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Kichik guruhlar tuzishning turli shakllariga oid misollar keltiring, uni qullash yo'llarini ko'rsatib bering.

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

11- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

- 1.XIX asr oxiri XX asr boshlarida pedagogik texnologiyaga oid qarashlar.
- 2.Pedagogik texnologiya prinsiplari.
3. «Sinkveyn»usuli va uni yozish qoidalari. (misollar keltiring)

Asosiy tushunchalar

-Xorijiy davlatlardagi pedagogik nazariyalar, «yangi maktablar» oqimi, erkin faol metodlar, ish-harakat pedagogikasi, pragmatik, eksperimental pedagogika, test usuli; -Princip tushunchasi, qoida, ta'lim prinsiplari, pedagogik texnologiya prinsiplari: maqsadlilik, yaxlitlilik, yakuniylik, tugallanganlik; -Interfaol usullar, «Sinkveyn»usuli, sinkveyn yozish qoidasi, murakkab axborotni sintezlash, ijodni taqdim etish.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

«Klaster» usulini mutaxassislik faningizni o'qitish jarayonida qo'llashga oid misollar keltiring

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

12- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

- 1.Rivojlangan xorijiy davlatlarda Pedagogik texnologiya markazlarining tashkil topish tarixidan.
- 2.Ta'lim prinsiplari va pedagogik texnologiya prinsiplari, ularning o'ziga xos xususiyatlari
3. Kichik guruhlar tuzish va ular bilan ishlashning turli usul va yo'llari.

Asosiy tushunchalar

-Rivojlangan xorijiy davlatlar (AQSh, Angliya, Yaponiya), XX asrning 60-70 yillari, Kommunikaciya va texnologiya assosiaciyasi, "Pedagogik texnologiya" jurnallari, pedagogik texnologiya milliy markazlari, pedagogik texnologiyaga e'tibor; -Princip tushunchasi, qoida, ta'lim prinsiplari, pedagogik texnologiya prinsiplari: maqsadlilik, yaxlitlilik, yakuniylik, tugallanganlik; -Kichik guruhlar tashkil qilish, guruh tuzish yo'llari, belgi bo'yicha, soni bo'yicha, vaqt bo'yicha guruhlar tashkil etish.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

«Sinkveyn» usulini mutaxassislik faningizni o`qitish jarayonida qo`llashga oid misollar keltiring

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo`yicha bitta mavzuni o`tishning ilg`or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

13- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Pedagogik texnologiyani tanlashda nimalar e`tiborga olinadi.?
2. Test, test turlari, testlarga qo`yiladigan pedagogik talablar.
3. Kichik guruxlarda ishlashni tashkil etish. Kichik guruhlarni tuzishga misollar keltiring.

Asosiy tushunchalar

-Pedagogik texnologiyalar banki, texnologiyani tanlash mezonlari, bosqichlari, usuli mosligi, o`qituvchining psixofiziologik imkoniyati, ijtimoiy buyurtma, o`qituvchi mahorati, ijodkorligi; Didaktik loyihalash, o`quv mazmunini loyihalash, oydinlashtirilgan maqsad, test topshiriq`i, testlarning ahamiyati; -Texnologiya, o`quvchi faoliyati, interfaol usullar, guruxni tuzish, gurux rahbarini tanlash, gurux vazifasi, muomma, yuriq, mukofot.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

«Kubiklar» usulini mutaxassislik faningizni o`qitish jarayonida qo`llashga oid misollar keltiring

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo`yicha bitta mavzuni o`tishning ilg`or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

14- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ta`lim metodlari.
2. Ta`lim maqsadlari va vazifalarini loyihalash.
3. «Aqliy hujum» (Breyntshtorming) usuli mohiyati, undan foydalanishga misol keltiring.

Asosiy tushunchalar

-Ma`ruza, amaliy mashg`ulotlar, yozma ishlar, test, loyihalash, muommali vaziyat, hamkorlikda o`qish, o`zaro bir-birini o`qitish; -Keys usuli, keys turlari, o`quv keyslarining turlari, mumtoz keyslar turlari, keyslardan foydalanish usullari, ishbilormanlik o`yini, keyslar bilan ishlash tartibi, keys muhokamasi tartibi; -Innovacion usullar, aqliy hujum, g`oyalarni generatsiya qilish; shaxsiy g`oyalarni ilgari surish, guruhlarda yangi g`oyalarni yaratish, aqliy hujum qoidalar.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Interfaol usullarini mutaxassislik fanni o`qitish jarayonida qo`llashga oid misollar keltirish

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo`yicha bitta mavzuni o`tishning ilg`or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

15- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. O'qitishning texnik vositalaridan foydalanish- pedagogik texnologiya shartlaridan biri ekanligi.
2. X1X asr oxiri XX asr boshlarida pedagogik texnologiyaga oid qarashlar.
3. Mutaxassisligingizga oid mavzu buyicha noan'anaviy darsga misol keltiring (darsning qisqacha tuzilishi).

Asosiy tushunchalar

-Ilmiy texnik taraqqiyot, texnika vositalari, axborotli texnologiya, telekommunikatsiya, komp'yuterlar, internet, ta'lim samaradorligi; - X1X asr oxridagi pedagog nazariyalar, «yangi maktablar», ijtimoiy-harakat, pragmatik pedagogika, eksperimental pedagogika, erkin-faol usullar, ta'limning tashkiliy shakllari; -KVN, konferentsiya, munozara, sud darslari, kichik guruhlarda o'qish, hamkorlikda o'qitish, ta'limning maqsadlari, usullari.

2-topshiriq.

Amaliy topshiriqni bajaring

Ta'lim jarayonida turli o'quv keyslari- muammoli vaziyatlardan foydalanishga oid misollar keltiring.

3-topshiriq

Mutaxassislik faningiz bo'yicha bitta mavzuni o'tishning ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihasini ishlab bering.

16- VARIANT

1-topshiriq

Quyidagi savollarga javob bering

1. Tanqidiy fikrlash mazmuni va uning mohiyati.
2. Ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.
3. Ta'lim jarayonida "Venn diagrammasi" dan foydalanishga misollar keltiring.

Asosiy tushunchalar

